

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VAINNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ART PEDAGOGIKA KAFEDRASI



OLIV TA‘LIMDA MUSIQA O‘QITISH

METODIKASI

MODUL-PAPKA

2024/2025 o‘quv yili 70111301 – Musiqa ta‘limi va san‘at

Namangan - 2024

Oliy ta'limda musiqa o'qitish metodikasi fani modul-papka Namangan davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil ____-_____ 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. Oliy ta'limda musiqa o'qitish metodikasi fanning o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

Asraqulova A – Namangan davlat pedagogika instituti, ART pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi. (PhD)

Taqrizchilar:

Shokirxonav B – NamDPI, ART pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi.

Axmedov B – NamDPI, ART pedagogika kafedrası o'qituvchisi.

Modul-papka Namangan davlat pedagogika instituti Kengashining 2024 yil “__” _____dagi “__” - son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

1	O'quv materiallar
	a) Ma'ruzalar bo'yicha o'quv materiallar
	b) Seminar mashg'ulotlar bo'yicha o'quv materillar
	c) Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv materillar
2	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari
3	Glossariy
4	Ilovalar
	a) Fanning o'quv dasturi
	b) Testlar
	c) Tarqatma materiallar
	d) Baholash mezonlari.....

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI UCHUN O'QUV MATERIALLAR

3 semestr

1 Mavzu: O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi va uning yo'lga qo'yilishida amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasi va uni boshqarish (2 soat)

REJA:

1. Bakalavr va magistr.
2. Oliy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standarti.
3. Ta'lim yo'nalishining malaka talablari.
4. O'quv rejaning tarkibiy qismlari. O'quv reja va ishchi o'quv rejani farqi.
5. O'quv dasturining tarkibiy qismlari. O'quv dasturi va ishchi o'quv dasturining farqi.
6. Ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish va rasmiylashtirish tartibi.

1. Davlat ta'lim standarti. Malaka talablari "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga, Kadrlar tayyovlash milliy dasturi qoidalapiga muvofiq pespublikada idopaviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllapidan qat'i nazap ta'lim muassasalapining bapcha tuplapi uchun majbupiy bo'lgan davlat ta'lim standaptlapi (DTS) belgilanadi. Bakalariat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli hamda 2013 yil 10 iyuldagi 199-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limning Dalat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" talablariga qat'iy rioya etgan holda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqariladi. Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim mazmunini belgilash va uning asosida ta'lim jarayonini tashkil etish davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dasturi, metodik materiallar banki, ya'ni darslik yoki o'quv qo'llanmalarda ifodalanadi (2.1-rasm). 2.1 – rasm. Oliy ta'limning me'yoriy-huquqiy xujjatlari. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan DTSlarga uzluksiz ta'limni standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning "Ekspert xulosasi", turdosh Oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari bilan kelishilganligi to'g'risidagi "Kelishuv bayonnomasi" va "Kelishuv dalolatnomasi", Fanlar akademiyasining tarmoq ilmiy tadqiqot institutlaridan olingan taqrizlar, Muvofiqlashtiruvchi kengash qoshidagi tegishli o'quv-uslubiy birlashma bayonnomasidan ko'chirma, Davlat test markazi ekspert xulosasi ilova qilinadi. DTS va o'quv rejalar tayanch OTM rektori tomonidan imzolangan rasmiy xat bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Rivojlantirish markaziga takdim etiladi. Xatga ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining amaldagi Klassifikatorga moslashtirilgan ro'yxati ilova qilinadi. DTS - standaptlashtirish ob'ektiga nisbatan me'yoplap va talablapni belgilaydi hamda O'zbekiston Respublikasining "Standaptlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi va quyidagilarni belgilab beradi: } kadrlar tayyovlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablapni; } ta'lim oluvchilap tayyopgapligining zapup va etaplichap dapajasini hamda ta'lim muassasalap bitipuvchilapiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablapini; } o'quv yuklamasining zapup hajmini; } ta'lim muassasalap faoliyatini va kadrlap tayyovlash sifatini baholash taptibi va mexanizmini belgilaydi. DTS ta'lim japayonini va ta'lim muassasalap faoliyatini baholashni taptibga soluvchi boshqa me'yopiy hujjatlapni yapatish uchun asos hisoblanadi. Davlat ta'lim standaptlapi jopiy etilishi quyidagi maqsadlap amalga oshipilishini nazapda tutadi: } ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshipilayotgan chuqup iqtisodiy va ijtimoiy islohotlap, pivojlangan demokpatik davlat bappo etish talablapiga javob bepuvchi kadrlap tayyoplanishini ta'minlash; } mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy tapanqiyoti istiqbollapidan, jamiyat ehtiyojlapidan, fan, texnika va

texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini taptibga solish; ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim japyoni samaradorligini oshirish; sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish; kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va taptibini belgilash; ta'lim japyoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya japyonini maqbulashtirish; mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash. Davlat ta'lim standartlarining vazifalari: ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash; ta'limga va uning natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb-kop malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash taptibi va taptibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish; xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish; ta'limning barcha turlari mazmunini, ta'lim va tarbiyani kelishish va ularning o'zaro bog'liqligi, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash; o'quv-tarbiya va ta'lim japyoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni tarbiyalashning malakasiga nisbatan me'yoriy talablarni belgilash; ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditasiya qilishni joriy etish; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash; milliy standartlar talablarning ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash. DTS ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi: umumiy o'qitish ta'limi, shu jumladan boshlang'ich ta'lim; o'qitish maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura). Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini bajarish yuzasidan va oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'limning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash, jahon ta'lim tizimiga qo'shilish, shuningdek, oliy ta'limning o'quv-metodik va me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan. DTS o'quv jarayonini, ta'lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli me'yoriy hujjatlar (ta'lim sohasining davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalarini, o'quv fanlari dasturlari va boshqalar) yaratish uchun asos hisoblanadi. OT DTS oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo'yusinishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. DTSga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichlarini amalga oshirish jarayonida, shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqqan holda tuzatishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Oliy ta'lim standartlari quyidagi toifalarga bo'linadi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim standartlari:

- Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar;

- Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.

Oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim standartlari — ta'lim sohasining davlat ta'lim standartlari. Davlat ta'lim standarti (DTS) – муайян таълим соҳасига (соҳа таркибига) қўйиладиган малака талаблари, таълим мазмуни, битирувчилар умумий тайёргарлигининг зарурий ва етарли даражасини, кадрлар тайёрлаш сифатини баҳолаш даражаларини белгилайдиган эталон даражаси. Oliy ta'lim standartlari toifalari. Muayyan ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:) zarvaraq (titul);) mundarija;) muayyan ta'lim sohasi (soha tarkibi)ning umumiy tasnifi;) bitiruvchilarning soha bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;) o'quv reja tuzilmasi;) kadrlar tayyorlash sifatini baholash. Ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti ikkita (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari) qismdan iborat bo'ladi. Me'yoriy hujjat turlari. Quyidagilar oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari hisoblanadi:) oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv fanlari dasturlari;) oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim muassasalarining muayyan ish faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar. Me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish. Oliy ta'limning ta'lim sohalari davlat ta'lim standartlari va me'yoriy hujjatlari «OT DTS. Asosiy qoidalar» va Oz DSt 1.0:1998, O'zRST 1.8-94, Oz DSt 1.9-1995. standartlariga muvofiq holda ishlab chiqiladi. Qonun hujjatlariga muvofiq o'quv jarayoni o'qitishning modul tizimiga asoslangan oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini mustaqil ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoyillarga alohida e'tibor berish lozim:) **Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida** kadrlarni ildam tayyorlash, jahon tajribalari, mamlakat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini tegashli sohalarga muvofiqlik nuqtai nazaridan imkon darajasida unifikatsiyalash;) bakalavriat ta'lim yo'nalishi va ularning negizidagi magistratura mutaxassisliklarining DTSlari bir vaqtda ishlab chiqilishi va birgalikda ekspertizadan o'tkazilishiga amal qilish;) DTSlarni ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilish;) har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha malakaviy talablar mamlakatda va xorijda mavjud tajribalarni inobatga olgan holda diqqat bilan qayta ishlab chiqilishi, hamda uni tegishli sohalarda bo'yicha amaliyotchi mutaxassislar bilan muhokamadan o'tkazish;) malakaviy talablarda keltirilgan sifatlarni shakllantiruvchi eng zarur fanlarning kiritilishi, ularning hajmlari va ketma-ketligi uzluksiz ta'lim turlari bilan uzviyligini inobatga olgan holda ilmiy asoslash;) bakalavriat va magistratura DTSlaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish;) bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar hamda tabiiy-ilmiy fanlar tarkibi va mazmunini shakllantirishda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi fanlari bilan uzviilikni ta'minlash;) **fanlar uchun belgilangan vaqt** byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratish;) o'quv rejalari kiritilgan fanlar sonini bir semestrda 5-7 tadan ortmaslik shartini inobatga olib belgilash;) ajratilgan auditoriya o'quv yuklamalarini semestr haftalariga qoldiqsiz taqsimlanishiga rioya etish;) kichik hajmli fan auditoriya soatlarini bir semestr davomida mumkin qadar haftasiga kamida ikki akademik soatdan belgilash;) DTSlarda belgilangan attestatsiya va nazoratlarga muvofiq bir fan yoki mavzu bo'yicha takroriy sinovlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik;)

malakaviy amaliyotlar soni, muddatlari va belgilanish davri ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanayotgan sohadagi ishlab chiqarish jarayoni va texnologiyalarining o'ziga xosligini inobatga olish, DTSlarda malakaviy amaliyot sifati va nufuzini oshirish hamda ishlab chiqarish va ularning mazmunini byurtmachilar talablari bilan muvofiqlashtirish;) DTSlar, o'qitiladigan fanlar tarkibi va ularning mazmuniga qo'yiladigan talablar muayyan yo'nalish, mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning asosiy buyurtmachi va iste'molchisi bo'lgan vazirlik, idora, korxonalar va tashkilotlar bilan kelishish nazarda tutilgan. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir. Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlash va tasniflash yagona tizimining (KTYAT) tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» 1998 yil 5 yanvardagi 5-con qarorini bajarish yuzasidan ishlab chiqilgan. Klassifikator «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dastur to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning davlat dasturi haqida» 1998 yil 10 noyabridagi PF-2107- son Farmoniga asosan tuzilgan. Klassifikator YUNESKO tomonidan 1997 yil mart oyida qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (TXSK) prinsiplari asosida tuzilgan. Unda quyidagi bilim sohalari ko'zda tutilgan (2.3-rasm). 2.3-rasm. Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarining klassifikatori. Klassifikatorida ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ettita raqamli kod bilan belgilanadi. X X X X X X X - mutaxassislik kodi; - yo'nalish kodi; - ta'lim sohasi kodi; - bilim sohasi kodi; - ta'lim dasturlari bosqichi kodi; Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichlari bakalavriat yo'nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida — 5A (raqam va harf) bilan belgilangan. Masalan: bakalavrlar kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hakozi; magistratlar 5A140101, 5A211301, 5A520403 va hakozi. Yo'nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatoriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi. Yo'nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatoriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kadrlar iste'molchilari tashabbusi bilan oliy ta'lim muassasalari tomonidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda tegishli qaror qabul qilish uchun kiritiladi. Yo'nalish va mutaxassisliklar klassifikatorini o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:) yo'nalish yoki mutaxassislikning ilmiy va amaliy ahamiyatini hamda mehnat bozorida mutaxassislarga bo'lgan istiqbol ehtiyojini asoslash;) bakalavriat yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o'quv rejasi loyihalari va boshqa o'ziga xos belgilari;) yangi yo'nalish yoki mutaxassislikning ilmiy-pedagogik va moddiy texnik ta'minoti mavjudligini asoslash. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorining etalonini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi olib boradi. Mazkur klassifikator tayyorlov yo'nalishlarining nomlari va kodlari, oliy ta'lim muassasalarida kasblar va ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni belgilaydi. Amaldagi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida 182 ta ta'lim yo'nalishlari va 434 ta mutaxassisliklar mavjud bo'lib, ular bilim sohalari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan (2.1-jadval). 2.1-jadval Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini bilim sohalari bo'yicha taqsimlanishi

Bilim sohalari nomi	Bilimlar sohasi bo'yicha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni	Magistratura mutaxassisliklari soni
5-bosqich	5A-bosqich	Gumanitar soha	59
		113 Ijtimoiy soha	
		iqтisod va huquq	25
		60 Ishlab chiqarish-texnik soha	59
		154 Qishloq va suv xo'jaligi	19
		47 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot	9
		43 Xizmatlar sohasi	11
		17 Jami	182
		434 Oliy ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat klassifikatori respublikaning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish istiqbollari mutaxassis tayyorlashda iqtisodiyot tarmoqlarining talab va ehtiyojlarini	

xisobga olgan xolda qayta ko'rib chiqildi va takomillashtirildi. Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari - ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash, o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta'lim muassasasi muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talab asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:) mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;) ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;) o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);) bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;) oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;) oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;) ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar. Muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:) ilmiy-tadqiqot;) tashkiliy-boshqaruv;) loyiha - izlanish;) ishlab chiqarish, texnologik;) umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;) turli xizmatlar ko'rsatish kabilarni o'z ichiga oladi. Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Ta'lim yo'nalishi uchun malaka talablarida quyidagilar o'z aksini topgan:) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi;) qo'llanish sohasi;) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi;) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;) bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari;) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;) ta'lim yo'nalishi o'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;) malakaviy amaliyotga qo'yiladigan talablar;) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi;) malaka talablarining amal qilish muddati.

Magistratura mutaxassisligining malaka talablari. Oliy ta'limning malaka talablari magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash, o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta'lim muassasasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda ushbu malaka talablari asosida tayyorlangan o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:) mazkur ta'lim sohasining magistratura mutaxassisliklari bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;) ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklarning o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;) o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);) bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;) oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;) oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi

vakolatli Davlat organlari; } ta'lim sohasining magistratura mutaxassisliklardan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar, ota-onalar va boshqa manfaatdorlar. Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari: } ilmiy-tadqiqot faoliyati; } ishlab chiqarish faoliyati; } tashkiliy-boshqaruv faoliyati; } oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat; } konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi. 2.3. O'quv reja va ishchi o'quv reja. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy xujjat - o'quv rejalarini hisoblanadi. O'quv rejasi - ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fan, ularning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv rejasi tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Bir tipdagi ta'lim muassasalari uchun o'quv rejasi yagona va majburiydir. SHu bilan birga, har bir ta'lim muassasasi o'quv rejasini belgilangan miqdorda o'zgartirishi mumkin. o'quv rejasi O'quv rejasining umumiy va majburiy ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi uchun ham o'quv rejasida ta'limning insonparvarlashuviga alohida e'tibor berilgan. O'quv rejasi muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda ta'lim muassasasi talabasi, talabasi yoki tinglovchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan. O'quv rejalarini ikki turga bo'linadi: namunaviy va ishchi o'quv rejalar. Namunaviy o'quv reja – oliy ta'lim muassasalarining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun o'rnatilgan tartibda Davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedrasining yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan turdosh oliy ta'lim muassasalarining shu soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarini hamda kadrlarni buyurtmachilarini jalb etgan holda ishlab chiqiladigan me'yoriy huquqiy xujjatdir. Ishchi o'quv reja - oliy ta'lim muassasasining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun namunaviy o'quv reja asosida har o'quv yili uchun ishlab chiqiladigan va o'rnatilgan tartibda OTMning rektori tomonidan tasdiqlanadigan o'quv jarayonining asosiy me'yoriy hujjatidir. O'quv rejada quyidagilar o'z ifodasini topadi: 1. Tayyorlov yo'nalishi (ixtisoslik) 5 kodi va uning nomlanishi, o'qish muddati, o'qishni tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi. O'quv reja - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari, kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me'yoriy xujjatdir. 2. Ta'lim shakli. 3. O'quv davrining taqsimoti (jadvali). 4. O'quv jarayonining rejasi. 6.1.O'rganiladigan o'quv predmetlari. 6.2. Har bir o'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori. 6.3. O'rganish uchun ajratilgan vaqtni – nazariy, amaliy va tajriba mashg'ulotlari, seminarlar, kurs ishlari va mustaqil ta'limga qanday miqdorda taqsimlanganligi. 6.4. O'quv predmetini qaysi kurs, semestrlarda, haftasiga qancha soatdan o'rganish tartibi. 7. Davlat Attestatsiyasi. 8. Tanlov fanlarinig ro'yxati 9. Izohlar O'quv rejalarini ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rganish davriga aniq mos tushishini e'tiborda tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxassislarining bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma – bosqich chuqur o'rganishlari, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Bakalavr va magistr tushunchalarini izohlab bering?
2. Oliy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standartiga tushuncha bering?

3. Ta'lim yo'nalishining malaka talablari nimalarni aks ettiradi?
4. O'quv reja qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
5. O'quv reja va ishchi o'quv rejani farqini tushuntiring?
6. O'quv dasturi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
7. O'quv dasturi va ishchi o'quv dasturining farqini tushuntiring?
8. Ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish va rasmiylashtirish tartibini tushuntiring?

2 Mavzu: Oliy ta'limda musiqiy ta'limning maqsad, vazifalari va mazmuni. 2 soat.

Reja:

- 1. Oliy ta'limda musiqiy ta'limning maqsadi.**
- 2. Oliy ta'limda musiqiy ta'limning vazifalari**
- 3. Oliy ta'limda musiqiy ta'limning mazmuni.**
- 4. Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyat turlari.**

Musiqa — ohang (intonatsiya) san'ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy aksidir. U borliqni o'ziga xos tarzda aks ettirib, uni boyitadi, hamda uni tushunib olish va o'zgartirishga yordam beradi. Ma'lumki, musiqa jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Musiqa insonning turmush tarzi va ijtimoiy hayotida, mehnat va dam olish chog'larida albatta ishtirok etadigan bo'lib, kishini ma'naviy qadriyatlarga erishtiradigan noyob vositadir. U shaxsning ma'naviy olamini, axloqiy maqsadlarini shakllantiruvchi estetik tarbiyaning samarali quroli hisoblanadi. Musiqaning o'zi, uning yaratuvchilari, ijro etuvchilari, tinglovchilaridan iborat musiqa madaniyati jamiyat madaniyatidagi muhim bir sohadir. Musiqa haqidagi ta'lim tizimining boshlang'ich qismi — Musiqa elementar nazariyasi — umuman musiqaning asosiy elementlari va ayniqsa, kuy va uning sirlarini o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Olinadigan bilimlarni umumlashtirish maqsadida har bir musiqa elementi haqidagi ma'lumot darslikning ayrim boblariga kiritilganligiga qaramay, o'quvchi shuni yodda tutishi kerakki, musiqa elementlari faqat bir-biri bilan bog'liqligidagina o'zining ifodali xususiyatlarini namoyon qilishi mumkin. Musiqa elementar nazariyasi kursi o'quvchilarga nazariy fanlarning keyingi kurslarini o'rganish uchun mustahkam zamin yaratib beradi va mustaqil musiqiy fikrlay olish ko'nikmaning rivojlanishiga asos soladi. bunga tarixiy nuqtayi nazardan yoritilgan lad, ritm, kuy, xromatizm kabi mavzular imkon tug'diradi. bu asosiy vazifalardan tashqari mazkur fan kursi o'quvchilarga boshqa musiqiy fanlar (cholg'u va vokal ijrochiligi, xor dirijyorligi, musiqa o'qitish metodikasi) bo'yicha o'tiladigan musiqiy asarlar matnini ongli o'zlashtirishda yordam beradi. Nihoyat, musiqa elementar nazariyasi boshqa fanlar bilan baravar o'quvchilarning umumiy musiqiy va madaniy saviyasini o'sishiga ko'maklashadi. Musiqa nazariyasi kursining asosiy nazariyalari ma'lum izchillikda bayon qilingan. Fanini puxta o'zlashtirish nazariy materiallarni bilish bilan birga, talabalarning pedagogik amaliyoti davrida va bitirgandan keyingi ishlarda ko'nikma sifatida xizmat qiladi.

Fanning maqsadi — bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchilariga musiqa ta'limida eng muhim bo'lgan asosiy nazariy qonuniyatlarni chuqur o'rgatish, Davlat ta'lim standarti hamda malaka talablariga javob beradigan bilimlar berish, talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish qobiliyatini hosil qilish, talabalarning musiqiy dunyoqarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to'g'ri

yo`naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o`stirish; talabalarni musiqa o`qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Fanining vazifasi talabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunib yetishishlarida chuqur bilimlar berish hamda musiqiy-texnik ko`nikmalarni o`rgatish; — kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va asosiy muammolari bilan yaqindan tanushtirish hamda musiqa tizimi va unda muhim o`rin egallagan garmoniya haqida aniq tushunchalar berish; — musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim musiqa elementlari, musiqiy rivojlanish prinsiplari, shakldagi qismlar funksiyasi bilan talabalarni tanishtirish va turli xil musiqiy shakllarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish — talabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani his eta olish qobiliyatlarini va musiqiy hotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, temp va uslub tuyg`usini tarbiyalash hamda o`zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo`llay olishga o`rgatishdir.

Musiqa ta`limi ta`lim yo`nalishi ta`lim oluvchi bir semester davomida 30 kreditni, bir o`quv yili bo`yicha 60 kreditni to`plashi zarur. O`qish muddati 3 yil bo`lib, talaba dastur yakunlangungunga qadar 180 kredit to`lashi kerak.

Talaba uchun bir ECTS kreditning soatlardagi miqdori 1 kredit 30 akademik soatni tashkil etadi va talabaning bir yillik o`quv yuklamasi 60 kredit 1800 akademik soatdan iborat bo`ladi. Shundan – 50% auditoriya soati, 50% mustaqil ta`lim soatiga bo`linadi. Semestr davomida talaba tomonidan o`zlashtirilishi lozim bo`lgan kreditlar hajmi fanlar katalogida ko`rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o`z ichiga oladi.

60111300 – Musiqa ta`limi ta`lim yo`nalishi – umumiy o`rta ta`lim maktablari, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari uchun bakalavriat ta`lim yo`nalishi bo`yicha pedagogik kadr jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari; O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi hamda Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug`ullanish;

60111300 — **Musiqa ta`limi ta`lim yo`nalishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyat turlari:**

— Musiqa ta`limi bakalavriat ta`lim yo`nalishi bo`lib, u maktabgacha ta`lim tashkilotlari, umumiy o`rta ta`lim maktablari, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari, maktabdan tashqari hamda bolalar musiqa va san`at maktablari uchun bakalavriat ta`lim yo`nalishi bo`yicha pedagogik kadr jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari, O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug`ullanish, ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarda kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi

— umumiy o`rta ta`lim maktablarida musiqa madaniyati fanlaridan, o`rta maxsus kasb- kunar kollejlarda kasbiy fanlardan o`rnatilgan tartibda dars berish

— umumiy o`rta ta`lim maktablari, kasb-kunar kollejlardan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo`lib ishlash;

— ta`lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;

— kasb hunar ta`lim muassasalarida musiqa ta`limi o`qituvchisi mos ta`lim yo`nalishlar bo`yicha ta`limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo`lib ishlash;

pedagogika va musiqa fanlar yo`nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy hodim bo`lib ishlash

— arxivlarda, axborot-resurs markazlarida, nashriyotlarda, ommaviy-axborot muassasalarida, qo'lyozma fondlarida, turli tadbirkorlik sub'ektlarida, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlarida hamda boshqa muassasalarda ishlash;

— mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash;

— ishlab chiqarish sohasida musiqiy kasbiy ta'lim pedagogikasi, o'qitishning didaktik vositalari, ta'limning elektron vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi sohalarni qamrab oladi.

— umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida Musiqa ta'limi fanlaridan o'rnatilgan tartibda dars berish;

— ta'lim muassasalarida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;

— mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirlilar, ularning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida Musiqa ta'limi fani bo'yicha metodist bo'lib ishlash;

— tabiiy fanlar yo'nalishidagi ilmiy — tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

— mahalliy o'z — o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash;

— ishlab chiqarish sohaslarida, kasbiy ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish:

Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadigan magistratura mutaxassisliklari bo'yicha belgilangan muddatlarda o'qishni davom ettirishlari mumkin.

Musiqiy ta'limning mazmuni — musiqiy tovush, musiqiy tizim, temperatsiya, nota yozuvi, «Tovush» tushunchasi, Musiqiy tovush va uning xususiyatlari, musiqiy tizim, tovushqator. Pog'onalar, Oktavali tizim. Diapazon. Registr, Temperatsiyalangan soz. Hosila pog'onalar. Alteratsiya belgilari. Tovushlar engarmonizmi, Nota yozuvi. Kalitlar, Tovush cho'zimplari. Cho'zimplarni uzaytiruvchi belgilar. Pauzalar. Nota yozuvini qisqartirish belgilari, Metr. Takt. O'lchov, Metr turlari. Oddiy metrlar. Oddiy taktlarda cho'zimplarning guruhlanishi haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; — Murakkab metrlar. Murakkab taktlarda cho'zimplarning guruhlanishi. Ritm. Sinkopa. Cho'zimplarning erkin ravishda bo'linishi Metronom. Lad, Turg'unlik va noturg'unlik, Oktavali lad pog'onalarining maxsus nomi. Major va minor turlari. Tetraxordlar, Tonallik. Kvinta davrasi. Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar, Melodik ladlar, Tabiiy ladlar. Pentatonika. Ikkilanma garmonik major va minor. Sun'iy ladlar. Interval. Pog'onalar va tonlar miqdori. Diatonik intervallar. Xromatik intervallar. Intervallarning engarmonizmi, Intervallarning aylanishi. Tabiiy major va minor intervallari. Xarakterli intervallar. Intervallarning yechilishi mustaqil o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

— Akkord. Akkord turlari.Uchtovushlik. Uning turlari va aylanmalari Major va minor uchtovushliklari, Septakkord. Uning turlari va aylanmalari. Dominantseptakkord. Yetakchi septakkord. Subdominantseptakkord, Xromatizm tushunchasi. xromatik gamma. Xromatik gammalarning yozilishi. Modulatsiya va og'ishma tushunchalari Pog'onadosh tonalliklarga

modulatsiya qilish. Musiqa asarida kuyning ahamiyati, Kuyning harakat yo'nalmasi va uning diapazoni. Kuyning tarkiblarga bo'linishi. Transpozitsiya usullari. Tonalliklarni aniqlash malakasiga ega bo'lishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Oliy ta'limda musiqiy ta'limning maqsadi.
2. Oliy ta'limda musiqiy ta'limning vazifalari
3. Oliy ta'limda musiqiy ta'limning mazmuni.
4. Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyat turlari.
5. Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadigan magistratura mutaxassisliklari bo'yicha belgilangan muddatlarda o'qishni davom ettirishlari mumkinmi?

3 Mavzu: Oliy ta'limda musiqa darslarining o'ziga xosligi va boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Reja:

1. Musiqa madaniyati darslarining maqsad va ahamiyati.
2. Musiqa madaniyati darsining xususiyati va boshqa faniardan farqi.
3. Musiqa madaniyati darsining boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Musiqa darsining strukturasi.
5. Musiqa darsining faoliyat turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Dars, musiqa tarbiyasi tizimida, yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, bolalar yalpitarda qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aqliy hamda axloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o'qitish metodikasi emas, balki musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi. Yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy va nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va ruxiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. UmumtaTim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, «jonli» qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat e'tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini ustirish, fikrlash

qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, eiyutsional his -tuyg'ularga ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirini emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madoniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his -tu y g 'ularini shakllantirish nazarda tutiladi. O'qituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi; - musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash; - hayot va san'at o'rtasidagi o'zviy bog'likni ifodalash; Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yoillarini takomillashtirib borishi zarur. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonaci did bilan namunali jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Texnika vositalari, metodik ko'rgazmali qurollar, pianino cholru asbobi va o'zbek xalq cholru asboblari bilan jihozlangan bo'lishi, yangi dasturdan foydalanib, dars reja konspektlarini tuzib yangi texnologiyani qo'llab olib borilishi kerak. SHunday qilib, musiqa darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmuni darsni mazmunlarini yoritib, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismlarini bir - biri bilan uzviy olib borishini talab etiladi. Musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyliigi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalap uyg'otishi bilan ajralib turadi. SHuning 14 www.ziyouz.com kutubxonasi uchun musiqa darsi eng avvalo, tarbiya darsidir. Musiqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa dars lar dan farq qiladi: 1) U musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal - xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir. 2) Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» (kuy, lad, dinamik belgilari, temp, alteratsiya belgilari, intervallar) bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan tasviriy san'at ranglar bilan, paqc san'ati harakat bilan ifodalarka, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san'at turlarim ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz, shuning uchun ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chikqan. 3) Musiqa aniq vaqt oichovi bilan bog'langan san'atdir. SHuning uchun, ijro etilayogan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementnbiy diqqat bilan tinglamasak, asami mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asami qayta - qayta tinglaganda, uning yangi - yangi badiiy qirralarini his etamiz. 4) Musiqa bolalarga faol emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uygotadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darslaridan bolalar xordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo'lib chiqadilar. Xullas musiqa darsi o'zining faol psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi. 5) Musiqa aniq vaqt o'lchoviga ega. Shuningdek, musiqa darsi boshqa

fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqa darsini hayot bilan bog'lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi. Boshlang'ich sinflarda musiqa darsi beshta faoliyat turidan tuziladi: 1. Xor bo'lib kuylash. 2. Musiqa savodi. 3. Musiqa tinlash. 4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish. 5. Bolalar cholg'u asboblari bilan o'ynash bo'lishdan iborat. Xor bo'lib kuylash Bolalarni musiqiy o'quvini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa, vokal -xor ishlarining ahamiyati katta. Bunda o'quvchilarni kuylashga qiziqitirish olish ko'p jihatdan o'rganadigan har bir mashq yoki qo'shiq o'quvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berishga bog'liq. Chunki yosh bolalar bilan olib boriladigan vokal -xor ishi ko'pincha o'qituvchi ovozigacha taqlid qilib kuylashga asoslanadi. SHuning uchun o'qituvchi yoqimli ovozi ustida muntazam ish olib borishi kerak. Vokal-xor ishlarini amalga oshirishda o'qituvchi ovoz sozlash, qo'shiq o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarning ovoz diapazoni (do, - do2), ishchr: diapazoni(mi, - fa, - so l) primar tovushlarida kuylash uchun qo'lay bo'lgan (sol, - lya,), tovushlarini aniq bilishi lozim. Musiqa madaniyati darslarida qo'shiq o'rgatish bir necha bosqich jarayonida amalga oshiriladi: 1. Bolalar diqqatini qo'shiqqa jalb qilish. 2. Qo'shiq haqida o'qituvchining kirish so'zi (qo'shiq mualliflari, asarining mazmuni, tarixiy xususiyatlari haqida qisqacha hikoya qilish). 3. Qo'shiqni tahlil qilinishi (musiqa ifoda vositalari, karakteri mazmunini suqbat yo'li bilan belgilash). 15 www.ziyouz.com kutubxonasi 4. Qushiqni musiqiy jummalarga bo'lib o'rgatish (to'g'ri nafas olib, jumlaning oxirigacha tejab yetkazish, ijrochilik sifatleri ustida ishlash). 5. Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish (qo'shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqa suqbat o'tkazish ya'ni umumlashtirish). Musiqa savodi Musiqa madaniyati darslari jarayonida, musiqa savodi mustaqil dars faoliyatlari jarayonida musiqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish ishlarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo'llaniladi. Musiqa savodi mazmuni o'quvchilarni tobora shakllantiradi va ularni doirasini tobora kengaytirib, chuqurlashtirib boradi. SHunday qilib musiqa savodi darsining ta'limiy vazifasini bajaradi, Musiqa savodi (faoliyatining) asosiy negizi va pedagogik maqsadi, yangi dastur bo'yicha berilgan chorak mavzulari quylash vatinglashga doir asarlarini savodli ta'lim qilish orqali amalga oshiriladi. Ular o'quvchilarni kundalik hayotidan olinayotgan taassurotlari va musiqiy tajribalari asosida o'rgatiladi. Musiqa savodi quyidagi bosqichlar bo'yicha o'rgatiladi. 1. Bolalar diqqatini musiqa ifoda vositalari quy, registr, temp, ritm, dinamik belgilar o'rgatish. 2. Ovoz sozlash va qo'shiq ijro etish qoidalariga doir bilimlar, chapak va cholg'u asboblari chalish qoidalariga amal qilishga o'rgatish. 3. Musiqa ijodkorlari: «kompozitor», «ijrochi», «tinglovchi» mavzuning mazmuni va o'rganiladigan asarning mualliflari haqidagi ma'lumotlar, musiqa savodi orqali amalga

oshiriladi. Musiqa tinglash Musiqa tinglash, musiqa madaniyati darslarining asosiy omii hisoblanadi, chunki musiqaning yangrashi ongli ravishda idrok etilib, uning harakteri, mazmuni ongli ravishda o'zlashtiriladi. O 'quvchi!arni hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asari zamirida ma'lum, his - tungu va fikr aks ettiriladi. Biz musiqa darsining qaysi faoliyatini olmaylik u avval musiqani tinglab, musiqani idrok etishdan boshlanadi va o'quvchilaming ruhiyatiga ta'sir etadi, shuning uchun musiqa tinglash darsining yetakchi faoliyati bo'lib hisoblanadi. Darsda tinglanadigan har bir musiqiy asar, badiiy - g'oyaviy mazmuni jiqatdan choraq dars mazmuniga bog-liq bo'ladi va ilmiylik davomiylilik, izchillik tamoyillariga amai qiladi. Musiqa tinglash bir necha bosqichlar orqali amalga oshiriladi: 1. O 'quvchilar e'tiborini musiqiy asargajalb qilish va o'qituvchining kirish so'zi. 2. O 'qituvchi ijrosida yoki magnit yozuvda asarni tinglash. 3. Asami suhbat yuli bilan musiqiy va badiiyg'oyaviy jixatdan oddiy tahiil qilish. 4. Asami bir butunligicha qayta tinglash va asarhakida o'quvchilami umumiy taassurotlariyuzasida yakuniy suhbat o'tkazish. Musiqa tinglash metodlari: 1. Ko'rgazmali metoli: - O 'qituvchining jonli ijrosi, rasmlar vositalariorqali bolalar cholg'u asbobi, torli, ritmli harakatlar. 2. Amaliy metod: - o'quvchilar musiqiy asarga qiziqishini oshirib,ulami hayotiy tajribasiga bog'lab tushuntirish vamusiqiy asarga munosabatini faollashtirish. 3. Taqqoslash metodi: - bunda asarlarning janrlariijrochilikhususiyatlari templari, mazmunlari taqqoslanadi,musiqiy didini o'stirishga yordam beradi. Musiqa darsini 5ta faoliyati turlari (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga mos harakatlar bajarish va bolalar cholg'u asboblarida jo 'r boiish) uzviy bog'lab boriladi va mantiy bir butunlikka erishish maqsadga muvofiqdir. 16 www.ziyouz.com kutubxonasi 4. Qg'zaki metodlar: - O 'qituvchi tinlanadigan asar mazmunini boialar hayotiga bog'lab yoritadi. Asar mazmuniga qarab mualliflari, kelib chiqish tarixi haqida qiziqarli xikoya qilib beradi. Boialar cholg'u asboblarida So'r boiish Boialar cholg'u asboblarida jo'r boiish. Bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg'ulotdir, chunki boialar cholg'u asboblari jonli, tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir o'quvchining qiziqtiradi. Boialar cholg'u asboblari birinchi navbatda o'quvchilarda ijrolik elementlari orqali ijodkorlik, musiqiy o'quv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa madaniyati darslarida boialar cholg'u asboblaridan foydalanish yaxshi natijalar berish bilan birga o'quvchilami darsga intiiuvchanligini, qiziqishini, musiqiy o'quvini oshiradi. Musiqa darslarida qoilaniladigan boialar cholg'u asboblari ikki turga boiinadi. Kuvchang va kuvchanff boimagan (shovqinli) cholg'u asboblar kiradi. 1. Kuychang cholg'u asboblarga metalafon va kselafon kiradi. 2.Kuychang boimagan cholg'u asboblariga: doirachalar, oddiy cho'p qoshiqlar, kichik shiqildoklar, barabanchalar, uchburchaq markassa va rumbalar kiradi. Boialar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish turli metodlar amalga oshiriladi; 1. Avval boialar kuyni tinglab, chapak chalish, ritmik jo'r boiish.

2. Musiqaga ritmikjo‘r boiishni aniq bajariganlar, bolalarcholg‘u asboblarida jo‘r boiadigan. 3. Keyinchalikesa,passivbolalar, to‘g‘ri ijroetishga intilish maqsadida, ular ham jo‘r boiadilar. 4. Boialar cholg‘u asboblarida jo ‘r boiish har gal,har xil cholg‘u asboblarida bajariladi. 5. Sinfni 2 guruxga boiib. 1 - gurux chapak vacholg‘uda, 2 - gurux esa ovoz usul berish (bum - ba,baka -baka -bum) bilan amalga oshirish mumkin. 6. Boialar choig‘u asboblarida ritmiq jo ‘r boiish grafik ko‘rsatilgan ritmik tuzilmalarga qarab, chalish ham o‘quvchilar ijodkorligini oshiradi, faollashtiradi, ijrochilik malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi. Musiqaga xos harakatiar bajarish. Boshlang‘ich sinflarda ritmik harakatlarni bajarish, o‘quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlangich sinf o‘quvchilari, ovoz apparatlari noziq diqqat e‘tibori tarqoq serharakat, o‘ynqaroq xotirasi, nutqi, toiiq rivojlanmagan boiganligi sababli musiqa darsida faoliyat turlari tez - tez almashib turishi lozim. Musiqaga mos raqs, o‘yin harakatlarini bajarish, o‘quvchilarni diqqatini jamlashda, xotirasini mustaxkamlashda va jismonan o‘shishga yordam beradi. Dars davomida quyidagi harakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi: marsh musiqalariga qadam tashlash, yugurish, raksi elementlarini bajarish, mustaqil o‘yinlar o‘tkazish, musiqaning harakteriga mos, turli q o i va tanaharakatlari bilan ifodalanadi. Maiumki, milliy musiqamiz madaniyatida raqs muhim o‘rin tutadi va unga har bir bola qiziqadi. Har bir harakat turini o‘qituvchi oldindan belgilaydi va o‘zi uni aniq go‘zal va ifodali qilib ko‘rsatib beradi. Har bir harakatni bajarishdan oldin, unga doir musiqani mazmunini avval ongli ravishda tinglab yoki kuylab, so‘ngra harakatiar bajarish yaxshi natija beradi. Boialar musiqali o‘yinlarga ham juda qizikadilar. Ko‘p musiqiy asarlar mazmunida o‘yin metodlaridan foydalanish mumkin. Dars jarayoni bajarilgan har bir musiqiy harakat turi, musiqali o‘yinlar, o‘quvchilarni xotirasini mustaxkamlaydi, nutqinio‘stiradi,jismoniy cogiom boiishiga ko‘maklashadi va ularni ruxlantirib, musiqa darsiga qiziqishini oshiradi. CHunki, boshlangich sinf o‘quvchilarini diqqat e‘tiborini tarqoq ovoz apparatlari, kuchsiz, musiqiy o‘quv qobiliyatlari to ia shakllanmagan, serharakat, o‘yinga moyil boiadilar. Bunda darsning tuzilishi pedagogik maqsadlarga qarab darsni xoxlagan dars faoliyatidan boshiash mumkin. Bundan maqsad, o‘quvchilami musiqaga qiziqitira olish, musiqiy qobiliyatlarini ustirish, dars faoliyatlariiii bir - biri bilan chambar17 Y - 4 - III / www.ziyouz.com kutubxonasi chas bog‘lab mazmunjixatdai mantiqiy bir butunlikka erishdir. Demak, yangi dastur mazmunida dars o‘tish uchun, musiqa o‘qituvchisi ijodkor bo‘lishi, musiqadan zarur bilimlarga hamda ashulachilik malakalariga ega bo‘lishi lozim.

Nazorat savollar:

1. Musiqa darsining maqsad va vazifala nimalardan iborat?
2. Musiqa darsi qanday xususiyatlarga ega va qanday fanlar bilan bog'liq?
3. Zamon talabi asosida musiqa. darsi qanday bo'lmog'i kerak?
4. Musiqa darsining strukturasi qanday faoliyatlardan iborat?

Tayanch tushunchalari:

«Metodika» - bilish, o'rganish usuli. «Xususiy metodika» - bitta fanning uslubi. «Amaliy metod» - ijodiy mehnat. Seminar

4- Mavzu Oliy ta'lim tizimida musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi

Reja:

1. Musiqa o'qitish metodikasining maqsad va mazmuni.
2. Musiqa o'qitish metodlarining vazifalari.
3. Musiqa o'qitishning xususiy (optimal) metodlari va ulaming turlari.
4. Musiqa o'qitish metodlari va ulaming turlari.

Musiqa o'qitish metodikasi, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlami nazariy qismlarini umulashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U, musiqa o'qitishning qonun - qoidalarini ta'riflab beradi, kelajak yosh avlodni tarbiyalashda qo'llanadigan zamonaviy metodlami belgilaydi. Metodika, ta'lim - tarbiva jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullarining, mazmunini anglatadi. Musiqa o'qitish metodikasi o'qituvchidan iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo'lishini talab etadi, chunki, san'at pedagogikasi mashakqatli va juda mas'uliyatli sohadir, Xozirgi kunda musiqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunta qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab tarakkiyot yulini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqa o'qitish metodikasini shakllantirishda maxaliy olimlar, metodistlar, tajribali o'qituvchilarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalariniig ahamiyati katta bo'ladi. Badiiy pedagogikaning metodika sohasidagi sungri yutuqlari talabalami pedagogika faolivatiga www.ziyouz.com kutubxonasi tayyorlash, ulami metodik bilim va maqoratlar bilan qurollantirish, musiqa o'qitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq ijtimoiy mehnat qilish talab etiladi. Ma'lumki, maktabda o'quvchilaming yosh fiziologik xususityalarini, kunikma va malakalariga qarab, musiqa o'qitish metodikasi qo'llaniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining (Uquv reja, dastur) ta'lim printsiplari, o'quv - tarbiyaviy ishlaming umumiy maqsad va vazifalari muhim ahamiyatga egadir. Demaq musiqa o'qitish metodikasi, o'quvchilaming musiqa san'atiga o'rgatishning mazmuni, vazifalari va metodlarini o'rgatuvchi va o'quv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yullarini

tadbik etuvchi fandır, «Metodika» soʻzi grekcha soʻz boʻlib, «tadkikot yoʻli», «bilish usuli» degan maʼnoni anglatadi va taʼlim - tarbiyaning alohida qismlari boʻlib hisoblanadi, ulaming yigʻindisi musiqa oʻquv metodlari deyiladi. Musiqaning oʻqitish metodlari deganda, maktab oʻquvchilaming bilim, maxorat va malakalarini egallashda, ulaming ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda oʻqituvchilaming qoʻHagan ish usullari tushuniladi. Musiqa oʻqitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa oʻqitishning qator metodlari bilap birgalikda, pedagogikaning amaliy yunalishini xususiy (optimal) metodlar egallab, musiqa darsida qoʻilash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa oʻqitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda musiqa darsida oʻqitishning (optimal) xususiy metodlaridan unumli foydalanishga bogʻliq. Yetuk olimlarimizning tadkikotlarida maktab oʻqituvchisining shaxsiyati va unga boʻlgan professional talablar va oʻquvchilar munosabatini, xususiy metoddardan foydalanish jarayonida xal qilish lozimligini ilmiy asosda taʼriflab berganlar. Xususiy metod - biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustaxkamlashda, oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatida oʻzaro aloqadorligini va oʻquvchilami bilish jarayonida izlanishta undovchi metoddir Xususiy (optimal) metodlar oʻqitish faoliyati maqsadga qarab turtga boʻlinadi: 1. Darsni musiqaviy umumlashtiruvchi metodi. 2. Oʻtilajak darslarga oldindan «yugurib», bogʻlanib oʻtish va ilgari oʻtilganlarga qaytish metodi. 3. Dars mazmunini emotsional dramaturgiyasi metodi. 4. Darsningpedagogik jihatdan kuzatilishi vabilimlaming baxolanish metodi. 1. Darsning musiqaviy umumlashtirish metodi yetakchi metodlardan biri boʻlib, oʻquvchilarni musiqa idroki, mantiy badiiy fikrlash qobiiyatini rivojlantirishga qaratilgandir: A) oʻqituvchi darsda xal qilinishi lozim boʻlgankonkret vazifalarni vujudga keltiradi; B) oʻqituvchi va oʻquvchi birga hamkorlikda masalani yechadi. B) oʻquvchilar tomonidan yakuniy xulosalarehiqariladi. 2. Oldinga «yugurib oʻtish», yaʼni ilgari oʻtilgan materialdan foydalanib, oʻquvchilami yangi material oʻzlashtirishga tayyorligini sinab koʻrish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi. 3. Emotsional dramaturgiya metodi bilan darsning mantiy yaxlitligiga erishiladi. Bunda chorak mavzusi asosida dars rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muvofiq boʻlib, boshlanishi va yakunlanishiga bordiadir. Oʻqituvchi darsni ijrochilik mahorati, soʻz ustaligi bilan qizikarli qilib oʻtishi kerak va oʻquvchilarni darsga faol qiziqtirib, darsning emotsional dramatumiyasi, yaʼni avjiga erishishi lozim. Musiqa oʻqituvchisi maktabda musiqa darsidan tashqari kontsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar oʻtkazishni talab etadi. 4. Darsni pedagogik kuzatilishi va bilimlarni baholash maqsadga qarab bir necha turlarga boʻlinadi: A. Oʻquvchilami bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi. B. Bilim faoliyatini ragʻbatlantirish va lanbehtalablarini qoʻyish. 19 www.ziyouz.com kutubxonasi S. Oʻqitish, bilish faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish. Baholashda shunday extiyotkor boʻlish kerakki, oʻquvchilami kayfiyati tushib ketmasin. Darsga, qoʻshiq kuylashga qiziqishi sunmasin. Ragʻbatlantirishda esa aksincha. Oʻqituvchi va oʻquvchi munosabatlari meʼyordan chiqib ketmasligi kerak. Balki, ragʻbatlantirish, sinfda boshqa oʻquvchilarga namuna boʻlib xizmat qilsin va ular odobli, aqlli boʻlishga intilsinlar. Spunday qilib, musiqa oʻqitish metodlarini boshqa turlari ham mavjud; 1. Musiqa oʻqitishning ogʻzaki metodlari. 2. Koʻrgazma oʻqitish metodlari. 3. Amaliy oʻqitish metodlari. 4. Oʻyin metodlari. 5. Taqqoslash metodlari. 6. Musiqiy oʻquvi boʻsh boigan boialar bilan ishlash metodi. 1. Musiqa oʻqitishning ogʻzaki metodlari. Musiqa darsida oʻqituvchining soʻz maxoratiga alohida talab qoʻyiladi. Oʻqituvchi oʻzining asar haqidagi badiiy kirish soʻzi bilan oʻquvchilami ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi hamda

qiziqarli xikoya yoki suhbat yo'li bilan boialar diqqatini jalb qilib, musiqani badiiy idrok etishlariga erishadi. Asosan, bu metoddan boshlang'ich sinfda ko'proq foydalaniladi. Hikoya - bu o'qituvchining musiqa asari haqida jonli, emotsional yorqin bayoni. Hikoya qiska, obrazli, jonli, qiziqarli bo'lib, uning maqsadi o'quvchilarni asarni badiiy idrok etishga o'rgatish. Suhbat - o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatidan iborat bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ularni nutqini o'stiradi, fikriy faoliyatni kuchaytiradi, bilish qobiliyatini rivojlantiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi. Tushuntirish - ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa darsida qo'llaniladi. Bu asosan, musiqa savodi faoliyatida qo'llaniladi.

2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari. Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va ohang tovushlaridan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organlari orqali tinglab, idrok etish mumkin. Ko'rgazmali o'qitishni esa, nota yozuvlarni, plakatlarni, rasmlarni, o'qituvchining so'zi, dirijyorlik ifodalari, raqs harakatlari, boialar cholg'u asboblari, musiqani jonli va aniq ijrosi, texnik vositalaridan foydalaniladi. Demak, musiqaning jonli yangrashi darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

3. Amaliy o'qitish metodlari. Amaliy metodlar vositasida o'quvchilar vokal - xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va nota yozuvini o'rganish malaka va kunikmalarini shakllantirishi uchun foydalaniladi. Amaliy metodlar, vokal - xor malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

4. O'yin metodi - boshlang'ich sinflarda ko'proq ijro natija beradi. Yangi dastur asosidayaratilayotgan qo'llanma va darsliklarda o'yin va uning elementlari keng joriy etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari serharakat va o'yinga moyil bo'ladi. Darsda qo'llaniladigan musiqali o'yinlar o'quvchilarning musiqiy o'quvini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqa darsiga qiziqish o'zgartiradi.

5. Taqqoslash metodi. Musiqa darsi jarayonida kontrast, ya'ni taqqoslash metodi keng qo'llaniladi. U vokal - xor ishlarida o'qituvchi, o'quvchilar bilan grammatikadagi ijrolarini taqqoslashda musiqa asarining tahlili vajarlarni belgilashda keng qo'llaniladi. Masalan, raqs, marsh, janrlarni templari, turli cholg'u asboblardagi ijrolar farqini aniqlashda foydalaniladi.

6. Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan boialar bilan ishlash metodi. Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan o'quvchilar bilan dars jarayonida differentsial guruxlarga bo'lib va darsdan keyin vaqt ajratib, yakka (individual) tarzda olib boriladi. Differentsial guruxdeganda o'quvchilarni 20 www.ziyouz.com kutubxonasi musiqiy qobiliyati, o'quvi va ovozi qarang uch guruxga bo'linadi.

1 - guruxga ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar kiradi. 2 - guruxga ovozi, musiqiy qobiliyati o'rta bo'lgan, ya'ni o'qituvchining ovozi ergashib, cholg'u soziga tayanib va do'stlarini ovozi ergashib kuylaydigan o'quvchilar kiradi. 3 - guruxga esa, ovozi uncha yaxshi bo'lmagan, musiqiy qobiliyati bo'sh bo'lgan o'quvchilar kiradi. Musiqa darsi jarayonida bu o'quvchilar quyidagi tartibda o'tkaziladi: birinchi qatorga o'qituvchini ovozi tayanib kuylaydiganlar, ikkinchi qatorga musiqiy o'quvi bo'sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lmagan o'quvchilar, uchinchi qatorga qobiliyatli, ovozi jarangdor bo'lgan bolalar o'tkaziladi. Bunda ikkinchi qatordagi o'quvchilar musiqa ohanglarini atrofdegilar eshitib ularning ovozlari ergashib, chiroqli, kuylashga harakat qiladilar. SHu uslub bilan o'quvchilarni musiqiy o'quvini ustirish mumkin. Ba'zi musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan, darsdan keyin alohida, yakka tartibda shug'ullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. SHu tariqa, hamma o'quvchilarni musiqaga qiziqishi, qo'shiq kuylashi, musiqa tinglash ishtiyoqi, qobiliyati, musiqiy o'quv, bir xilda bo'lib, qo'shiq kuylash malakalari hosil bo'ladi. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar: 1. Musiqa o'qitishning

qanday metodlari mavjud? 2. Xususiy metod nimani anglatadi va qanday turlari bor? 3. Musiqa o'qitish metodlarining turlari va ularning vazifalari? 4. «Metodika» - so'zi nimani anglatadi va uning vazifalari nimadan iborat? Tayanch tushunchalari: «Metodika» - bilish, o'rganish usuli. «Xususiy metodika» - bitta fanning uslubi. «Amaliy metod» - ijodiy mehnat.

5-Mavzu: Musiqiy pedagogik ta'limni tashkil etish shakl va uslublari.

Reja

1. Oliy ta'limda darslarning tuzilishi va turlari
2. Oliy ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim tizimidan farqli
3. Ma'ruza o'quv jarayoni
4. Seminar o'quv jarayoni
5. Amaliy o'quv jarayoni

Oliy ta'limda darslarning tuzilishi va turlari Oliy ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim tizimidan farqli o'laroq, mashg'ulotlar ma'ruza, seminar (amaliy), laboratoriya va ekskursiya shakllarida amalga oshiriladi. Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini oliy o'quv yurtida dars berishning asosiy shakllaridan biri. U talabalarining dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ma'ruza (arabcha - o'qish) - o'quv materiallari, biror masala, mavzu kabilarning izchil, malum bir tizimiga solingan bayoni. Ma'ruza o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanib, u bir qator vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi, Hozirgi pedagogik texnologiyalar tizimida ma'ruza o'ziga xos modul, uni tayyorlash va o'tkazish esa kichik pedagogik texnologiya jarayonidan iborat. Bu jarayon dastlab ma'ruza uchun matnlarini to'plash, o'rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, tegishli amaliy vazifalarni belgilash va ularni sifatli amalga oshirish yuzasidan tavsiyalarni shakllantirish bosqichlaridan iborat bo'ladi. Shundan so'ng ma'ruza matnini tayyorlash bosqichi boshlanadi. Ma'ruza matnlari kursning o'quv-mavzu rejasida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha tayyorlanadi. Shu mavzularni tegishli tinglovchilar guruhi bilan o'rganishdan ko'zda tutilayotgan maqsadlar belgilanadi. Bunda mavzuning dolzarbligini aniq ko'rsatib berish, unda tegishli muammolarni hal qilish yo'nalishlarini belgilab berish va shunga muvofiq ilmiy, metodik va amaliy xulosalarni sharhlash, ularni amalga tadbiq etish yuzasidan zarur tavsiyalar berish nazarda tutiladi. Ma'ruza mazmuni uning mavzusini to'liq qamrab olishi zarur shartlardan hisoblanadi. Buning uchun ma'ruza materialini, odatda, asosiy tarkibiy bloklarga ajratish yaxshi natija beradi. Buning natijasida ma'ruza matnini tayyorlashda ham va shu ma'ruzani guruhda o'tkazishda ham zarur tartib hamda mantiqiy izchillikka erishiladi. Umumiy-pedagogik mavzulardagi ma'ruzalar materiallarining tarkibi ko'proq quyidagi bloklardan tashkil topadi: — nazariy blok. Bunda tinglovchilarni mavzuning ilmiy-nazariy asoslari, qonuniyatlari va qoidalari bilan tanishtiriladi, ya'ni bu ma'ruzani o'rgatish kerak degan savolga javob deb belgilanishi mumkin; 6 metodik blok. Mavzuning qonun-qoidalarni o'rganish, o'rgatish, foydalanish masalalarini ozlashtirish, ya'ni bu «qanday bajarish kerak» degan savolga javob deb belgilanishi mumkin; - amaliy

blok. Ma'ruza davomida o'rganilgan ya'ni ma'limotlarni «qayerda, qachon, nima maqsadda, qanday vositalar orqali, qanday me'yorlarda qo'lash» bilan tanishtirish, ya'ni bu «nima uchun kerak» degan umumiy savolga javob deb belgilanishi mumkin; - xulosalar bloki. Nazariy, metodik va amaliy bloklar bo'yicha umurnlashtiruvchi natijalami ifodalashga xizmat qiladi va bu «nima qilish kerak» degan savolga javob deb belgilanishi mumkin; - nazorat bloki— tinglovchilarning o'zlashtirishlarini ma'ruza davomida tezkor nazorat qilishga xizmat qiluvchi har turli didaktiv materiallar va usullardan iborat bo'lib, bu «tushunarlimi» degan savolga javob deb belgilanishi mumkin; - tavsiyalar bloki. Ma'ruza mavzusi bo'yicha xulosalami har turli real sharoitlarda amalga oshirish yuzasidan tinglovchilarning fikr-mulohaza va takliflarini hisobga olgan holda hamkorlik va hamfikrlikda belgilangan asosiy yo'l-yo'riqlardan iborat bo'lib, bu navbatdagi hamda kelgusi vazifalarni belgilab beradi. Uni majoziy ma'noda «ma'qulmi» degan savolga javob deb belgilash mumkin. Ma'ruza bloklarini yuqorida keltirilgan shartli savollar bilan qo'shimcha ravishda belgilab nomlashdan maqsad shuki, ular har bir blokning maqsad va mazmunini o'ziga xos yaqqol ifodalashi bilan ma'ruzani layyorlash hamda o'tkazish davrida ma'ruzachi uchun foydali mo'ljal sifatida qulaylik tug'diradi. Bu esa ma'ruzaning matn tayyorlash va ma'ruzani otkazishda kamchiliklarsiz, aniq izchillikda faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratadi. Ma'ruza matnini bayon etishda zamonaviy pedagogik, psixologik, didaktik qoida va talablar hisobga olinadi. Ma'ruza matnini faqatgina bayoniy axborotlardan iborat bo'lmay, undagi savollar, muammolar, yechimlar asosida muammoli vaziyatlar keltirib chiqarishga, matnni mustaqil mutolaa qilishga, erkin fikrlashga undashi kerak. Ma'ruza matnlarida mavzu bayoni mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar va taraqqiyot yitkalishtirish jarayoni, jo'shqin hayot tarzi, ilg'or fan yutuqlari bilan chambarehas bog'lanishi lozim. Mustaqillik yillarida qolga kiritilgan yangiliklar, muvoffaqiyatlar aniq dalillar asosida keltiriladi.

7 Ma'ruza matnida tinglovchilarning qanday tushuncha, malaka, bilimlarni o'zlashtirishlari zarurligini nazarda tutish muhimdir. Tayanch signal, sxema, diogramma, tasviriy matreallarga alohida e'tibor berish kerak. Ayniqsa, materiallarni hayotiy misollar asosida tayyorlash zarur. Ta'lim tizimida milliy g'oya, madaniy, tarixiy qadriyatlarni o'quvchilarga singdirish orqali ularni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida va e'tiqodli qilib tarbiyalashga erishish lozim. Oliy ta'limda fanlarni o'qitish tizimida mashg'ulotlarning ma'ruza, seminar (amaliy) va laboratoriya shakllari bo'lib, ular quyidagi maqsad va vazifalarga yo'naltirilgan: Ma'ruza, o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli bo'lib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi: yo'naltiruvchilik — o'quvchilarni o'quv materialining asosiy holatlariga, iming kelgusi ish faoliyatidagi o'qim va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi; axborotlilik - o'qituvchi ma'ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi; metodologiklik - ma'ruza vaqtida o'qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi; tarbiyalovchilik — ma'ruza o'quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo'lishni uyg'otish; rivojlantiruvchilik— bilim olish qiziqishlarini, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ma'ruza ilmiy xarakterga ega bo'lishi, turli nazariy yo'nalishlar, ilmiy maktablarning asosiy g'oyalarni talabalar ongiga yetkazishi va olgan bilimni ishonchga aylantirishi kerak. Har qanday ma'ruzaning eng zarur sharti tinglovchilar bilan qizg'in aloqaga kirishishdir. Ma'ruzani ko'zdan o'tkazish kerak. Ma'ruza o'qish, eng avvalo, unga tayyorlanishdan boshlanadi. Shuning uchun birinchi navbatda ma'ruza mavzusi bo'yicha adabiyotlar tanlash hamda ular bilan tanishib chiqish kerak. Ma'ruzada talabalar o'tilayotgan fanning dasturi asosida mavzuga oid bilimlar va unga doir oxirgi erishilgan yutuqlar bilan birinchi marta tanishtiriladi, yechimini topgan va yechimini kutayotgan muammolar haqida tushunchalar beriladi. Ma'ruza — bilimlar majmuasini berishning eng ratsional usuli. Ma'ruza talabalar bilan muloqotda bo'lishning alohida shakli bo'lib, u hoshiyaga hech qanday o'quv

shakli bilan almashtirib bo'lmaydi. Ma'ra- /nning oldiga qocyardigan maqsadi har xil bo'lib, bu maqsad maksimal darajada amalga oshishi uchun uning vazifalariga ahamiyat berish kerak. Ma'ru/aning vazifalari: professional ta'lim berish va dunyoqarashni shakllantirish. talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Ulami axloqiy, ma'naviy jiImtdan barkamol boiishi, mehnatga munosabati, sotsial-psixologik xis~ latlarini shakllantirish. bilim berish, o'rganayotgan fani bo'yicha axborot olish, olgati axboroti asosida tadqiqot o4kazib, xulosa chiqarishga o'rgatish. Ma'ruzaga qo4yIladigan talablar. Ma'ruza ma'lum bir yo'nalishga: yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi lozim. Ma'ruzada asosiy maqsadga etish uchun talabalardu fanlami o'rganishga barqaror qiziqish uyg'otish kerak. Ma'ruzani shunday tuzish kerakki, talabada faoni chuqur o'rganish uchun mus~ tnqil ravishda adabiyotlami topish, ularning ustida ishlash, tushunishga xohish-istak tug'ilsin. Shuning uchun zarur material, kitoblar, jumal va hoshqa ma'lumotlar tanlash prinsipial ahamiyatga ega. Shu bilan birga talabalarga duch kelinadigan qiyinchiliklami, ulami obyektiv va subyektiv tomonlarini ham tushuntirish kerak. Tajriba ko'rsatadiki, talabaga dekloratsiya, shior emas, balki ishonchli dalillar, chuqur tahlil ko4proq ta'sir qiladi, Har qanday fairni o'qitish ham ishonchli dalillar, ma'lumotlar, nazariy va amaliy xulosalarga tayanadi. Ma'ruzaning ilmiyiligi materialni bayon qilishning izchilligi, savollarning aniq, tushunarli qo'yilishini nazarda tutadi. Ma'ruzaga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi mavzu bo'yicha savollami qanday bayon qilishni, qanday usiubiar qo'llashini koez o'ngiga keltirishi kerak. Mavzu bo'yicha adabiyotlami, zarur ma'iumotlami ana shundagina to'g'ri tanlashi mumkin. Yana shuni ham hisobga olishi lozimki, o'qituvchi zarur dalillar, ma'lumotlarga ega boisa-da, ularni ishonarli, asoslangan holda bayon qilmasligi, fandagi dolzarb savollarga javob berishdan chetlab o4ishi yoki chetga chiqishi mumkin. Bu talabalarda ma'ruzadan qoniqmaslikka olib keladi. 9 M a'ruza itirlarinm g o4ziga xos xususiyatlari Ma'ruza shakllars O^xiga xos xususiyatSari Kirish Ma'ruzaning eng an'anaviy tiiri. Pedagogik vazifalar: o'quv ma'lumotini bayon qilish va tushuntirish Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotli Kursni yoki uning bitta bo'limini bayon etilgan nazorat holatlari negizida, avvalo, ilmiy-tushtmcliaviy va konseptual asos tashkil etadi. Pedagogik vazifalar: ilmiy bilimlami tizimlashtirishni amalga oshirish. Ichki va fanlararo aloqani voritib berish Muammoli Yangi bilimlar savol, vazifa, vaziyatlaming muammoligi orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilimi o'qituvchi bilan hamkorlikda va suhbatda tadqiqotchilik faoliyatiga olib kelinadi. Pedagogik vazifalar: yangi o'quv ma'lumotini yoritib berish; muammoni aniqlash, uni yechish, jamlash va an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazami tahlil qilishni tashkiilashtirish Kofirgazmali Bimday ma'ruzaning olib borilishi kocrilayotgan materiaUami ochiq holda va qisqa sharhlashga olib keladi. Pedagogik vazifalar: ma'lurnot mazmimini ta'limning texnikaviy vositalari yoki audio texnikalar yordamida yoritib berish Binarli Bimday ma'ruzaning olib borilishi ikki nafar ofiqituvchi5 ikki nafar maktab vakillari, olim va amaliyotchilar, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi suhbatni namoyon qiladi. Pedagogik vazifalar: yangi o'quv ma'lumotlarini ikki tomon nuqtai nazarlarini taqqoslash orqali voritib berish Oldindan ko'zlangan xatolikiar bilan 0 'qituvchi ongli ravishda yo'l qo'ygan mazmimiy, metodologik xatolar: talabalar. tomonidan topishga qaratilgan. Ma'ruza yakunida talabalaming tashxisi va yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlili olib boriladi. Pedagogik vazifalar: yangi material mazmunini yoritib berish; talabalami taklif etilayotgan nia' lumotni doiino nazorat qilishlariga qiziqtirish Anjuman 0'qituvchi tomonidan tayyorlangan dastur miqyosida, oldindan belgilangan muammo va ma'ruza tizimi bilan iJmiy-serinar mashg'uloti olib boriladi. Pedagogik vazifalar: ym gi o'quv inalumotim izlash va tizimashtirishga harakat qildirish 10 Turli yoi bilan o'tkazilishi mumkin. L «Savol-javob». Osq tuvchi ma'ruza davomida hutun kurs yoki bo'lim bo'yicha talabalaming savollariga javob beradi. 2. «Savol-javob-muMaslaliatli nozara». Yangi ma'lumotni nafaqat bayon etadi, balki qo'yilgan

savollarga javob izlab topishni tashkillashtiradi Pedagogik vazifalar: talabalar bilimmi mustahkamlash, rivoj- _____lantirish, ulami yangi maMumotlar bilan toldirish_____ Kirish m a'ruzasida ta 'lim berish texnologiyasi. Hozirgi vaqtda o'quv materialmi tuzilmaga solish modul asosida amalga oshirilooqda. Acjliy harakatlami bosqichma-bosqich shakllaotirishrimg psixologik mtzariyasiga mnvofiq, bu muammoni o'qitish tuzilmasiga qiziqtimvchi bosqichni kiritisli orqali hal etish mumkin. Uning vazifasi - ta'lim oluvchilarda kutilayotgan o4quv materialmi egallash uchun qiziqishni (bizning holatda o'quv fani, kursga) ta'iiiiinlasli, zero harakatning to iiq yo'nalishi o'quv materialining barcha tashkil etuvchilari o'rtasidagi aloqani aniqlashi mumkin. Oliy maktabda ta'lim fan, lairsning qiziqtiruvchi bosqichi kirish ma'ruzasi hisoblanadi. Uning maqsadi - o'quv fanming kursi to6g'risida birinchi umumiy tasavurni berish va talabalami ish jarayonida, oldmdagi o'quv faoliyati natijalariga va ularning nazorat tizimi va baholashiga yofcnaldrish hisoblanadi. Pedagogik vazifalar quyidagilardan iborat: - talabalami fan, kursning ahamiyati, vazifasi va uning ocrni, o'quv fanlar tizimida hamda kasbga tayyorgarligidagi o "mi bilan tanishtirish; tuzilmaga qisqacha sharh berish, fanni va amaliyot rivojlaoishini, bunda mashhur olimlarning xizmatini aytib, bu sohadagi erishilgan .yuluqlami yoritib berish; - ushbu bilimlar sohasidagi tadqiqot istiqbollari yo4nalishlarmi bayon etish; - fen, kurs doirasida uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini yoritish; tavsiya etilayotgan o6quv-uslubiy adabiyotlar tahlilmi amalga oshirish; ..hisobot, baholash shakllari va vaqtini aniqlash. Quyida ma'razaning o'zaro faol usuli, o4kazish texnologiyasiga to'xtalamiz. Har qanday yuqori saviyada o'tkaziladigan ma'ruza, garchi u faktlarga boy bo'lsa ham, uzoq vaqt bir maromda davom etaversa, tinglovchilarning eshitish qobiliyati susayadi va eharchaydi. Bu holat uni loqayd eshituvchiga aylantiradi. Ma'ruza qancha uzoq davom etsa, samaradorlik shuncha kamaya boradi. Ma'ruzani samarali o'tkazish uchun nima qilmoq kerak? Buning uchun ma'ruzani kichik pedagogik texnologiya darajasida biz yuqorida keltirgan talablar asosida quydagicha tashkil etish tinglovchilar uchun qulaylik tug'diradi. Ma'ruzachi o'z ma'ruzasini bir nechta bloklarga bo'ladi. Har bir blokni 15 — 20 minut davom ettiradi va har bir blokdan so'ng to'xtab, mavzu bilan bog'liq qisqa savol-javob, fikr almashuv olib boradi. Tinglovchilarni kichik guruhga bo'lib, muhokama, munozara tashkil etadi. Ma'ruza davomida ayrim muammolarni o'rtaga tashlaydi. Shu vaqt oraligcida bu muammoga tinglovchilarning munosabatini aniqlaydi, ulaming fikrlarini tinglaydi. Har bir fikr bildiruvchiga imkoniyat yaratadi. Ammo uni tanqid ostiga olmay, boshqalaming fikrlarini ham tinglaydi. Bu holat ma'ruzaga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi, ma'ruzaga befarq qaramaslikka sabab bo'ladi, tinglovchilar orasida o'zaro faollik paydo bo'ladi, muhokama etilayotgan mavzu bilan bog'liq muammolarga qiziqish ortadi. Tinglovchilami yakka tartibda suhbatga tortish 5 minutgacha davom etishi mumkin. Ma'ruzachi tinglovchilarning qiziqishi, intilishi, ma'suliyati oshib borishini kuzatib boradi. Ma'ruza davomida muntazam faol ishtirok etuvchilar, teran fikr bildiruvchilar ma'ruzachining tayanchiga aylanadi va ular ma'ruzachi tomonidan rag'batlantirilib boriladi. Ma'ruza davomida mavzuni asta-sekin tinglovchining kundalik faoliyatiga doir misollar bilan bog'Mab boriladi (tarixdan dars o'tish jarayonida talabalarga har xil tarixiy davrlarda ilm oluvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar, ulardan ko4zlangan mafkuraviy maqsadlar va rag'batlantirilishlaming kocrinishlari) va qisqa munozaralar orqali tegishli yechimlar topiladi va bundan esa o'z navbatida tinglovchi ma'ruza mazmunining kundalik hayotda naqadar zarurligini his etadi. Shu holda kechgan ma'ruzalarda tinglovchilar vaqt qanday o4ganini bilmay qoladi. Ma'ruzaning yana davom etishini xohlab, befarqlik o'mini hushyorlik, ichki intilish, yechim qidirish egallaydi, o'zlari ham yechimini topishda shaxsan ishtirok etib, hissa qo'shishga intiladi va ular ma'ruzaning mazmunini hayotiy misollar orqali yoritishda ishtirokchilarga aylanadi. 12 Seminar (amaliy) mashg'uloti - bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilur bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy

bilimlar III amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulot shaklidir. Seminar (amaliy) mashg'ulotining asosiy maqsadi nazariy materialni (bilimlarini) tartibga solish, amaliy malaka va ko'nikmalarini hosil qilish va bilimlarini nazorat qilishdan iborat. Seminar (amaliy) mashg'uloti darslarini ikki turga ajratish mumkin. Ular ma'ruza darsi mavjud bo'lgan va ma'ruza darsi mavjud bo'lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlari. Seminar (amaliy) mashg'uloti darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari luunda kalendar-tematik rejalariga qat'iy amal qilingan holda o'tkaziladi. Seminar (amaliy) mashg'ulotilarni o'tkazish bo'yicha zarur adabiyotlar ro'yxati beriladi. Ma'ruza darsi mavjud bo'lgan seminar (amaliy) mashg'ulotlarda, asosan, ma'ruza darslarida o'tilgan materiallar, mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi. Seminar (amaliy) mashg'uloti quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi: - nazariy materialni tartibga solish; - ko'nikmalarni hosil qilish; - bilimlarni nazorat qilish. Ta'lim beruvchi seminar (amaliy) mashg'ulotini samarali o'tkazish uchun quyidagilarni hisobga olishi zarur: - o'zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo'lishi; - o'quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, tashkil etilish xususiyati; - o'quv jarayonining texnik jihozlanishi. Seminar (amaliy) mashg'uloti darslarida yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kirib, tashkiliy ishlarni o'tkazadi. Xonaning darsga tayyorlik darajasi, doskaga yozish va o'qirish vositalarining mavjudligi hamda talabalar davomati aniqlanadi. Darsda o'tiladigan mavzu e'lon qilinib, doskaga yozib qo'yiladi. O'tilgan mavzuning asosiy mazmuni qisqacha bayon qilinib, yangi mavzu rejasini beriladi. Ma'ruza darslari mavjud bo'lgan fanlardan seminar mashg'uloti, darslari, albatta, ma'ruza o'tilgandan keyin o'tkaziladi. Ma'ruzada o'tilgan materialning asosiy xulosalari tushuntiriladi, ma'ruza bilan seminar mashg'uloti bog'lanadi. 13 Seminar (amaliy) mashg'ulotlari fanning, hattoki mavzularning xususiyatlaridan kelib chiqib, turli xil usularda o'tkazilishi mumkin. Seminar (amaliy) mashg'uloti darslarida savol-javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantirilib ball qo'yiladi. Seminar (amaliy) mashg'uloti darslarining qat'iy dastur bo'yicha sifatli o'tilishi, talabalar bilimining o'z vaqtida baholanishini fandan ma'ruza olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek, amaliyot o'qituvchisi bilan dastur bajarilishi, amaliyot darslarida nimalarga alohida e'tibor qaratilishi, ma'ruzada mavzularning qaysi qismlari kam yoki ko'proq yoritilganini va boshqa o'quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib, fikrlashib turishi lozim. Ma'ruza darslari rejalashtirilmagan, faqat amaliy dars o'tkaziladigan fanlardan seminar (amaliy) mashg'ulotlari o'tkazishda nazariy bilimlar bilan amaliy mashqlar bajarish birgalikda olib boriladi. Dastlab mavzu bo'yicha nazariy bilimlar beriladi, o'qituvchi misol va mashqlar bajarib ko'rsatadi. Shundan so'ng talabalar mustaqil mashqlar bajaradi, o'qituvchi talabalar bilimini baholab boradi. Amaliy darsni o'qituvchi xulosalab yakunlaydi. Seminar (amaliy) mashg'ulotlarni o'tkazishning asosiy yo'li ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlangan ma'ruza va ma'lumotlarni jamoaviy muhokama qilishni tashkillashtirishdan iborat bo'ladi. Seminar (amaliy) mashg'ulotlari samaradorligi ta'lim oluvchilarni seminar mashg'ulotiga tayyorlanish sifati bilan aniqlanadi. Ma'ruza va yangiliklar bilan chiquvchi, ta'lim oluvchilarning tayyorgarligi ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir mashg'ulot uchun texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Texnologik xaritani loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qoidasi asosida tasvirlanadi. O'quv maqsadlari muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bogliq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqini belgilaydi. Har bir fanning o'quv maqsadlari to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Umumiy o'quv maqsadlarining niazmuni yo'naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqib belgilanadi. O'qituvchi tomonidan seminar (amaliy)

mashgʻulotlarni oʻtkazish texnologiyasi, dars ishlanmasi va texnologik xaritasi ishlab chiqiladi. Har 14 hit mashgʻulot boʻyicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish oʻquv jarayonini toʻlaqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil qilish imkonini beradi. Laboratoriya darslari - oʻquvchilarga turli jihoz, maxsus uskuna, qurol, texnikaviy qoʻllardan foydalangan holda tajribalarni oʻtkazish imkoniyatini yaratuvchi metodlar boʻlib, ular koʻproq tabiiy fanlar asoslarini oʻrganishda qoʻllaniladi. Ushbu metod oʻquvchilarda asbob-uskunalar bilan ish koʻrish, olchash ishlarini amalga oshirish, ularning natijalariga ishlov berish kabi koʻnikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma, jihoz va materiallarni, vaqtni sarflash hisobiga ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Ekskursiya darslari - narsa va hodisalar mohiyatini tabiiy sharoitlar (ishlab chiqarish muassasalari, fermer xoʻjaliklari, tabiat) yoki maxsus muassasalar (muzey, koʻrgazma zallari va h. k.) da bevosita oʻrganilishini tashkil etish boʻlib, ana shu maqsadga xizmat qiladigan dars ekskursiya darsi deb nomlanadi. Taʼlim modeli va darsning texnologik xaritasi Hozirgi vaqtda oʻquv materialini tuzilmaga solish modul asosida amalga oshirilmoqda. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishning psixologik nazariyasiga muvofiq, bu muammoni oʻqitish tuzilmasiga qiziqtiruvchi bosqichni kiritish orqali hal etish mumkin. Uning vazifasi — taʼlim oluvchilarda kutilayotgan oʻquv materialini egallash uchun qiziqishni (OTMda oʻquv fani, kurs) taʼminlash. Zero harakatning toʻliq yoʻnalishi oʻquv materialini barcha tashkil etuvchilari oʻrtasidagi aloqani aniqlashi mumkin. Oliy taʼlimda fan, kursning qiziqtiruvchi bosqichi kirish maʼruzasi hisoblanadi- Uning maqsadi — oʻquv fanining kursi toʻlqinida birinchi umumiy tasavvumi berish va talabalarni ish jarayonida oldindagi oʻquv faoliyati natijalariga va ularning nazorat tizimi va baholashiga yoʻnaltirish hisoblanadi.

6- mavzu: Oliy taʼlimda musiqa oʻqituvchisini tayyorlashga qoʻyiladigan talablar va uning bugungi kundagi holati

Reja:

1. Oliy taʼlimda musiqa oʻqituvchisini tayyorlashga qoʻyiladigan talablar
2. Oliy taʼlimda musiqa oʻqituvchisini bugungi kundagi holati
3. Musiqa taʼlim- tarbiyasiga doir meʼyoriy va oʻquv-uslubiy hujjatlar
4. Musiqa madaniyati fanini oʻqitishning asosiy tamoyillari

Musiqa taʼlim- tarbiyasiga doir meʼyoriy va oʻquv-uslubiy hujjatlar Hozirgi zamon musiqa pedagogikasi fani oldida turgan muhim muammolardan biri – taʼlim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero, musiqa taʼlim-tarbiyasi maʼnaviy kamolotini taʼminlovchi muhim omillaridan biri boʻlib, inson tuygʻulariga taʼsir etish bilan uni maʼnaviy – axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Keyingi yillarda mamlakatimizda musiqiy taʼlim-tarbiyani rivojlantirish borasida qator meʼyoriy va oʻquv-uslubiy hujjatlar qabul qilindi, dasturlar tayyorlanib, darsliklar nashr ettirildi, oʻquv-metodik adabiyotlar chop etildi. Umumtaʼlim maktabida musiqa taʼlimi mazmunini yanada oshirish, tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda Davlat taʼlim standartining ahamiyati katta. 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining Davlat taʼlim standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisida” gi 187-sonli qaror bilan Musiqa madaniyati fanidan Davlat taʼlim standarti tasdiqlandi. Unda umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida musiqa madaniyati fanini oʻqitishning maqsadi - oʻquvchilarning maʼnaviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy gʻurur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini oʻstirish, oʻzbek

hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o'rgatishdan iborat, deb belgilandi. Hujjatda maktabda boshlang'ich ta'limning muhim jihatlaridan biri o'quvchilarda musiqiy savodxonlik malakalarini shakllantirishdan iboratligi e'tirof etildi. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati o'quv dasturiga taalluqli musiqa savodi malakalarini mustahkam o'zlashtirilishi, o'quvchilar ongi va shuurida uzoq vaqt saqlanib qolishi, ular mavjud musiqiy bilim, malaka va ko'nikmalardan kundalik faoliyatda qo'llay olishlariga erishish lozimligi qayd etildi. Musiqa madaniyati fanini o'qitishning oldiga esa o'quv fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish asosida fikr doirasini kengaytirish, o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini hamda turli musiqiy janrlarni bir- 5 biridan farqlay olish, tayanch va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish kabi vazifalar qo'yildi . Yoshlarni milliy musiqa san'atiga qiziqtirish, musiqiy merosimiz bilan tanishtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat ega. Unda xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallayotganligi ta'kidlab o'tildi. Qarorda o'zbek milliy maqom san'ati markazining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: jumladan, xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish, ta'lim muassasalariga mohir maqomchi san'atkorlarni biriktirish va shu asosda "Ustozshogird" maktablarini tashkil etish vazifasi topshirildi . Qarorga binoan Shahrisabz shahrida 2018 yilning 6-10 sentabr kunlari o'tkazilgan Xalqaro maqom san'ati anjumanida Prezidentimiz so'zlagan nutqida: "Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarurligi alohida ta'kidlanib: "Agar biz asl, haqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak", "Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak" ligi alohida e'tirof etildi³ . O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2019 yil 19 martdagi "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan vidioselektor majlisida esa 1 "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori. (Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta'lim standarti). 2017 y. 6 aprel 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 3391-sonli qarori //Xalq so'zi. 2017. - 18 noyabr 3 Prezident Shavkat Mirziyoevning "Xalqaro maqom san'ati anjumani" ning ochilish marosimidagi nutqi". //Xalq so'zi. 2018 y. - 7 sentabr 6 yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ularni madaniyat va san'atga jalb etish, sportga qiziqtirish, kitob o'qishga chorlash, axborot texnologiyalariga o'qitish va xotin-qizlarga ishchi o'rinlar yaratish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi. Albatta, 5 ta tashabbus mazmun va g'oya jihatidan bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirilmoqda. Birinchi tashabbus- yoshlarning musiqa, tasviriy san'at, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga qaratilgan. Har bir tashabbusning maqsadi aniq belgilangan bo'lib, ushbu tashabbus yosh avlodni ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazish ishlarini qamrab olishi, san'at va madaniyat sohasi ishtirokida amalga oshirib borilishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida amaliy fanlarni

o'qitishni yanada takomillashtirishga asos bo'ladi. Bugungi kunda pedagogik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish zamonaviy yoshdushuvlarni taqozo etmoqda. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deya ta'kidlanishi mamlakat yoshlarini kelajakda yuqori malakali mutaxassislar etib tarbiyalashda alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasi asosiy jihatlarida amaliy fanlarni o'qitish, bu yo'nalishda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash borasida alohida ta'kidlab o'tildi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ 4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan musiqiy ta'lim tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, texnologiya ta'limi, jismoniy madaniyat, chaqiriqqacha harbiy ta'lim hamda maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishlari bo'yicha 3 yillik bakalavrlk ta'limi joriy 1 Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent. O'zbekiston, 2016 y. – B. 14. 7 etildi. Oliy pedagogik ta'lim tizimida mutaxassis-o'qituvchilar tayyorlash ishi yo'lga qo'yildi. Umumiy o'rta ta'limda "Milliy o'quv dasturi"ning ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi muhim ahamiyatga molik masalalardan biridir. Unda musiqa madaniyati fanini o'qitishning Konsepsiyasi 8-bobdan iborat bo'lib, quyidagicha nomlanadi: 1-bob- Umumiy qoidalar. 2-bob- Musiqa madaniyati fanini o'qitishning joriy holati va mavjud muammolar. 3-bob- Musiqa madaniyati fanining maqsad va vazifalari. 4-bob- Musiqa madaniyati fanining o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish. 5-bob- Musiqa madaniyati fanining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash. 6-bob- Musiqa madaniyati fanini o'qitish metodologiyasi. 7-bob- Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi. 8-bob- Yakuniy qoidalar. Birinchi bobda - O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida musiqa madaniyati fanini o'qitishni rivojlantirish Konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilganligi bayon etilgan. Shuningdek, Konsepsiya umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari belgilab berilgan. O'zbekistonda san'at, ma'naviy, estetik va badiiy an'analarni avloddan-avlodga yetkazish, yoshlarni san'at asarlarini idrok etishga o'rgatish orqali badiiy madaniyatini rivojlantirish, ma'naviy-intellektual salomatligini asrash, o'quvchilarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish kabilar asosiy vazifa ekanligi qayd etilgan. Ushbu fanni o'qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash orqali o'quvchilarda madaniy qadriyatlarga asoslangan ijodiy va shaxsiy fazilatlar shakllantirilishi lozim bo'lsa-da, mazkur fan 8 mazmuni hamda o'qitishda mavjud bo'lgan ayrim muammolar ham sanab o'tilgan. Uchinchi bobda musiqa madaniyati fanining maqsadio'quvchilarga san'at, badiiy-estetik va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlar, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdir, deb belgilangan hamda musiqa madaniyati fanining vazifalari yoritilgan. To'rtinchi bobda musiqa madaniyati fanining ilmiy-metodik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar bayon etilgan. Musiqa madaniyati fani bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish prinsiplari asosida amalga oshirilishi ta'kidlanib, o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishda qo'yiladigan talablar o'z ifodasini topgan. Musiqa madaniyati fani moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha amalga oshiriladigan tadbir haqida tushunchalar keltirilgan. Musiqa madaniyati fanini o'qitishning asosiy tamoyillari, fanning aniq maqsadga qaratilganligi,

musiqa madaniyati fani bo'yicha o'quvchilar faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar, fan mashg'ulotlarini o'tkazish jarayoni o'qitishning ilg'or metodikalari, maktab, oila va madaniy muassasalarning o'zaro hamkorligidagi faoliyatga asoslangan holda tashkil etilishi lozimligi ta'kidlangan. Shuningdek, musiqa madaniyati fani bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqishda malaka talablari va ilg'or tajribalarni hisobga olish muhimligi, darsliklarga qo'yiladigan talablar ko'rsatilib o'tilgan. Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi, chora-tadbirlari belgilangan. Musiqa madaniyati fani bo'yicha ishlab chiqiladigan me'yoriy hujjatlar mazkur Konsepsiyada belgilangan qoidalarga muvofiq bo'lishi, Konsepsiyani amaliyotga joriy etishda ta'lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar, vazirlik va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxonalar, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik bilan o'zaro kelishilgan holda amalga oshirilishi qayd qilingan.

Nazorat savollari:

1. Oliy ta'limda musiqa o'qituvchisini tayyorlashga qo'yiladigan talablar nimalarni o'z ichiga oladi.
2. Oliy ta'limda musiqa o'qituvchisini bugungi kundagi faoliyati qanday darajada deb o'ylaysiz.
3. Musiqa ta'lim- tarbiyasiga doir me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlar nimalarni o'z ichiga oladi.
4. Musiqa madaniyati fanini o'qitishning asosiy tamoyillari qanday.

7- mavzu: Musiqa ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning umumiy tavsifi

Reja:

1. Musiqa ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning umumiy tavsifi
2. Musiqa yo'nalishidagi fanlarning umumiy tavsifi
3. Psixologik-pedagogik fanlarning umumiy tavsifi
4. Nazariy fanlar fanlarning umumiy tavsifi
5. Amaliy fanlarning umumiy tavsifi

Oliy ta'limda Musiqa yo'nalishidagi darslarida san'atning bu turi bilan oshno bo'lish maktab o'quvchilarini milliy musiqiy ruhda tarbiyalashda, ularning dunyoqarashi, ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Musiqaning keng tarbiyaviy imkoniyatlarini o'qituvchi amaliyotda faol tatbiq eta olsagina, u bolalar musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning san'at asarlarini to'g'ri anglash, idrok etish va baholay

olishga o'rgatishi mumkin. Albatta, jamiyat tomonidan maktab oldiga qo'yilayotgan vazifalarni amalga oshirish fan oldida katta mas'uliyatni qo'yadi. Musiqa tarbiyasini hayot bilan bog'lash, bolalar musiqiy-badiiy qiziqishlarini rivojlantirish, mashg'ulotlar tarbiyaviy ta'sirini oshirish kabi muhim vazifalar musiqa madaniyati fani o'qituvchisidan o'z fanini chuqur bilishni va o'quvchi shaxsiga doimiy e'tibor bilan qarashni taqozo etadi.

Musiqa o'qitish metodikasi-bo'lg'usi maktab musiqa o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega fandır. Ushbu fan musiqa vositasida bolalarning ta'lim-tarbiyasini amalga oshirish masalalarini o'rganadi. Musiqa tarbiyasi metodikasini egallash uchun maktab dasturida musiqa fanining kiritilishi, uning o'rni, ahamiyati musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini, tarbiya ob'ekti sifatida zamonaviy o'quvchi shaxsini yaqqol tushunish talab etiladi. Musiqa tarixini bilish, uni rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilay olish, bastakorlik ijodiyoti, musiqa merosi xususidagi tushuncha va malakalar - o'quvchilar musiqiy didlarini tarbiyalashga asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning dunyoqarashlarini kengaytiradi, musiqa san'atining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga, musiqiy obrazlarda hayot voqealarining aks ettirilishini, musiqa ifoda vositalarini hissiy anglashga yordam beradi.

Psixologik-pedagogik, metodologik fanlar esa hozirgi davrda maktabga o'qituvchiga o'quv-tarbiyaviy jarayonning mazmunini, tamoyillari va shakllari tuzilishini bilishga, turli yoshdagi o'quvchilarning yosh, pedagogik-psixologik va fiziologik xususiyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlarsiz maktabda musiqa tarbiyasi maqsad-mohiyati, mazmun va tuzilishini tasavvur qilish qiyin. Oliy musiqa pedagogik ta'limida o'qitish metodikasi fani o'quv rejasiga asosan 3-kursda 5-6 semestr davomida o'qitilib, u 84 o'quv soatlarini o'z ichiga oladi. O'zlashtirilgan nazariy bilim, malaka va ko'nikmalar keyingi yilda bitiruvchi talabalarning Davlat pedagogik amaliyoti davrida mustahkamlanadi. Musiqa o'qitish metodikasi pedagogik fanlar tizimiga kiradi va o'zining mustaqil o'rniga ega bo'lib, musiqa tarbiyasining mazmun va metodlarini takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o'rganadi. Musiqa o'qitish metodikasining mohiyati yosh avlod tarbiyasida musiqa san'atining muhim roli va ahamiyatini anglatish bilan belgilanadi. Musiqa tarbiyasining metodik fan sifatida rivojlanishi jamiyatda madaniyat, musiqa san'ati, ta'lim, maorif va maktablarning takomillashuvi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Musiqa pedagogikasi umumiy pedagogikaning bir qismi sifatida o'ziga xos xususiyati, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, his-tuyg'ular olami va musiqiy badiiy obrazlari bilan insonning ma'naviy-estetik qarashlarini kengaytirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bola shaxsini ma'naviy rivojlanishida musiqa san'atining o'rni, roli va pedagogik ahamiyati musiqachi-pedagog olimlar E.B.Abdullin, Y.B.Aliev, O.A.Apraksina, B.V.Asafev, T.I.Baklanova, L.A.Barenboym, N.Y.Bryusova, N.A.Vetlugina, D.B.Kabalevskiy, V.I.Petrushin, N.M.Mixaylovskaya, Y.N.Nazaykinskiy, Y.V.Nikolaeva, O.P. Radshovalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Mamlakatimizda musiqa pedagogikasi bo'yicha XX asrning so'nggi o'n yilliklarida mamlakatimizda H.Nurmatov, A.Hasanov, F.Jo'rayev, R.Qodirov, Q. Mamirov, S.Annamuratova, T. Tursunov, F. To'rayev, S. Do'stov, A. Qo'shayev va boshqa ko'pgina musiqachipedagog olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarda musiqiy ta'limning maqsad va vazifalari, mazmun-mohiyati, musiqiy faoliyat turlari, musiqa ta'limida qo'llaniladigan qator an'anaviy usullar tadqiq etilgan. Musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari, musiqa o'qituvchisining tayyorgarlik darajasi, kasbiy mahorati, o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy-badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lmog'i bilan-gina ta'lim-tarbiyada samarali ijobiy natijaga erishish mumkinligi e'tirof etilgan. Muhimi, ilmiy izlanishlarda musiqa ta'limi samaradorligini belgilovchi omillardan biri-musiqiy-metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog'liqligi asnosida yechimi masalalaridir.

Nazorat savollari:

1. Musiqa ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning umumiy tavsifi
2. Musiqa yo'nalishidagi fanlarning umumiy tavsifi
3. Psixologik-pedagogik fanlarning umumiy tavsifi
4. Nazariy fanlar fanlarning umumiy tavsifi
5. Amaliy fanlarning umumiy tavsifi

8- mavzu: Oliy ta'limni me'yoriy xuquqiy bazasi.

Reja:

1. Ta'lim to'g'risidagi Qonun maqsadi va tamoyillari.
2. " Kadrlar tayyorlash milliy dasturini" asosiy maqsadi va bosqichlar.
3. Musiqiy ta'lim tizimida uzluksizligi va uzviyligi.
4. Kadrlar tayyorlash milliy moduli.

Mustaqil Respublikamizda yosh-avlodni tarbiyalash va ulami O'zbekistonning kelajagi uchun xizmat qiyadigan insonlar qilib shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Yosh avlodni kelajagi ko'p jixatdan o'qituvchiga uning salohiyati kasbiy

tayyorgarligiga, o'quvchilarni o'qtish va tarbiyalash ishiga bog'liq. Har tomonlama kamol topgan, hozirgi davr talabiga javob bera oladigan, o'zida ma'naviy boylikni, ahloqiy poklikni, vijdon, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik kabi tuyg'ulami mujassamlashtirgan faol shaxsni shakllantirishda musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. Musiqa madaniyat darslari o'quvchilarni ma'naviy va axloqiy madaniyatini shakllantiradi. Milliy g'urur vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirib, badiiy did va fikr doirasini kengaytirib, ularni barkamol inson bo'lib yetishishida takrorlanmas manbaa bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida keng qamrovli va juda muhim iqtisodiy hamda siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan: Boshqa sohalar singari xalq ta'limi yo'nalishida ham qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. 1997 yil 29 avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining II-chaqiriq IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Ta'lim to'g'risidagi Qonunni maqsadi, fuqarolarga ta'lim tarbiya berish, kasb hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilab berish, hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash. Chunki har qanday mamlakatning kuchi uning fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa, ta'lim tizmining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarining mavjudligi, sog'lom muhit darajasi, axloqiy qarashlari va e'tiqodiga bog'liq. "Mazkur "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun mazmunida Respublika ta'lim tizimi uning asosiy yo'nalishlari, maqsad vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topgan. 8 www.ziyouz.com kutubxonasi Shu bois barcha o'quv predmetlari qatori musiqa fanidan ham 1998 yil 10 may Vazirlar Maxkamasining 203-son qarori bilan Davlat Ta'lim Standartlari ishlab chiqildi va 1999 yil "Sharq" nashriyatida ishlab chiqarildi. Davlat Ta'lim Standartlari joriy etilishi milliy musiqiy merosdan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom va shashmakom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o'z aksini topgan. Yangi ta'lim mazmuni, o'quvchilarning bilim va malakalarini oshiradi, xotiralarini mustaxkamlaydi, obrazli tasavvur qilish, musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantiradi. Uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat olib borish, Davlat Ta'lim Standartlari dastur asosida, turli darajalaridagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim; (3 - 6 yoshgacha)
- umumiy o'rta ta'lim; (I - IX sinfgacha)
- o'rta maxsus, kasb -hunar ta'limi; (IX sinfdan keyin ixtiyoriy majburiy ta'lim)

- oliy ta'lim; (bakalavr, magistratura)
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; (aspirantura, doktorantura)
- kadrlar malakasini oshirish va ularni kaytatayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim. (musiqa maktablari o'quvchilar saroylari)

«Umumiy ta'lim dasturlari»: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (1 —4 sinflar), umumiy o'rta ta'lim (1 - 9 sinflar), o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limini o'z ichiga qamrab oladi, jami (9+3) 12 yillik ta'lim . Ta'limning asosiy tamoyillari quyidagilarga asoslanadi:

1. Ta'lim-tarbiyaning demokratik harakterga ega ekanligi.
2. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi.
3. Umumiy va o'rta maxsus ta'limning majburiyligi.
4. Litsey yoki, kasb-hunar kollejida o'qish tanlashning ixtiyoriyligi.
5. Ta'lim tizimining dunyoviy harakterga ega bo'lishi.
6. Davlat Ta'lim Standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi.
7. Ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv.
8. Ta'lim tizimida davlat va nodavlat boshqaruvni boiishi.
9. Ta'lim tizimida Xalq ta'lim vazirligi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.
10. Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish.

Davlat Ta'lim Standartlari mazmunida o'quvchilarni musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarga shart-sharoit yaratib berish, ularni badiiy ehtiyojini qondirish, musiqa ta'lim - tarbiyasini asosiy vazifasini tashkil etadi. O'quvchilarni musiqa san'atini o'rganishlarini, musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish Davlat Ta'lim Standartlari dasturining asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, umumiy ta'lim doirasida o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan minimal bilim va malakalar bayon etilgan. Davlat Ta'lim Standartlarining musiqa madaniyati fani dasturida darslarining taxminiy rejasi, yil, choraq mavzular, o'zbek xalq musiqasi namunalari, maqom va shashmaqom, mumtoz musiqa, sharq xalqlari va yevropaning mumtoz musiqalari, hamda o'zbek kompozitorlarning yangi zamonaviy asarlari kiritilgan. Shuning uchun ham, barcha kasblar ichida o'qituvchilik kasbi sharafli va mas'uliyatli hisoblanadi. Jamiyatimizni

ma'naviy yangilanishida demokratik huquqiy, davlat qurish kadrlar tayyorlash milliy dasturida asosiy masala bo'lib hisoblanadi. «Kadrlar tayyorlash 9 www.ziyouz.com kutubxonasi milliy dosturi»ni asosiy omillaridan biri, xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida kadrlarni tayyorlash va yangi tizimini shakllantirish. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni asosiy maqsadi. Bugungi mustaqillik sharoitida davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlikni his eta oladigan yetuk, komil insonni tarbiyalash, ta'lim sohasini tubdan islox qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'liq xalos etish, rivojlangan demokratik davlat darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi jahon standartlariga mos kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan barcha vazifalar uch bosqichda amalga oshirilishi ko'rsatib berilgan. 1 - bosqichda (1997 - 2001 yillar) pedagogik va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ularni malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish hamda ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi va ma'naviy - axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi, davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish asosida milliy dasturni ro'yobga chiqarish va yo'nalishlariga aniqliklar kiritish. 2-bosqichda (2001 -2005 yillar) majburiy umumiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limiga o'tish, sifat bosqichini shakllantirish. 3-bosqichida (2005 va undan keyingi yillar)- to'plangan tajribalarni umumlashtirish asosida, yanada rivojlantirish. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini jahon axborot tarmog'iga, kompyuter axborot tarmog'i orqali ulash. Masofada o'qitishni joriy etish. Musiqa san'ati, yangi avlodni tarbiyalashda o'ziga xos manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan, o'zbek musiqasi ta'lim - tarbiya pedagogikasi va uning mukammal uslublari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari. Kadrlar tayyorlash milliy modeli ta'lim -tarbiya jarayonini qamrab olish bilan birga, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Kadrlar tayyorlash milliy- modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, ishlab chiqarish kabi qismlarni o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash milliy tizimini mohiyatini aks ettiruvchi loyiha hisoblanadi. Milliy modelning o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy ta'lim hamda uch yillik o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa, o'z navbatida umumiy ta'lim dasturidan o'rta maxsus ta'lim dasturiga o'tishga zamin yaratadi. 1.Shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisidir. Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy ilmiy bilimlarini o'zlashtiradi, fan

asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, o'zida ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.' 2. Davlat va jamoat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir. Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning mazmuni, maqsadi?
2. Ta'limning turlari va tarmoqlarini aytib bering?
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini maqsadi?
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini asosiy bosqichlari mazmunini ochib bering.
5. Davlat ta'lim standartlari mazmunini ochib bering.
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini milliy modelining asosiy tarkibiy qismi nimalardan iborat?

Tayanch tushunchalar:

Oxangdoshlik - bir necha tovushlarning bir yo'lga solib kuylanishi. Cholg'uchi - musiqachi, sozanda cholg'u asboblarda ijro etuvchi. Printsip - tamoyil. Musiqa tarixi - Musiqa Sa'natining paydo bo'lishidan hozirgi zamonga qadar taraqqiyoti. Musiqa nazariyasi - musiqa tahlili, ijrochiligini o'rgatuvchi fan.

9- Mavzu: DTS, Malaka talabi, o'quv reja, fan dasturi, ishchi o'quv reja, ishchi fan dasturi

Reja:

1. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti.
2. Oliy ta'limning Malaka talabi
3. Oliy ta'limning o'quv reja, fan dasturi
4. Oliy ta'limning ishchi o'quv reja, ishchi fan dasturi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRINING
BUYRUG'I

“OLIIY TA’LIMNING DAVLAT TA’LIM STANDARTI. ASOSIY QOIDALAR” O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT STANDARTINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga
olindi, hisob raqami 43]**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir A. TOSHKULOV

Toshkent sh., 2021-yil 19-oktabr, 35-2021-son

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi 35-2021-son buyrug‘iga ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT STANDARTI

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar O‘z DSt 3556:2021

Kirish

Mazkur davlat standarti O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek YUNESKO (UNESCO) tomonidan joriy qilingan “Ta’limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” (TXSK 2011) va “TXSK: Ta’lim va kasbiy tayyorlash sohalari”ga (TXSK-S 2013) muvofiq ishlab chiqilgan.

1. Umumiy qoidalar

1. “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” (bundan buyon matnda Davlat ta’lim standartlari deb yuritiladi):

kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’limning mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablarni;

ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy malakaviy talablarni;

o‘quv yuklamasining hajmini;

ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda mexanizmini belgilaydi.

2. Davlat ta’lim standartlari o‘quv jarayonini, ta’lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli hujjatlarni (bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari va boshqalar) ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

3. Davlat ta’lim standartlari oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo‘ysunuv va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining davlat ta’lim standartlari asosida kadrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

2. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar

O'z DSt 1.0:1998 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar;

O'z DSt 1.8:2009 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Tavsiyanomalar. Asosiy qoidalar;

O'z DSt 1.9:1995 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Tarmoq standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

3. Atamalar va ta'riflar

Mazkur davlat standartida quyidagi atamalar qo'llaniladi:

oliy ta'lim — uzluksiz ta'limning oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi ikki bosqichdan iborat (bakalavriat va magistratura) mustaqil turi;

bakalavriat — oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir;

magistratura — tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir;

oliy ma'lumot darajasi — shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan o'quv rejalari va o'quv dasturlarini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda o'zlashtirishi natijasi;

oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom) — akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning o'quv rejalari va o'quv dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi;

oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati;

malaka talablari — oliy ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar;

o'qitishning me'yoriy muddati — ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat;

o'quv fanlari bloki — o'quv rejalarda belgilangan fanlar majmualari, qoida tariqasida "majburiy fanlar" bloki va "tanlov fanlari" blokiga ajratiladi;

o'quv reja — oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun belgilaydigan hujjat;

o'quv yuklama — o'quv dasturlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan akademik soatlar hajmi;

o'quv fani — ta'lim jarayonida muayyan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalaridan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi;

o'quv yili — oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2021/2022 o'quv yili;

o'quv semestri — oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi. Ayrim hollarda o'quv semestri o'quv yilining uchdan bir qismini tashkil etishi mumkin;

o'quv dasturi — ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat;

malaka amaliyoti — o'quv jarayonining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikma hosil qilish, o'quv rejalari va o'quv dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi;

yakuniy davlat attestatsiyasi — bakalavr yoki magistr akademik darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartib asosida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarining o'zlashtirish darajasi hamda sifatini baholash jarayoni;

o'qitish sifatini nazorat qilish — ta'lim oluvchining bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash;

ta'lim sifatini nazorat qilish — o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish;

oliy ta'lim muassasasi attestatsiyasi — davlat ta'lim standartlariga muvofiq oliy ta'lim muassasasi faoliyatini baholash va kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli;

oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi — oliy ta'lim muassasasi faoliyati darajasini davlat ta'lim standartlarining mezon va talablariga javob berishi hamda bitiruvchilar oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni berish huquqining davlat tomonidan e'tirof etilishi;

tajriba orttirish (ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda tajriba orttirish) — magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrnlarni eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, mudofaa, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot olib borishi.

4. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalari va o'quv dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

4.1. Bakalavriat

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bilan uzviylik va uzluksizligi ta'minlangan holda, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalar tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki va tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki kiradi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'quv rejalaridagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ta'lim jarayoni o'quv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi.

O'quv rejalar va o'quv dasturlar kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqiladi. Ayrim (zarur) hollarda o'quv rejalar va o'quv dasturlar reyting (baholash) tizimi asosida ishlab chiqilishi mumkin.

4.1.1. O'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar:

majburiy fanlar bloki fanlarni chuqur o'zlashtirilishini taqozo etadi va ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini boyitish, ta'lim yo'nalishi va sohaga oid zarur fundamental bilimlar, kasbiy ko'nikma, uquv va kompetensiyalarni shakllantirishi, bitiruvchiga tanlangan yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish hamda muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

4.1.2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari malaka amaliyotlariga qo'yiladigan umumiy talablar.

Ta'lim oluvchilar kasbiy ko'nikmalarni mukammal egallashi uchun o'quv rejalar va muayyan fanlarning o'quv dasturlarida o'quv (tanishuv), ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) va bitiruv oldi malaka amaliyotlari nazarda tutilishi shart.

Amaliyotlar bakalavriat ta'lim jarayonining majburiy qismi bo'lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari o'tkaziladi:

o'quv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot — kasb ta'limi yo'nalishlari uchun qo'llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg'or korxonasi, tashkilot va muassasalari, xorijiy va qo'shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda o'tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o'tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

4.2. Magistratura

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni nazarda tutgan holda shakllantiriladi.

Oliy ta'lim magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari bilan uzviylik va uzluksizligini ta'minlagan holda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalari tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki, tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki va ilmiy faoliyat bloki kiradi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'quv rejalariidagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv jarayoni o'quv rejalari muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi (magistrlik dissertatsiyasining himoyasi) bilan tugallanadi.

4.2.1. O'quv rejaning o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan minimal talablar:

majburiy fanlar bloki ilmiy tadqiqot metodologiyasi, ilmiy izlanish va tahlil, empirik va nazariy tadqiqot usullari, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, ta'limning zamonaviy usullari, mutaxassislikka doir dolzarb va chuqur ilmiy, metodologik, ilmiy-texnik, texnologik bilim, uquv, ko'nikma va kompetensiyalarni ta'lim oluvchilarda shakllantirishi hamda muayyan doktorantura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki mutaxassislik bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda ilmiy, pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq magistr darajasidagi kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

ilmiy faoliyat bloki ilmiy-tadqiqotlar nazariyasi va amaliyoti o'zlashtirilishini, ta'lim oluvchilar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Bunda:

ilmiy-tadqiqot amaliyoti ta'lim oluvchilar mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi, ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, zamonaviy axborot bazalarini qo'llash, ilmiy maqolalar va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga doir bilim, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi lozim;

ilmiy-pedagogik amaliyoti zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi, o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etishga doir kompetensiya va ko'nikmalarni hosil qilishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot amaliyoti taqozo etganda yakka tartibda ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tajriba orttirish jarayoni tashkil etiladi. Bunda tajriba orttirish jarayoniga yo'llangan ta'lim oluvchi o'quv jarayoni jadvalini yakka tartibdagi ish rejasi asosida bajarishi ko'zda tutiladi.

tajriba orttirish ta'lim oluvchilarning ilmiy-tadqiqot olib borishi, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, muayyan soha va tarmoqdagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishishi, amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllanishi, kasbga samarali moslashuvini ta'minlashi lozim.

4.2.2. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalar ta'lim davrining to'liq me'yoriy muddati uchun (birinchi kursdan yakuniy kursgacha) ishlab chiqiladi va bu davrda ularga o'zgartirish kiritish, ularni bekor qilish, o'rniga boshqa o'quv reja ishlab chiqib tatbiq etishga yo'l qo'yilmaydi.

5. Bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarining asosiy qoidalari

5.1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan talablar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarida bayon etiladi.

“Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” (TXSK 2011)ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida bakalavriat 6-malaka darajasiga, magistratura 7-malaka darajasiga mansubdir.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil samarali mehnat faoliyatini yuritishini ta'minlashi hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish imkonini berishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari mutaxassislik bo'yicha magistr akademik darajali shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil

ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati bilan samarali shug'ullanishini ta'minlashi, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limda (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchi) tahsil olish imkonini berishi lozim.

5.2. Bakalavr va magistrnlarni tayyorlash oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturi asosida kunduzgi, kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi) va zarur hollarda masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi. Ayrim (zarur) hollarda ta'lim jarayoni reyting (baholash) tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin.

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalvriyat ta'lim oluvchilariga "bakalavr" akademik darajasi, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga "magistr" akademik darajasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalvriyat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlar ("Double degree") asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.3. Bakalvriyat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining ta'limni davom ettirish imkoniyatlari:

bakalvriyat ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchilari magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qishni davom ettirish huquqiga ega. Muayyan bakalvriyat yo'nalishlari uchun o'qishni davom ettirish bo'yicha magistratura mutaxassisliklarining ro'yxatini oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilaydi;

magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilari tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

6. O'quv yuklamasining hajmi

6.1. Bakalvriyat

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining hajmi bir o'quv yili uchun 60 kredit, bir semestr uchun 30 kredit qilib belgilanadi. 1 kredit 30 akademik soat o'quv yuklamasiga tengdir.

Reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari uchun barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining hajmi haftasiga:

kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 32 akademik soat oraligida;

reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 36 akademik soat oraligida belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki) o'qish shakli uchun bir haftada odatda besh kun, auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 20 soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (sirtqi, maxsus sirtqi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining hajmi ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shaklining kamida 30% etib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun o'qishning me'yoriy muddati quyidagicha taqsimlanadi:

O'qish muddati*	Haftalar soni	Kreditlar miqdori	Akademik soatlar miqdori
3 yil	152	180	5 400
4 yil	204	240	7 200
5 yil	256	300	9 000
6 yil	308	360	10 800

* Kunduzgi o'qish shakli tayanch sifatida olinadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki, sirtqi, maxsus sirtqi) o'qish shakli uchun kreditlar miqdori kunduzgi o'qish shakli kreditlariga mos qilib olinadi.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

O'quv davrlari	Sog'liqni saqlash ta'lim sohasidan tashqari barcha ta'lim sohalari uchun, % hisobida*	Sog'liqni saqlash ta'lim sohasi uchun, % hisobida
Nazariy va amaliy ta'lim	40 — 65	50 — 70
Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limning nisbati	40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha	
Attestatsiya	6 — 15	8 — 15
Ta'til**	8 — 21	10 — 18
Malaka amaliyoti	6 — 25	6 — 20
Bitiruv malakaviy ishi***	2 — 7	2 — 5

* Ayrim yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ta'lim jarayoni zaruratiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda ular uchun mazkur foizlarga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yiladi.

** Qishki ta'til ikki haftadan oshmasligi maqsadga muvofiq.

*** Bitiruv malakaviy ishi tarkibiga uni himoya qilish bo'yicha Davlat attestatsiyalari ham kiradi.

Barcha ta'lim sohalari uchun nazariy va amaliy ta'lim hajmining kamida 85 % umumkasbiy va ixtisoslik (maxsus) fanlaridan tashkil topgan majburiy va tanlov fanlari bloklaridan iborat bo'lishi lozim.

O'quv rejalaridagi majburiy va tanlov fanlari bloklarining hajmini ta'lim yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quv rejani ishlab chiqaruvchi oliy ta'lim muassasasi belgilaydi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ta'lim oluvchilarining malaka amaliyotini o'tash tartibi va bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruv organi tomonidan belgilanadi.

Kredit tizimi xalqaro tamoyillariga asoslanib fanlar katalogini tizimlashtirish va maqbullashtirish maqsadida o'quv rejalarda kreditlar kurs va semestrlar bo'yicha taqsimotini quyidagicha belgilash tavsiya etiladi:

O'quv faniga ajratilgan soat*	Fanning bir va ikki semestr davomida o'tilishiga qarab ajratiladigan kreditlar	
	1-semestr	2-semestr
120	4	-
180	6	-
240	4	4
300	4	6
360	6	6

* Ushbu taqsimot magistraturaga ham taalluqli.

6.2. Magistratura.

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining hajmi bir o'quv yili uchun 60 kredit, bir semestr uchun 30 kredit qilib belgilanadi. 1 kredit 30 akademik soat o'quv yuklamasiga tengdir.

Reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari uchun barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlari va ilmiy faoliyatning eng yuqori hajmi haftasiga 36 akademik soat qilib belgilanishi lozim.

Uqishning me'yoriy muddati quyidagicha taqsimlanadi:

O'qishning me'yoriy muddati*	Haftalar soni	Kreditlar miqdori	Akademik soatlar miqdori
1 yil	50	60	1800
2 yil	100	120	3600
3 yil	152	180	5400

* Kunduzgi o'qish shakli tayanch sifatida olinadi.

O'qish davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

O'qish davrining tarkibiy qismlari	Sog'liqni saqlash ta'lim sohasidan tashqari barcha ta'lim sohalari uchun, %	Sog'liqni saqlash ta'lim sohasi uchun, % hisobida	
		Davolash faoliyati bilan tutashgan mutaxassisliklar	Davolash faoliyati bilan tutash bo'lmagan

	hisobida*		mutaxassisliklar
Nazariy va amaliy ta'lim	30 — 55	45 — 55	30 — 55
Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limning nisbati	30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha		
Attestatsiya	4 — 18	4 — 10	4 — 10
Ta'tillar**	6 — 21	10 — 20	10 — 20
Ilmiy faoliyat	30 — 55	30 — 40	30 — 55

* *Ayrim yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ta'lim jarayoni zaruratiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda ular uchun mazkur foizlarga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yiladi.*

** *Qishki ta'til ikki haftadan oshmasligi maqsadga muvofiq.*

Ilmiy faoliyat magistratura ta'lim oluvchilarining yakka tartibdagi taqvimiy ish rejasi asosida amalga oshiriladi va quyidagilarga bo'linadi:

ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash — 60 — 75 %;

ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti — 25 — 40 %.

Barcha ta'lim sohalari uchun nazariy va amaliy ta'lim hajmining kamida 95 % umummetodologik va mutaxassislik fanlaridan tashkil topgan majburiy va tanlov fanlari bloklaridan iborat bo'lishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti (tajriba orttirish)ni o'tash tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

7. Kadrlar tayyorlash sifati va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholash

7.1. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari professor-o'qituvchilari tarkibiga qo'yiladigan umumiy talablar.

Bakalavriat o'quv rejasi va o'quv dasturini amalga oshirishda o'qitilayotgan fan bo'yicha tayanch ma'lumotga, bilimga, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan malakali o'qituvchilar (magistr yoki diplomli mutaxassislar), fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc), professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

Magistratura o'quv rejasi va o'quv dasturini amalga oshirishda o'qitilayotgan fan bo'yicha fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc) va professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga (darajalarga) ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

7.2. Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilardan iborat:

ichki nazorat oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan tegishli ravishda belgilangan reyting (baholash) tizimi hamda kredit-modul tizimi mezonlarga muvofiq o'rnatilgan tartibda o'tkaziladi;

bitiruvchilarning yakuniy nazorati oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'quv rejalariga muvofiq bakalavriatda o'quv fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi va (yoki) bitiruv malakaviy ishi himoyasi, shuningdek magistraturada magistrlik dissertatsiyasining himoyasi shaklida amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruv organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

tashqi nazorat belgilangan tartibda oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

7.3. Oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini baholash O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini baholash O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

8. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi

8.1. Malaka talablarining asosiy maqsadi va vazifasi milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, oliy ta'lim bakalavriat va magistratura bitiruvchilarining bilim, uquq, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni belgilash hisoblanadi.

8.2. Malaka talablari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo'yicha mazkur davlat standarti, "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqiladi.

Malaka talablari quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

zarvaraqda (titul varag'i) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining nomi, o'rta qismida ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislik nomi ko'rsatiladi;

zarvaraq sirtida malaka talablari kim tomonidan ishlab chiqilgani va kiritilganligi, tasdiqlangani va joriy etilgani hamda hujjat maqomi ko'rsatiladi.

Mundarijada malaka talablarining asosiy boblari ko'rsatiladi.

Ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligining umumiy tavsifi bobida malaka talabining qo'llanish sohasi, asosiy foydalanuvchilari, kasbiy faoliyatlarining tavsifi, bakalavr yoki magistr kasbiy faoliyatining sohalari, obyektlari, turlari hamda kasbiy vazifalari keltiriladi;

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrning yoki mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar bobida bakalavriat yoki magistratura bitiruvchisi ega bo'lishi zarur bo'lgan umumiy kompetensiyalar hamda kasbiy kompetensiyalar aniq ko'rsatiladi.

Bibliografik ma'lumotlar belgilangan tartibda keltiriladi.

Kelishuv varag'ida malaka talabini ishlab chiqqan tayanch oliy ta'lim muassasasi rektori imzosi hamda uni kelishuv jarayonidan o'tkazgan oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar rahbarlarining imzolari qo'yiladi.

Malaka talablari:

A-4 formatli standart varaqlarining "kitob ko'rinishida ikki tarafga "Times New Roman" shriftining maqbul o'lehamida bostirib chiqariladi;

malaka talablari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar bilan birgalikda tayyorlanadi hamda Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasidan o'tkaziladi, shuningdek ushbu kengash ijobiy xulosasi olingach O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

tasdiqlangan malaka talablari belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida etalon sifatida, ikkinchi nusxasi tegishli tayanch oliy ta'lim muassasasida saqlanadi hamda undan nusxalar ko'chirilib talabnomalar asosida boshqa oliy ta'lim muassasalariga tarqatiladi.

9. O'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi

9.1. O'quv rejalarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi.

9.1.1. O'quv rejalarining asosiy maqsadi va vazifasi:

o'quv rejasining asosiy maqsadi — davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq yetuk va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun muayyan bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga oid o'quv fanlar, ularning hajmi, mashg'ulotlar turlari, o'quv jarayonining mazmuni, tarkibi, muddatlari va o'qitishning mantiqiy ketma-ketligini belgilash hamda tartibga solish;

o'quv rejasining asosiy vazifasi — muayyan bakalavriyat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim jarayoni davomida o'quv fanlarini semestrlar va o'quv yillar tarkibida ta'lim oluvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishini ta'minlovchi mantiqiy ketma-ketlikda maqbul holatga keltirish, o'quv faoliyati davri, turlari, soatlar hajmi, kreditlar hamda yakuniy nazorat muddatlarini belgilash.

9.1.2. O'quv rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o'quv rejalar bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo'yicha mazkur davlat standarti, "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablariga muvofiq ishlab chiqiladi;

o'quv rejalar ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarga oid majburiy va tanlov fanlari belgilangan holda, ularning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, auditoriya (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya va boshqa mashg'ulotlar) va mustaqil mashg'ulotlar, o'quv va

ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari, kurs loyihasi, kurs ishi, ijodiy va boshqa o'quv vazifalari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda, fanlarga ajratilgan kreditlarga amal qilgan tartibda shakllantiriladi;

o'quv rejalarga davomiyligi kamida 15 o'quv haftasiga teng semestrlar, har bir semestrdan so'ng 2 — 4 haftalik attestatsiya sessiyalari, tegishli davomiylikdagi malaka amaliyotlari, ta'tillar va boshqa akademik jarayonlar kiritiladi;

o'quv rejalar:

reyting (baholash) tizimi uchun jadval shaklida A-4 formatli standart varaqlarining "kitob ko'rinishida ikki tarafga "Times New Romani" shriftining maqbul o'lchamida bostirib chiqariladi;

kredit-modul tizimi uchun jadval shaklida A-4 formatli standart varaqlarining "albom ko'rinishida bir tarafga "Times New Roman" shriftining maqbul o'lchamida bostirib chiqariladi va birlashtirib tikiladi;

zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan tartibda o'quv rejalar boshqa shaklda ishlab chiqilishiga yo'l qo'yiladi;

o'quv rejalar oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanadi;

tasdiqlangan o'quv rejalar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta'lim muassasasida saqlanadi;

zarur hollarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan uquv rejalarga qushimcha ravishda fakultativ, maxsus kurs va boshqa turdagi mashg'ulotlar kiritilishi mumkin;

ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejalar ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) ta'lim shaklining tayanch o'quv rejalari hisoblanadi. Bular asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi), masofaviy) ta'lim shakllari uchun belgilangan tartibda ishchi o'quv rejalar ishlab chiqiladi va tegishli oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ixtiyoriy tarzda ishchi o'quv rejalar quyidagi hollarda ham ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi mumkin:

muayyan ta'lim yo'nalishlar tegishli turlari bo'yicha ajratilishi nazarda tutilganida (masalan, sport turlari);

o'quv rejalarda tanlov fanlarini dolzarbligiga qarab belgilash ehtiyoji mavjudligida.

Ishchi o'quv rejalar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

9.2. O'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi.

9.2.1. O'quv dasturlarining asosiy maqsadi va vazifasi:

O'quv dasturining asosiy maqsadi — davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning bilimi, uquvi, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yilgan talablarga

muvofig o'quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan raqobatbardosh mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy qismlarini tartibga solishdir;

O'quv dasturining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

o'quv faniga oid ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda o'quv mashg'ulotlar mavzularini shakllantirish, ta'lim shakli va o'quv fanga ajratilgan vaqtga muvofig o'quv materiallarni mavzular va o'quv mashg'ulotlar turlari bo'yicha taqsimlash, maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, ularning mantiqiy ketma-ketligini hamda boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta'minlash;

uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari boshqa ta'lim turlaridagi hamda turdosh yo'nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta'minlash;

fanni o'zlashtirish, ta'lim oluvchilarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur o'quv-uslubiy shartlar, o'quv adabiyotlar, didaktik materiallarni hamda baholash vositalari va usullari yordamida ta'lim oluvchilar bilimni nazorat qilish shakllarini belgilash.

9.2.2. O'quv dasturda o'quv materiallar ma'ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda belgilanadi, shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifasiga muvofig kurs loyihasi, kurs ishi, mustaqil ish, chizma-hisob, ijodiy, laboratoriya va boshqa ishlar ajratilgan vaqt me'yorlariga muvofig o'quv dasturga kiritiladi.

9.2.3. O'quv dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim:

muqovada oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi nomi, oliy ta'lim muassasasi nomi, "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"ga muvofig tegishli bilim, ta'lim sohalari va ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)larining kodi va nomlari, harakatdagi o'quv rejasiga muvofig fanning to'liq nomi, tasdiqlangan sanalari va belgilari ko'rsatiladi;

o'quv dasturining birinchi betida uning asosiy parametrlari (fan kodi, qaysi o'quv yilidan joriy etilganligi, semestr, fanga ajratilgan kreditlar (soatlar), fan turi (majburiy, tanlov), ta'lim tili, haftadagi dars soatlari, fanning nomi, auditoriya va mustaqil mashg'ulotlar hajmi, jami yuklama jadval shaklida belgilanadi;

"Fanning mazmuni" o'quv fanining maqsadi va uning asosiy vazifalari tegishli yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlash vazifalariga bog'langan holda bayon etiladi;

"Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)" o'quv fanining mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi, har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va qisqa ifodalar orqali ta'lim oluvchilarga davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar qamrab olingan holda ifodalab beriladi. Asosiy nazariy qism modullar shaklida berilishi mumkin;

"Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar" o'quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga mos ravishda amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari, ushbu mashg'ulotlarni o'tkazish shakllari, unda qo'llanishi tavsiya etiladigan texnologiyalar, usullar, vositalar zarur hollarda muhokama etiladigan mavzular, masalalar, laboratoriya ishlarining mazmuni, maqsadi hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa

ma'lumotlar yoritiladi. Shuningdek, kurs loyihasi va kurs ishlari, ijodiy ishlar mohiyati, mazmuni, maqsadi, mavzulari ularni bajarish shakllari hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shu bilan birga ushbu qismda o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining maqsadi, vazifasi, shakli, mazmuni, amaliyot jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko'rsatmalar beriladi;

“Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar” qismida mustaqil ta'limning shakli va mazmuni, mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar, mustaqil mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan ishlar referat, esse, mustaqil (ijodiy) ish, muammoli ma'ruza va boshqalar keltiriladi;

“Fanni o'qitish natijalari va shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar” qismida ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)ga muvofiq muayyan fan bo'yicha ta'lim oluvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bayon qilinadi;

“Talabalar kreditlarni olish tartibi” kredit-modul tizimida fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish (baholash) va kreditlarni olishga oid talablar o'rnatilgan tartibda belgilanadi;

Reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari uchun — “Talabalar reytingini belgilash tartibi” reyting tizimida fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish (baholash) tartibi belgilanadi;

“Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari” o'quv faniga oid asosiy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar, Internet jahon axborot tarmog'i resurslari, dissertatsiya, monografiya hamda boshqa tavsiya etilgan o'quv, ilmiy va uslubiy ma'lumotlar manbalari keltiriladi;

o'quv dasturning oxirgi betida uni ishlab chiqqan oliy ta'lim muassasasi nomi, tuzuvchilar ismi, familiyasi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, taqrizchilar ismi, familiyasi, ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, o'quv dastur ko'rib chiqilgan oliy ta'lim muassasasi kengashi bayonining raqami keltiriladi.

9.2.4. O'quv dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o'quv dasturlar o'quv rejalarda belgilangan har bir o'quv fani bo'yicha mazkur davlat standarti, “Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari hamda o'quv rejalarga muvofiq davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

o'quv rejalarga kiritilishi tavsiya etilgan “Falsafa” (tarkibiga “Dinshunoslik” hamda “Korrupsiyaga qarshi kurash” mavzular majmuasi (modullari) kiritilgan holda) va “O'zbekistonning eng yangi tarixi” fanlarining o'quv dasturlari gumanitar fanlar bo'yicha tegishli tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi hamda boshqa oliy ta'lim muassasalari undan foydalanishi lozim;

o'quv dasturlar ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar maqsadi, vazifasi, mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, fan mavzulari va mazmunini belgilangan tartibda mantiqiy ketma-ketlikda, o'quv faniga ajratilgan vaqt me'yoriga amal qilgan holda shakllantiriladi. O'quv dasturlar mazkur davlat standartida belgilangan talablarga javob bergan holda Sillabus shaklida ham ishlab chiqilishi mumkin;

o'quv dasturning matni A-4 formatli standart varaqlarda, "Times New Roman" shriftining 14-o'lchamida, 1,15 intervalda, chap va o'ng tomonidan — 20, pastidan — 25, yuqoridan — 20 mm o'lchamida hoshiyalangan, betlarini raqamlanishi varaqning pastki qismining markazida joylashtirilgan holatda bostirib chiqariladi;

o'quv dasturlari tasdiqlanganidan so'ng A-5 formatida broppora shaklida chiqariladi;

oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlangan o'quv dasturlari oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va o'quv rejalarga muvofiqligi hamda sifati nuqtai nazaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi tomonidan tanlab monitoring va tahlil qilinadi. Monitoring va tahlil natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga olib chiqiladi va ularga baho beriladi;

tasdiqlangan o'quv dasturlar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta'lim muassasasida saqlanadi;

ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv dasturlar (sillabuslar) ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) ta'lim shaklining tayanch o'quv dasturlari hisoblanadi. Bular asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi), masofaviy) ta'lim shakllari uchun belgilangan tartibda ishchi o'quv dasturlar ishlab chiqiladi va tegishli oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti haqida gapiring
2. Oliy ta'limning Malaka talabi nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Oliy ta'limning o'quv reja, fan dasturi tuzilishi haqida gapiring
4. Oliy ta'limning ishchi o'quv reja, ishchi fan dasturiga qo'yilgan talablar qanday.

10 Mavzu: Texnologik taraqqiyotning rivojlanish tendensiyasi va ilmiy - tadqiqotlarni tashkil etish 2 soat

Reja

1. Fan haqida tushuncha va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan oʻrni
2. Qadim Turkiston eli oʻzining buyuk siymolari va koʻp qirrali ijodi bilan fanning rivojlanishiga salmoqli hissa qoʻshgan
3. Fundamental tadqiqotlar dasturlari roʻyxati
4. Bilish – ilmiy izlanishlar
5. Fundamental va amaliy tadqiqotlar

Oliy taʼlim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish boʻyicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

oliy taʼlim muassasalarida taʼlim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uzviy bogʻliqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar koʻlamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablagʻlar hisobiga oliy taʼlim muassasalari tarkibida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarni tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qilish va prognozlashtirish boʻyicha faoliyat olib borishlarini taʼminlash;

professor-oʻqituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriyat talabalarini tashkil etiladigan texnoparklarda ilmiy va innovatsion faoliyat olib borishlariga erishish;

budjetdan tashqari mablagʻlar hisobiga startap loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori boʻlgan yangi mahsulotlar va texnika-texnologiyalarni yaratish orqali oliy taʼlim muassasalari huzurida ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish bilan shugʻullanuvchi “spin-off” va “spin-out” korxonalarini tashkil etish, akademik tadbirkorlikni rivojlantirish;

xalqaro SsiVal axborot-tahlil tizimi yordamida jahondagi ilmiy-tadqiqot natijalarini tahlil qilib borish asosida ilm-fanning ilgʻor yutuqlari bilan uygʻun rivojlanishini taʼminlash;

nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish faoliyatini qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;

oliy taʼlim muassasalari ilmiy jurnallarining Scopus, ScienceDirect va boshqa xalqaro ilmiy-texnik maʼlumotlar bazalariga bosqichma-bosqich kiritilishini taʼminlash;

fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag'batlantirish;

xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga kiruvchi nufuzli ilmiy nashrlarda maqolalar e'lon qilish orqali faoliyatining ilmiy natijalari xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko'rsatkich "Xirsh" indeksi (h-indeks) yuqori bo'lgan olimlar, professor-o'qituvchilar hamda yosh ilmiy izlanuvchilarni budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirib borish tizimini joriy etish;

oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar sifatini ko'tarish, ularni statistik, texnik va boshqa ma'lumotlar bilan ta'minlash mexanizmlarini yaratish, bu borada tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy daraja va unvonlarga ega xodimlar yoshi nuqtai nazaridan optimal nisbatiga erishish;

ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini ta'lim jarayoni va ilmiy rahbarlikka jalb qilish, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarni mazkur ilmiy-tadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta'minlash;

jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta'lim muassasasida (fakultet, kafedra va laboratoriyalar kesimida) ilmiy tadqiqotlarni tor va fanlar tutashligidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish, qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni belgilash, ushbu yo'nalishlarda yuqori malakali professor-o'qituvchilar va talabalar salmog'ini oshirish;

Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi O'zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi O'quv-amaliy to'qimachilik texnoparki hamda Urganch davlat universiteti huzuridagi "Xorazm" innovatsion texnoparkining faoliyati samaradorligini oshirish;

xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish orqali innovatsion faoliyat infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida "Hujayra va molekulyar biotexnologiya", "Tibbiy genetika", "Ekofiziologiya", "Materialshunoslik", "Energiya tejovchi texnologiyalar, nazorat-o'lchov va avtomatlashtirilgan tizimlar", "Qurilish materiallari" hamda "Oziq-ovqat mahsulotlari va texnologiyasi" yo'nalishlari bo'yicha 7 ta oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish;

O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyoy instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazida zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilishini ta'minlash va rivojlantirib borish;

ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tegishli institutlari hamda nufuzli xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yetakchi mahalliy oliy ta'lim muassasalarining faol hamkorligini yo'lga qo'yish, bunda mentorlik modelidan keng foydalanish;

professor-o'qituvchilar tomonidan yuritilishi lozim bo'lgan turli jurnal va o'quv-uslubiy hujjatlar sonini qat'iy qisqartirish orqali ularning ilmiy faoliyatini jadallashtirish;

ilmiy-tadqiqot ishlarini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi, shu jumladan hududiy miqyosdagi mavjud muammolarning innovatsion yechimiga qaratish, fanlar tutashligidagi muammolarni keng tadqiq etish;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, akademik litseylarga jalb qilish, oliy ta'lim muassasalariga saralab olish, chuqurlashtirilgan ta'lim dasturlari asosida o'qitish, ularning fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish, ilmiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish, "ustoz-shogird" tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislarga biriktirish, bu boradagi ma'lumotlar elektron bazasini yaratish;

oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar akademiyasi hamda Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi bilan hamkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirib borish;

oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini oshirish, maqsadli doktorantura orqali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ilmiy daraja dasturlarini ishlab chiqish;

Qadim Turkiston eli o'zining buyuk siymolari va ko'p qirrali ijodi bilan fanning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi. Dunyoda ilk bor uchta akademianing Turkistonda – Markaziy Osiyo tuprog'ida tashkil etilishi buning yorqin isbotidir. Xorazmda Ma'mun akademiasining faoliyat ko'rsatgani, Kamoliddin Behzod rahnomolik qilgan tasviriy san'at akademiyasi, koinot sirlarini ilk bor yuqori aniqlikda tasvirlay olgan Mirzo Ulug'bek observatoriyasi va boshqa ilm-fan sirlarini ochib bergan ko'plab buyuk siymolarni sanab o'tish mumkin. Bizga Nyuton nomi bilan atalib o'rgatilgan matematikadagi sonlar nomi aslida bobomiz Al Xorazmiy qalamiga mansub ekan. Beruniy bobomiz texnika sohasida o'z davrining yirik olimi hisoblangan. Al Farg'oniy kashf etgan, gidravlika qonunlariga asoslangan, suvni yuqoriga ko'tarib berish va uning sathini o'lchash pribori bugungi kunda ham Nil daryosida suv sathini kuzatib borishda yuqori aniqlikdagi o'lchov asboblardan biri bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Mirzo Ulug'bekning shogirdlari bilan birgalikda yaratgan koinotni o'rganish qurilmasi va uning yordamida hisoblangan quyosh sistemasidagi sayyoralar harakati jadvali bugungi kunda ham yuqori aniqlikdagi astronomik ma'lumot hisoblanadi. XIX–XX asrlarda fanni texnika sohasida ko'plab O'zbekiston olimlari ilmiy izlanishlar olib borgan va uning rivojlanishiga ulkan hissalarini qo'shgan. Geologiya sohasida jahondagi ko'plab mamlakatlar akademiyalari faxriy akademigi Xabib Abdullayev yerning oltin belbog'ini, ya'ni yer sharining oltin zaxiralari haritasini tuzgan olimdir. Hamid Raxmatulin – uzoq yillar M.V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universitetida faoliyat yuritgan. Parashut nazariyasini yaratgan olimdir. G'ofur Rahimov – energetika sohasida nochiziqli elektr zanjirlarni hisoblash metodikasini yaratgan energetik olimdir. Hosil Fozilov – akademik, elektr energiyasini uzatish tarmoqlarini hisoblash metodikasini yaratgan energetik olimdir. Muzaffar Xomudxonov – akademik, asinxron motorlarni boshqarishni chastotaviy rostlash usulini yaratgan energetik olimdir. Mamlakatimizda fan va uning rivojlanishi davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini muhim. Shu tufayli davlat tomonidan uning qo'llab quvvatlanishiga katta e'tibor berib kelinmoqda. Fan tizimi xarakteristikasida qayd etilgan uchta tarkibiy qismdan biri, ilmiy muassasalarda va jamoalarda olib borilayotgan tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, 2006-yil 7-avgustdagi PF-436 sonli «Fan va texnologiyalarni boshqarish va muvofiqlashtirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmoniga asosan tashkil etilgan Respublika Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi (1.1-rasm). Ushbu

qo‘mita vazifalariga quyidagilar kiradi: – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va boshqa vazirlik hamda idoralar bilan birgalikda jahon ilmi yutuqlarini, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, jamoatchilik-siyosiy rivojlanishi vazifalarini hisobga olgan holda, fan va texnologiyalarni rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish; – fan va texnologiyalarni rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, vazirliklar va idoralar ilmiy-tadqiqot institutlari, korxonalar, loyiha konstruktorlik tashkilotlar, oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta‘minlash; – ilmiy-texnik dasturlar va loyihalarni amalga oshirilishi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini iqtisodiyotning turli sohaslarida, ishlab chiqarishda, ta‘limda foydalanishni samarali monitoringini tashkil qilish; – o‘zaro manfaatli xalqaro ilmiy texnik hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatda ilmiy sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish, respublika ilmiy tashkilotlari, olimlari va mutaxassislarini xalqaro dasturlar va ilmiy loyihalar tanlovlarda faol qatnashishlariga imkon yaratish.

Fundamental tadqiqotlar dasturlari ro‘yxati: 1F. Matematika, mexanika va informatika. 2F. Fizika va astronomiya. 3F. Ximiya, biologiya va meditsina. 4F. Qishloq xo‘jaligi. 5F. Mashinasozlik va energetika. 6F. Yer to‘g‘risidagi fanlar. 7F. Bozor iqtisodiyoti, davlat va huquq nazariyasi. 8F. Ijtimoiy-gumanitar fanlar. Bozor iqtisodiyoti qonun qoidalari talablariga asosan, bugungi kunda ilmiy tadqiqot ishlari yuridik sub‘yektlar va jismoniy shaxslar, davlat va nodavlat tashkilotlar (muassasalar) ilmiy ijodiy guruhlar, loyihalash va konstruktorlik korxonalarida olib borilmoqda. Bugungi kundagi jahon sivilizatsiyasi, texnika va texnologiyalar sohasidagi erishilgan ulkan yangiliklar ilm-fan taraqqiyoti mahsulidir. Mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishida ilmiy-texnik taraqqiyot muhim ahamiyatga ega. Fan va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va o‘shishi natijasida yuzaga kelgan ilmiy-texnik O‘zbekistonda fan va texnologiyalarni rivojlanishini muvofiqlashtirishning namunaviy tizimi. Fan va texnologiyalarni muvofiqlashtirish va boshqarish obyektlari Fundamental tadqiqotlar Amaliy tadqiqotlar Noyob obyektlar Ilmiy-texnik dasturlar va loyihalar Innovatsion ishlar Ta‘lim Fan Ichlab chiqarish Yosh olimlar Maxsus tadqiqotlar Xalqaro hamkorlik tadqiqotlari Monitoring obyektlari Obyektlar integratsiyasi 9 taraqqiyot fan, texnika va ishlab chiqarishdan tarkib topgan murakkab dinamik sistema hisoblanadi. Ushbu sistemada fan g‘oyalar generatori vazifasini bajarsa, texnika ularning moddiy tadbig‘i, ishlab chiqarish esa texnikaning faoliyat yuritish sohasi vazifasini bajaradi. Fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanganligi, keng qamrovliligi va ommaviyligi, turli fanlarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligiga va bir-biriga ta‘sirchanligi, ilmiy tadqiqotga va uning obyektiga sistemali yondashuv uslublar qo‘llanilishi kabilar fanning bugungi kundagi xarakterli tomonlari hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot turlari va uni olib borishning asosiy usullari 2.1. Ilmiy tadqiqotlarning turlari (klassifikatsiyalanishi), strukturasi va bosqichlari Ilmiy tadqiqot (izlanish) uchta tarkibiy qism: insonning maqsadli faoliyati, ilmiy mehnat predmeti va ilmiy mehnat vositalaridan iboratdir. Insonning maqsadli ilmiy faoliyati tadqiqot obyekti haqida (bo‘yicha) yangi bilimlarga yoki obyekt haqidagi (bo‘yicha) mavjud bilimlarni to‘ldirishga erishishda anglab yetishni bilishning aniq usullaridan va ilmiy uskunalardan (o‘lchov, hisoblash texnikalari) mehnat vositalaridan foydalanishga tayanadi. Ilmiy mehnat predmeti tadqiqotining faoliyati yo‘naltirilgan tadqiqot obyekti va u haqidagi (oldingi) bugungacha bo‘lgan bilimlar. Tadqiqot obyektiga moddiy dunyoning har qanday materiali (elektrotexnik uskunalar, elektrlashtirilgan qurilmalar, mashina va mexanizmlar), jarayonlar (texnologik, energetik, agrotexnik, elektromagnit, moddiy materiallar elementlari va h.k.lar) kiradi. Ilmiy tadqiqotlar, ko‘zlangan maqsadi, tabiat yoki ishlab chiqarish bilan bog‘liqlik darajasi, ilmiy ishning xarakteri va chuqurligiga (qamroviga) qarab fundamental, amaliy va ishlanmalarga bo‘linadi. Fundamental tadqiqotlar prinsipial yangi bilimlarni (yaratish) barpo etish va oldinda mavjud

bilimlar sistemasini rivojlantirishga qaratiladi va undan maqsad tabiatning yangi qonunlarini yaratish (kashf etish) voqeliklar orasidagi bog'liqliklarni ochib berish va yangi nazoratlar yaratishdir. (Masalan, elektromagnit maydon nazariyasi agroinjeneriyada resurslar tejamkorligi ilmiy – metodologiyasini yaratish, energiyani muhitda harakatlanishi qonunini va h.k.lar). Amaliy tadqiqotlar texnika sohasida yangi ishlab chiqarish vositalarini, iste'mol mahsulotlarini va h.k.larni yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, uni maqsadi fundamental tadqiqotlarda to'plangan ilmiy omillarni amaliy tadqiqotlar orqali o'z o'rniga qo'yishdir. 10 (Masalan, urug'lik mahsulotlarni saralash elektrotexnologiyasi va texikasini yaratish, energiya tejamkor meva quritish texnikasini yaratish, asinxron motorlarni quvvat koeffitsiyentini ($\cos \phi$) oshirish teznik vositasini ishlab chiqish va h.k.lar). Ishlanmalar yoki loyiha-konstruktorlik ishlari (LKI) amaliy tadqiqotlar natijalarini (masalan texnika sohasida) texnik yechimlarni (mashina, qurilma, material, mahsulot) ishlab chiqarish texnologiyalarini tajriba nusxalarini yaratish va sinab ko'rish, yangiliklarni takomillashtirishda foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotning yakuniy qismidir. (Masalan, elektr maydoni yordamida urug'lik donlarni saralash texnologiyasini amalga oshiruvchi texnik qurilmani yaratish, dielektrik don quritish usulni amalga oshirish texnik qurilmasini ishlab chiqish, ichimlik suvga impulsli ishlov berish elektr qurilmani tajriba nusxasini ishlab chiqish va h.k.). Yuqoridagi ilmiy-tadqiqotlar klassifikatsiyasi va ularni chegaralanishi ko'pchilik hollarda shartli bo'lsada, ularni fanning muayyan bir sohasiga tegishliligi birlashtirib turadi. (2.1-rasm). 2.1-rasmda keltirilgan sxemada loyihalash va o'zlashtirish bosqichlari bir vaqtning o'zida fan va texnika sohalariga tegishli hisoblanadi. Shuningdek, fundamental tadqiqotlar va ishlab chiqarish oraliq'ida o'zaro bog'langan bosqichlar: amaliy tadqiqotlar – ishlanma – loyiha joylashgan. Ilmiy tadqiqotlar strukturasi. Ilmiy izlanishlar (tadqiqotlar) – obyektiv borliqni, qonuniyatlar va real dunyo voqeliklari orasida bog'liqlikni anglab yetish – bilish jarayonidir. Ilmiy tadqiqotlarning asosiy turlari – fan va ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqlik sxemasi. Soha Soha Fan Texnika Ichlab chiqarish O'zlashtirish Loyihalash Ishlanmalar Amaliy tadqiqotlar Fundamental tadqiqotlar.

Bilish – ilmiy izlanishlar (tadqiqotlar) yordamida amalga oshiriladigan bilmaslikdan bilimga, chala yoki noaniq bilimlardan to'laroq va aniq bilimlarga inson onggi va tafakkuri yo'naltirilgan murakkab jarayondir. Ilmiy tadqiqotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va texnika yo'nalishida ko'pgina holatlarda ketmaketlikda tashkil etiladi. Ilmiy tadqiqotlar olib borishni har bir bosqichida ilmiy muammoni (masalani) umumiy yechimi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib boriladi. Ilmiy tadqiqotning birinchi bosqichida nafaqat tadqiqot olib boriladigan muammo yoki masala shakllantiriladi, balki ishning muvaffaqiyatli yakuni ko'p tomonlama bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot vazifalari ham aniq shakllantiriladi. Ilmiy muammoni (masalani) shakllantirishga tadqiqot olib borilayotgan muammo yoki masalaga o'xshash masalalarning yechimlarini texnik va nazariy usullari va vositalari, hamda turdosh sohalardagi tadqiqot natijalari haqida ma'lumotlar yig'ish va tahlil etish kabi muhim ilmlar kiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'lumotlar yig'ish va ulardan masalani yechishda foydalanish tadqiqot ishlari tugaguncha ham davom etishi mumkin. Ilmiy tadqiqot strukturasi. Ilmiy muammoni (masalani) yechishning birlamchi gipotezasini ilgari surish va asoslash aksariyat hollarda ilmiy tadqiqotning birinchi bosqichida belgilangan ilmiy masalalar va tadqiqot mavzusiga oid to'plangan axborotlarning tahlili asosida shakllantiriladi. Muammoni yoki ilmiy masalani yechishga erishish bo'yicha shakllantirilgan bir necha birlamchi gipotezalar orasida eng maqbuli tanlab olinadi. Birlamchi ilmiy gipotezani ishonchligini aniqlash maqsadida ayrim hollarda birlamchi ekspertiza, ya'ni tajribalar o'tkazish zaruriyati ham tug'iladi. Ilmiy tadqiqotlarning nazariy izlanishlar bosqichida fundamental fanlardan olingan qonuniyatlarining tadqiqot obyektiga bog'lab analiz va sintez qilish va shuningdek, matematik apparatlardan, nazariy elektrotexnika va boshqa nazariy

bilimlardan foydalanib hozirgacha ma'lum bo'lmagan yangi qonuniyatlarni ochishga erishish ko'zda tutiladi. Nazariy tadqiqot qabul qilingan ilmiy gipotezani analitik rivojlantiradi va tadqiqot olib borilayotgan ilmiy muammoning nazariyasini yaratilishiga olib kelishi kerak. Boshqacha aytganda bilimlar tizimini tadqiqot olib borilayotgan muammo doirasida ilmiy umumlashtirishdir. Yaratilgan ushbu nazariya izlanishlar olib borilayotgan muammoga oid voqelik va faktlarni oldindan belgilab (prodokazat) va tushintirib bera olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Eksperimental tadqiqotlar – ilmiy asosida qo'yilgan tajribadir. Eksperimental tadqiqotlardan ko'zlangan maqsad ilmiy muammo (masala) yechimining to'g'riligini tekshirib ko'rish bo'lib, uning natijasini tasdiqlashi yoki inkor etishi mumkin. Tadqiqot olib borilayotgan obyekt (muammo yoki masala) bo'yicha fundamental izlanishlar olib borilmagan yoki nazariy asoslari yetarli bo'lmagan hollarda eksperimental tadqiqotlar natijalari muammoni nazariy yechimlarini shakllantirishga (topishga) asos yaratadi. Ilmiy tadqiqotning navbatdagi bosqichi eksperimental va nazariy tadqiqotlar natijalarini solishtirib (taqqoslab) ko'rib ularni bir biriga mos kelishi (to'g'ri kelishi) haqida, hamda ilgari surilgan ilmiy gipotezani tasdiqlashi haqida uzul-kesil xulosa qilinadi. Ayrim hollarda natijalar bir biridan ancha farq qilsa yoki umuman to'g'ri kelmasa ilmiy gipotezaga o'zgartirish kiritish yoki gipotezani inkor etishga to'g'ri keladi. Tadqiqot natijalariga yakun yasash, olingan natijalar tadqiqot maqsadi va vazifalariga to'la javob berishi hamda umumiy xulosa va tavsiyalarni shakllantirishi ilmiy izlanishning yakuniy bosqich vazifalariga kiradi. Texnika sohasida, jumladan, energetika sohasida tadqiqotlar natijalarini o'zlashtirish (amalda tadbiq etish) bosqichi ham ko'zda tutiladi. Bunda tadqiqot natijalarini yoki texnologik va konstruktorlik ishlanmalarini iste'molchiga yetkazish ishlari amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqot turlari muayyan bir ketma-ketlikda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Fundamental va amaliy tadqiqotlar quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1-bosqich. Tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash va ifoda etish: – bo'lajak tadqiqotlarga taalluqli muammolar bilan mamlakat va xorijiy adabiy manbalar bo'yicha tanishish, uning dolzarbligini asoslash; – muammolar bo'yicha tadqiqotlarning muhim yo'nalishlarini belgilash va tasniflash; – mavzuni ifodalash va tadqiqot annotatsiyasini tuzish; – texnikaviy topshiriqni ishlab chiqish va ilmiy tadqiqot ishlari (ITI) umumiy kalendar rejasini tuzish; – kutilayotgan iqtisodiy yoki boshqa foydali samarani oldindan belgilash.

2-bosqich. Tadqiqotning maqsadi va vazifasini ifodalash: – mamlakat va xorijiy nashrlar bibliografik ro'yxatini tanlash va tuzish (monografiya, darsliklar, maqolalar, patentlar, kashfiyotlar va b.), shuningdek, tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy-texnikaviy hisobot tuzish; – mavzu bo'yicha manbalar va referatlar annotatsiyasini tuzish; – mavzu bo'yicha masalalarning ahvolini tahlil qilish; – tadqiqot maqsad va vazifalarining bayonini tuzish.

3-bosqich. Nazariy tadqiqotlar: – obyekt va tadqiqot predmetini tanlash, fizik mohiyatini o'rganish va tadqiqot topshirig'i asosida ishchi farazni shakllantirish; – ishchi farazga muvofiq modelni aniqlash va uni tadqiq etish; – tadqiq etilayotgan muammo nazariyasini ishlab chiqish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish.

4-bosqich. Eksperimental tadqiqotlar (tasdiqlash, to'g'rilash yoki nazariy tadqiqotlarni inkor etish uchun): – eksperimental tadqiqotlar maqsad va vazifalarini aniqlash; – eksperimentni rejalashtirish va uni o'tkazish metodikasini ishlab chiqish; – eksperimental qurilmalarni va eksperimentning boshqa vositalarini yaratish; – o'lchov usullarini asoslash va tanlash; – eksperimental tadqiqotlar o'tkazish va ularning natijalarini ishlab chiqish.

5-bosqich. Ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish va rasmiylashtirish: – nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarini taqqoslash, ularning farqlarini tahlil qilish; – tadqiqot

obyekti nazariy modelini aniqlashtirish va xulosalar; – ishchi farazni nazariyaga yoki uning raddiga aylantirish; – ilmiy va ishlab chiqarish xulosalarini shakllantirish, tadqiqot natijalarini baholash; – ilmiy-texnikaviy hisobot tuzish va uni retsenziya qildirish.

6-bosqich. Joriy etish va iqtisodiy samaradorlik: – tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish; – iqtisodiy samarani belgilash. Ishlanmalarni, loyiha konstruktorlik ishlarini (LKI) bajarish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1-bosqich. Dolzarblikni asoslash va mavzuni shakllantirish, LKIning maqsad va vazifalarini shakllantirish (ITI 1-, 2-bosqichlaridagi ishlar bajariladi). 2-bosqich. Texnikaviy topshiriq va taklif: – eksperimental namunani loyihalashda texnikaviy topshiriqni ishlab chiqish; – texnikaviy-iqtisodiy asos; – patentga loyqlikni tekshirish. 3-bosqich. Texnikaviy loyihalash: – texnikaviy loyihalar talqinlarini ishlab chiqish va samaralirog‘ini tanlash; – ayrim qism va bloklarni ishonchlilik ko‘rsatkichlarini tekshirish uchun yaratish; – texnikaviy daraja va sifatni belgilash, texnikaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash; – texnikaviy loyihani kelishib olish. 4-bosqich. Ishchi loyihalash: – ishchi loyihani ishlab chiqish; – zarur konstruktorlik hujjatlarini tayyorlash. 5-bosqich. Tajribaviy namuna tayyorlash: – ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash: texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, qurilmalarni, kesuvchi va qo‘shimcha asbob-uskunalarni loyihalash va tayyorlash; – tajribaviy namuna detallari, qismlari va bloklarini tayyorlash, ularni yig‘ish; – tajribaviy namunani aprobatsiya qilish, me‘yoriga yetkazish va sozlash; – stendda va ishlab chiqarishda sinash. 6-bosqich. Tajribaviy namunani me‘yoriga yetkazish: – tajribaviy namunaning qismlari, bloklari va uni to‘la ravishda sinovdan keyin ishlashini tahlil qilish; – ishonchlilik talablariga javob bermaydigan ayrim qismlar, bloklar va detallarni almashtirish. 7-bosqich. Davlat sinovi: – tajribaviy namunani davlat sinoviga topshirish; – davlat sinovini o‘tkazish va sertifikatlash. 15 Shunday qilib, ilmiy tadqiqotlar qanday maqsadga qaratilganligi va ilmiy chuqurligi bo‘yicha uch asosiy turga tasniflanadi: fundamental (nazariy), amaliy va tajriba, konstruktorlik ishlanmalari. Fundamental va amaliy ITI larning bajarilish jarayoni olti asosiy bosqichni, tajriba konstruktorlik ishlanmalari esa yetti bosqichni o‘z ichiga oladi. Ilmiy tadqiqotning barcha turlari joriy etish bilan yakunlanadi.

Ilmiy texnik muammo (masala), uni aniqlash, o‘rganish va yechimi bo‘yicha ilmiy gipotezani shakllantirish Ilmiy muammo – hal qilinishi talab etilayotgan nazariy va amaliy masala bo‘lib, usiz ilmiy tadqiqot ishlarini bajarib bo‘lmaydi. Texnika yo‘nalishida ilmiy muammolar, ishlab chiqarish texnik vositalari va jarayonlarini u yoki bu jihatdan ma‘lum talablarga javob bermayotganidan energiya va boshqa resurslarni sarflarining yuqoriligi tufayli yuzaga keladigan va yechimi jamiyat taraqqiyotida zarur bo‘lgan masalalardan iboratdir. Ilmiy muammolar fanda oldingi erishilgan natijalar orasidan o‘sib chiqadi. Masalan. Elektr motorlarni yaratilishi ko‘plab fundamental, amaliy va ishlanmalar natijalari bilan bog‘liq bo‘lib, undan foydalanish jarayonida turli xil faktorlar ta‘sirida ularni buzilmasdan ishlash muddati balgilangan muddatdan ancha past bo‘lib kelayotgani ularni ekspluatatsion ishonchligini oshirish muammosini keltirib chiqaradi. Yuzaga kelgan ilmiy muammolarni yechimini topishda yangi bilimlar kerak bo‘ladi va bunga esa ilmiy izlanishlar natijasida erishiladi. Har qanday ilmiy muammo ikkita uzviy bog‘langan elementni o‘zida mujassam qiladi: birinchisi, biz nimanidir bilishimiz (voqelik, jarayon, energetik qurilma va h.k.lar) ular haqida obyektiv bilimga ega bo‘lishimiz, ikkinchisi, yangi qonuniyatlar yoki oldingi olingan bilimlarni amalda qo‘llashni prinsipial yangi usulini yaratish imkoniyati haqida farazga ega bo‘lishimiz kerak. Ilmiy muammoni qo‘yish – muammoni izlash, muammoni qo‘yish va rivojlantirish (kengaytirish) bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Muammoni izlash – ilmiy muammoni yuzaga kelishi ijtimoiy, iqtisodiy va texnik asoslar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy asosga ega bo'lgan energetik muammo sifatida ekologik toza energiya ishlab chiqarish, muhitni ifloslantirmaydigan ichki yonuv dvigatelini yaratish bilan bog'liq muammoni misol qilib olishimiz mumkin. Ayrim muammolar unchalik ravshan bo'lmasada, shubhasiz bo'lib, yirik ilmiy texnik muammolar sirasiga kiradi. Masalan, o'ta yuqori o'tkazuvchanlikka ega elektr energiyasini uzatish tarmog'ini yaratish yoki bo'lmasa quyosh energiyasidan elektr energiyasi olish samarasini oshirish va h.k.lar. Ushbu yirik ilmiy texnik muammolar 16 tarkibiga ko'plab mayda muammolar kirib ketadi. Amaldagi natijalar kutilgan ko'rsatkichlardan keskin farq qilishi natijasida muammolar yuzaga kelishi ko'p uchraydigan holdir. Masalan, nazariy va amaliy bilimlar asosida aniq va mukammal bajarilgan hisoblar bo'yicha yaratilgan elektrotexnik qurilma yoki uskuna, ulardan muayyan bir sharoitda foydalanish davomida tez tez ishdan chiqib turishi, qurilma yoki uskunani pasportida belgilangan energetik ko'rsatkichlarni amaldagidan farq qilishi va h.k.lar. Elektrotexnik uskunalarining texnik ishonchliligini, ekspluatatsion samaradorligini o'rganish bilan bog'liq, zaruriyat elektrotexnik uskunalar va elektrotexnik qurilmalarning ekspluatatsion ishonchliligini oshirish muammosini yuzaga keltiradi. Ilmiy muammolarni izlash va shakllantirishda ularni yechish uchun o'ylab qo'yilgan tadqiqotlardan kutilayotgan natijalarni amaliyot ehtiyojlari (talablari) bilan o'zaro munosabati quyidagi uchta prinsipga mos kelishi muhimdir: – belgilab olingan yo'nalishda, ushbu muammoni yechimisiz texnikani kelajakda rivojlanish imkoni bormi? – ko'zda tutilgan tadqiqotlar natijasi texnika sohasiga aniq nima beradi? – belgilangan ilmiy muammo bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar natijasida olinishi ko'zda tutilayotgan bilimlar yangi qonuniyatlar, yangi usul, texnologiya va texnik qurilmalar bugungi kundagi fan va texnikadagi mavjudlariga qaraganda (nisbatan) katta amaliy ahamiyatga egami? Muammoni qo'yish (shakllantirish). Ilmiy muammoni izlash va tanlash insonning ilmiy tafakkuri va amaliy faoliyatidagi eng murakkab va hali o'rganilmagan va ma'lum bo'lmagan bilimlarni izlab topishdek biri ikkinchisini inkor qiladigan jarayondir. Muammoning to'g'ri shakllantirilishi va uni qo'yilishi, tadqiqotdan ko'zlangan maqsad, tadqiqot obyekti va tadqiqotlar olib borish chegaralarini belgilab olinishi qanchalik mukammal amalga oshirilganligi, ilmiy tadqiqot natijalariga erishishda muhim o'rin tutadi. Ushbu masala, ya'ni muammoni qo'yish aksariyat hollarda har bir tadqiqot mavzusi uchun individual yondashuv asosida hal etiladi. Shu bilan birga ma'lum umumiylikka ega quyidagi qoidalar mavjudligini ham aytib o'tish lozim: – ilmiy muammoga oid fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlarini yaxshi bilishi va ilgaridan yechimi ma'lum muammoni qo'ymaslik, boshqacha aytganda muammoga oid ma'lum bilimlarni noma'lumlaridan aniq chegaralash; – olib boriladigan talqiqotlar chegarasi va tadqiqot obyekti aniq belgilab olish; – ilmiy muammoni yechish usullarini aniqlash, ya'ni muammoni turini (ilmiy nazorat, amaliy, maxsus kompleks) tadqiqot olib borish metodikasini aniqlash. Muammoni kengaytirish, qo'shimcha yechimlar bilan to'ldirish. Muammoni yechilishi davomida, qo'shimcha, ya'ni bosh muammoni yechimni to'ldiruvchi tadqiqotlar olib borish zaruriyati tug'ilishi mumkin. Masalan, elektr energiyasidan samarali foydalanish muammosini yechish ushbu bosh muammo boshqa ko'plab muammolarni yechish zaruriyatini vujudga keltiradi. Elektr uskunalarining ekspluatatsion ishonchliligini oshirish, noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish, energiya tejimkor elektrotexnologik jarayonlarni ishlab chiqish va h.k. bosh muammolar – elektr energiyasidan foydalanish muammosini kengayishi va to'ldirilishini, boyitilishini ta'minlaydi. Elektr uskunalarining ekspluatatsion ishonchliligini oshirish masalasi yechimiga erishish esa, o'z navbatida, ushbu masala ichida bir qancha yo'nalishdagi yechimlarga erishish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni taqazo etadi. Masalan, elektr uskunalarini anormal rejimdan himoyalash vositalarini ishlab chiqish (yaratish), texnik servis ko'rsatish tizimini takomillashtirish, elektrotexnik uskunalarini konstruktiv takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Materiallarni o'rganish. Har

qanday ilmiy tadqiqot ishlari oldingi tadqiqot tajribalari, tadqiqot materiallarini va ilmiy izlanish olib borilayotgan sohaga yaqin sohalardagi tadqiqotlar materiallarini o'ranish va tahlilidan boshlanadi. Tadqiqot mavzusi doirasida o'zidan oldingi olib borilgan tadqiqotlar natijasidan xabardor bo'lmagan izlanuvchi ko'p hollarda allaqachon yechimga ega muammo yoki masalaga behuda kuch va vaqtini sarflaydi. Tadqiqot mavzusiga oid materiallarni o'rganishni ikkita bosqichga bo'lish mumkin: Birinchi bosqich. Ma'lumotlar manbalarini aniqlash. Bu bosqichda tadqiqot mavzusiga oid yo'nalishda chop etilgan ilmiy asarlar (monografiyalar), brashyuralar, jurnallarda chop etilgan maqolalar dissertatsiya ishlari va ularning avtoreferatlari, referativ jurnallar, ilmiy to'plamlarda chop etilgan maqolalar internet saytlarida keltirilgan ma'lumotlar bilan tanishib chiqiladi. Tanishib chiqilgan ma'lumotlar manbalari va ularda tadqiqot mavzusiga oid masalalar bo'yicha erishilgan yechimlar birlamchi ma'lumotlar kartochkasiga tushirilib ma'lumotlar kartotekasi shakllantiriladi. (2.3-rasm). Ikkinchi bosqich. Bu bosqichda to'plangan ma'lumotlar manbalari o'rganib chiqiladi va ular tahlil qilinadi. Har bir ma'lumot manbayida keltirilgan ma'lumotlar va yechilgan masalalar bilan oldin tanishib qarab chiqiladi va ular siz olib borayotgan tadqiqot mavzusiga yaqin bo'lsa, uni o'qib chiqib chuqur tahlil qilinadi. Axborot manbalari bilan tanishib chiqish (qarab chiqish) jarayonida undagi keltirilgan annotatsiya, mundarijadagi bandlarni nomlanishidan uni siz olib borayotgan tadqiqotlar bilan qay darajada yaqinligi haqida ma'lum bir xulosaga kelinadi. Tanishib chiqilgan ma'lumotlar manbayida yechilgan muammo yoki masala siz olib borayotgan tadqiqotlar bilan bevosita bog'liq bo'lmasa bunday holda ushbu manba undagi yoritilgan masalalar haqida qisqacha xulosa shakllantirilib undan zarur bo'lganda foydalanish uchun konspekt tuzib qo'yiladi. O'rganib chiqish jarayonida keltirilgan materiallar tadqiqot mavzusiga oid bo'lsa uni chuqur o'rganib chiqiladi va natijalari quyidagi tartibda qisqacha yozib olinadi

ilmiy tadqiqot mavzusiga oid muammoni (masalani) yechimi bo'yicha oldin olib borilgan tadqiqotlar kamchiliklarini ko'rsatish; – tadqiqot mavzusiga oid izlanishlar olib borishni keyingi bosqichlarini belgilash; Tadqiqot mavzusiga oid izlanishlarni tanqidiy tahlili, ayniqsa aniqlangan kamchiliklar asoslar va aniq dalillarga suyangan holda amalga oshirilishi va undagi kamchiliklar (tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmaganligi, uslublari eskirganligi, o'lchov priborlarini yetarli aniqlik ko'rsatkichiga ega emasligi va h.k.lar) aniq ko'rsatilishi kerak. Tadqiqot mavzusiga oid va unga turdosh sohalarda olib borilgan oldingi ilmiy izlanishlar natijalari o'rganilgan manbalarda ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlovchi faktorlarning muhimligi va salmog'ini baholashda mualliflar fikr va xulosalari bir xil bo'lmagan hollarda fikrlarni o'zaro to'g'ri kelishi (rangoviy) darajaviy korrelatsiya usulida matematik tahlili o'tkaziladi. Tahlil natijasi asosida belgilarni (alomatlarni) muhimligi haqidagi fikrlar (muvofiqlik) darajasi qiymati (kattaligi) aniqlanadi va bu kattalik konkordatsiya koeffitsiyenti deb ataladi. Barcha o'rganilgan manbalarda mualliflar tomonidan faktorlarni muhimligi va salmog'ini baholanishi to'la o'zaro to'g'ri kelsa konkordatsiya koeffitsiyenti 1 ga teng bo'ladi. Ma'lumotlar manbalarida keltirilgan belgilar rangi (darajasi) yig'indisi qancha kichik bo'lsa ushbu belgi ko'proq muhim ekanligini ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotning navbatdagi bosqichi ishchi gipotezani shakllantirish, ishlab chiqishdir. Ishchi gipoteza. Fan va texnikadagi mavjud bilimlar tanlangan yo'nalishda yangi muammoni qo'yish (belgilash) yoki hali yechilmagan masalalarni ko'rsatib berish uchun yetarli bo'lsada ularni yechish uchun yetarli emas. Yuzaga kelgan yangi ilmiy muammoni yechish uchun yangi ilmiy bilimlar, yangi dalillar kerak bo'ladi. Tadqiqot o'tkazilayotgan muammoga (mavzuga) oid to'plangan dalillar ilmiy izlanish olib borishda muhim ahamiyatga ega bo'lsada ular o'z o'zidan ilmiy taraqqiyotni tashkil qilmaydi va ular muammoni yechimiga erishish bo'yicha ma'lum bir takliflarni, ya'ni gipotezalarni ilgari surishga kerak bo'ladi. Ishchi gipoteza – kuzatilayotgan dalillarni kelib chiqish sabablari ehtimoli haqida yoki bo'lmasa voqelik va

jarayonlarni nazarda tutilayotgan (ko'zda tutilayotgan) rivojlanish haqida tadqiqotchi tomonidan ilgari surilgan asoslangan taxmin (bashorat). Ishchi gipotezada tadqiqot obyekti (voqelik, jarayon va h.k.) bo'yicha mavjud bilimlar doirasidan kengroq mazmunda shakllantiriladi, yangi ilmiy natijalarni izlashga asos bo'lib xizmat qiluvchi ehtimollik xarakteriga ega yangi g'oyalar ilgari suriladi. Fanning rivojlanishi shakli sifatida gipotezaning mohiyati va bahosi ham ana shundadir. Gipoteza bu shunday faraz yoki taxminki (bashoratki) birinchidan, u fanning ushbu sohasidagi (masalan energetika, texnika, termodinamika va boshqa sohalar) ilmiy asosda belgilangan farazlar va qonuniyatlarga zid bo'lmashligi kerak, ikkinchidan, qilingan faraz yoki taxminni haqqoniyligi (chinligi) ehtimolligiga asoslangan yoki asoslash mumkin bo'lishi kerak. Agarda ilgari surilgan gipoteza (faraz yoki taxmin) amalda to'la o'z o'rnini egallagan ilmiy (polojeniyalarga) zid bo'lib chiqsa uni ilmiy gipotezalar qatoriga kiritib bo'lmaydi. Bunga misol qilib doimiy dvigatel yaratish ehtimolligi energiyani saqlanish qonuniga zidligi va bu farazni ilmiy gipoteza deb qabul qilib bo'lmaydi. Ishchi gipotezadan talab qilinadigan minimal talab tadqiqot olib borilayotgan obyektidagi jarayonni yoki vaqtni kechishiga ta'sir etuvchi shartlar, ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni belgilab beradi.

Nazorat savollari

1. Fan haqida tushuncha va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni
2. Qadim Turkiston eli o'zining buyuk siymolari va ko'p qirrali ijodi bilan fanning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan
3. Fundamental tadqiqotlar dasturlari ro'yxati
4. Bilish – ilmiy izlanishlar
5. Fundamental va amaliy tadqiqotlar

4-semestr

11 Mavzu: Musiqa tinglash madaniyati, musiqa ijrochiligi va musiqiy nazariy tushunchalarni o'zlashtirish metodikasi 2 soat

Reja:

1. Musiqiy ta'limning maqsadi, vazifalari va mazmuni.
2. O'quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtiris
3. O'quvchilarga musiqiy nazariy tushunchalarni o'zlashtirish metodikasi
4. O'quvchilarda musiqa tinglash ko'nikmasini shakllantirish

Musiqiy ta'limning maqsadi, vazifalari va mazmuni. Dars-o'quv tarbiya jarayonida maqsadlarni amalga oshirishda asosiy ta'lim shakli hisoblanadi. O'tkazilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchini ham qanoatlantirish uchun ma'lum darajada umumiy bo'lgan ba'zi bir talablarga javob berishi kerak. Dars fan ishchi dasturida o'z o'rniga ega bo'lib, maqsadi aniq belgilangan bo'lishi kerak. Dars o'tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar alohida aniqlanishi darkor. Shu bilan birga mazkur dars davomida bilim, iqtidor va ko'nikmalarining erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma'qul bo'ladi. Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo'lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo'yiladigan didaktik talablardan biri shuki, beriladigan o'quv materiallari tizimli ravishda osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga, o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Darsga qo'yiladigan tashkiliy

talablar. Mavzuni taqvimli rejalashtirish asosida dars o'tkazishning aniq ishlab chiqilgan rejasi mavjud bo'lishi va dars o'z vaqtida boshlanib, o'z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o'quvchilar ongli intizomi ta'minlanmogi lozim. Darsni tashkil etishda turli xil vositalar, jumladan o'quv-texnik va ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'zda tutiladi. Dars juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo'lib, darsni bir marta doimiy ravishda mavjud bo'ladigan ko'rinish tarzida rejalashtirish va o'zgaraydigan, ya'ni qotib qolgan namuna asosida olib borish mumkin emas. Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o'tilgan omillar qatorida mazkur sinfdan ishlashning haqqoniy shart-sharoitlari, shuningdek, o'qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir dars boshqa darslardan o'zining o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Darsda har doim o'qituvchining maxsus "Pedagogik yondashuv tarzi" ni ko'rish mumkin. Masalan: Kombinatsiyalashgan ya'ni rejalashtirilgan dars quyidagi ko'rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish qism, o'quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o'qituvchi tomonidan yangi mavzuni bayon etish, o'rganilgan mavzu materiallarini mustahkamlash, uyga vazifa hamda topshiriqlar berish va hokazo. Darsni yutug'i va uning natijalari nafaqat o'qituvchining tayyorligiga, balki o'quvchilarning bilimiga ham bog'liq bo'ladi. Afsuski, ushbu masalaga ko'pgina o'qituvchilar o'zlarining amaliy ishlarida yetarli darajada e'tibor bermaydilar. O'qituvchi darsda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni, ya'ni hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqei saqlagan holda yondashishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan holda olib borishi lozim. Darsda o'quvchilarga o'qituvchining murojaat shakli ham farqsiz emas. O'quvchilarni o'z ism-shariflari bilan atashi maqsadga muvofiqdir. Pedagog sifatida o'zligini namoyon etishni talab qilish zarur holatlarda o'qituvchi tomonidan o'z hissiyatini aks ettirishni inkor etmaydi. U darsda faqatgina ziyrak, mehribon, quvnoq, hushyor, ko'ngilchan bo'libgina qolmasdan, balki jiddiy, xafa va noroziligi bilingan qiyofada bo'lishi ham kerak. O'qituvchining pedagogik mahorati, uning o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'quv faoliyatini tashkil etishning turlituman shakllaridagi darsda ularning hamjihatligidagi izlanuvchanligini tashkil etish, o'quvchilarning ishlariga haqqoniy baho berish, ularga doimi zaruriy yordam ko'rsatishga tayyor turishlik kabi ishlar bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. O'quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiy ahloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Umumta'lim maktablarida musiqa darsining asosiy maqsadi—o'quvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdan iborat. Mazkur maqsad o'qituvchi oldiga o'quvchilarda musiqaviy-badiiy did, axloqiy-estetik his-tuyg'ularni tarkib toptirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda musiqa san'atiga nisbatan qiziqishni va musiqaviy faoliyatida badiiy ehtiyojni kuchaytirish, musiqa savodxonligi madaniyatini shakllantirish, musiqa orqali inson his-tuyg'ulari va orzu-umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish kabi qator vazifalar qo'yadi.

O'quvchilarda musiqaqa mehr va havas uyg'otish, ularning musiqa saviyasini oshirish uchun ashula va musiqa sohasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kuchaytirish lozim. Maktablarning boshlang'ich va o'rta sinflarining har birida xor to'garaklari, sharoiti bor bo'lgan maktab sinflarida esa cholg'u asboblari bo'lishi kerak. Ayni vaqtda o'quvchilarga yakka tartibda musiqa o'rgatish ishlarini amalga oshirishga e'tibor berish, bu ishga ota-onalar, jamoatchiligni jalb etish lozim. Maktabda egallangan musiqa bilimi va malakalaridan kundalik hayotda, maktabda musiqiy kechalar o'tkazishda, "Mustaqillik", "Mehrjon", "Yangi yil", "Navro'z", "8-mart xalqaro xotin-qizlar kuni" bayrami, musiqa va san'at bayramlarida hamda ekskursiya-sayrlariga chiqqanda foydalanish kerak. Shuningdek, o'rganilgan qo'shiqlar uyda oila a'zolari oldida, o'rtoqlar davrasida aytilishi mumkin. Umumta'lim maktablarida 7-yil davomida musiqa darsi muntazam ravishda olib boriladi. Natijada o'quvchilar musiqa savodiga ega bo'lib, musiqani sevadigan, yirik

musiqa asarlarini, shuningdek, kontsertlarni, radio va televideniya orqali beriladigan musiqali eshittirishlarni mehr qo'yib tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol qatnashadigan kishilar bo'lib yetishishadi. Yuqorida sanab o'tilgan tadbirlarni amalga oshirishda bosh tarbiyachilar, sinf rahbarlari va ota-onalar musiqa o'qituvchisiga yaqindan yordam berishlari juda zarur. Darsning har bir faoliyat turida doirachalar, shaqildoqlar, uchburchak, metallafondan foydalanish shuningdek, o'quvchilar musiqa asboblarida chalish, kuy va qo'shiqlarga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblarini chalinishini qo'l harakati bilan imitatsiya qilish, qo'shiqlarga ritmik jo'r bo'lib chapak chalish, asarlarga dirijyorlik qilishidan keng foydalanish darsni yanada qiziqarli hamda jozibali bo'lishini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflarda dars faoliyatlari 5 ta turdan iborat. Shunga ko'ra musiqa darsining quyidagi faoliyat turlari asosida tuzulishini unutmazlik kerak : 1. Xor bo'lib kuylash ; 2. Musiqa savodi ; 3. Musiqa tinglash; 4. Musiqaga mos ritmik harakatlarni bajarish; 5. O'quvchilar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish; O'rta sinflarda musiqa darsi 3 ta asosiy faoliyatlardan: 1. Xor bo'lib kuylash ; 2. Musiqa savodi ; 3. Musiqa tinglashdan iborat ko'rinishlarda tuziladi. Xor bo'lib kuylash - musiqaviy tarbiyaning jamoa faoliyati sifatida o'qituvchining bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Xorda kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyadagi nerv hujayralari ham faol ishga tushadi. U qo'shiq kuylash davomida o'quvchilarda ijobiy his-tuyg'ularning faolligini ta'minlaydi va shu bilan birga o'quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi. O'qituvchi sinf o'quvchilarining kuylash imkoniyatlarini hisobga olgan holda yil davomida o'rgatish uchun 10-12 ta qo'shiq tanlaydi. O'quvchilarning vokal-ijrochilik darajasi va badiiy mazmuni maktab hayotiga mosligini inobatga olib, ularning ma'lum tartibga soladi. Musiqa darsida o'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi. Bu, malakalar qo'shiqning to'g'ri, ta'sirli aytilishini taminlaydi hamda o'quvchilar ovozi yoxshilanishiga va shu bilan birga parvarish qilinishiga ijobiy yordam beradi. O'quvchilarning ovoz apparatlari, musiqa o'quviga qarab o'sadi. Shuning uchun qo'shiq kuylash malakalari, ovozning asosiy elementlari: nafasni rejaga solish, tovush hosil qilish, diksiya, soz, ansambl kabilar dasturda har bir o'quv yili uchun alohida-alohida beriladi. Ta'lim jarayonida bu elementlarning hammasi bir-biriga uzviy bog'lanib olib boriladi. Musiqa savodi. Ma'lumki, umumiy ta'lim maktabi musiqa madaniyati darsi tarkibida musiqa savodi o'zining musiqa haqidagi kompleks bilimlar doirasidan iboratligi bilan ajralib turadi. Qo'shiq kuylash jarayonida o'rganiladigan nota savodi elementlari bilan birga musiqa savodi turkumiga musiqa janrlari, ularning shakl va tuzilishlari, musiqaning ifoda vositalari, xalq musiqasining mohiyati haqidagi tushunchalar, ijrochilik turlari, cholg'u asboblari, ularning tovush tembrlari va boshqalar kiradi. 7-yillik musiqa ta'limi va tarbiyasi jarayonida mazkur bilimlar majmuasi asosida o'quvchilarning musiqa savodxonligi tarkib topishi lozim. Bu, musiqa madaniyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Musiqa tinglash. O'quvchilarning musiqiy ta'asurotini boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqiy didni tarbiyalashda darsning musiqa tinglash faoliyati katta rol o'ynaydi. Darsning bu faoliyat turida o'quvchilar musiqa o'qituvchisi ijrosida, MP3 yozuvlarda yozilgan eng nodir musiqa asarlarining namunali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakkanavozlar ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar va san'atning katta dargohiga ilk bor qadam tashlaydilar. Musiqaning san'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat, hayot go'zalligini voqelik va hatti-harakatlardagi qaytarilmas, ko'z ilg'amas qirralarini musiqiy ohangdagi rang-barang bo'yoqlarda idrok etadilar, chuqurroq his qiladilar. Kuylar o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rnashib qolishi uchun kuy ohanglarini o'quvchilar bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi. Ayniqsa, maktab darslida berilgan asarlar musiqa asbobi ijrosida tinglanib, so'ng uni kuylab ko'rish orqali qayta mustahkamlanadi. Shuni esdan chiqarmazlik kerakki, asarlarni yaxshi esda qoldirish uchun kamida 2-3 marta tinglash, har gal tinglash jarayonida kuyning

yangi-yangi dinamik qirralari, mazmun-mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirib borish lozim. Kuylarni tinglash bilan o'quvchilar musiqaning turli janrlari, ya'ni marsh, qo'shiq va raqs haqida batafsil tushunchaga ega bo'ladilar. Darsning har uch asosiy faoliyat turi alohida-alohida ajralib qolmasligi, aksincha ular bir-biri bilan uzviy bog'liq holda darsning mazmuni bir butun bo'lishini ta'minlashi lozim.

O'quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtirish va ularning o'zaro uyg'un kuylashini mustahkamlash uchun ba'zan ularni sinf sahnasiga chiqarib kuylatish samara beradi. Qo'shiq to'liq o'rganib bo'lingach, haftada yoki chorak oxirida o'quvchilar "Sinf konserti"ni beradilar. Sahnaga chiqish, sinfdoshlari orasida o'z o'rnini topib turish, kuylaganda bir-birlarini eshitib his qilish kabi sahna madaniyatiga qat'iy amal qila borish o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga va xulqiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Sahnada" kuylash o'quvchilarning qo'shiqni qay darajada o'rganib olganligini aniqlash, asarning ayrim jumllarini mustahkamlab olish va qo'shiqni tantanali sharoitda namoyish qilish imkoniyatini beradi. «Sinf konserti» o'quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etuvchi mashg'ulotga aylanadi. Musiqa darsida musiqa savodi o'rgatish metodikasi Musiqa savodi faoliyat turi umumta'lim maktablarining musiqa darsining asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, xor bilan qo'shiq aytishga nisbatan ikkinchi darajali o'rin tutadi. Shunga qaramasdan musiqa savodi musiqa ta'limida katta rol o'ynaydi. Musiqa nazariyasi va tarixidan boshlang'ich bilim berilib, o'quvchilarning musiqiy bilim saviyasini oshirib borishiga yordam beradi. Musiqa savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Eng muhimi notaga qarab kuylash va qo'shiq aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatish, vokal-xor ovozlari aniq talaffuz etishga hamda xor bilan ijro etish sifatini oshirishga qulaylik tug'dirish yo'li bilan sinfda qo'shiq o'rgatishni osonlashtiradi. Musiqa darsida musiqa savodiga juda oz vaqt, 5-10 daqiqa ajratiladi. Shu sababli har gal qo'shiq o'rganish, musiqa asarlarini tinglash jarayonida o'quvchilarni eshitish malakalarini hamda musiqa bilimini mustahkamlab, chuqurlashtirib borishi kerak. Maktabda musiqa savodini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodik talab olingan musiqaviy bilimni bevosita amalda qo'llash hamda savod o'rgatish bilan birgalashib qo'shiq aytishni bir-biriga chambarchas bog'lab borishdan iborat. O'quvchilar mustaqil qo'shiq ayta oladigan va notanish kuylarni notaga qarab o'rgana oladigan bo'lgan vaqtlardagina musiqa savodini o'rganishdan ko'zlanadigan maqsadga erishilgan bo'ladi. Musiqa savodini o'rganish o'quvchilarning musiqa tovushlarini eshitish sezgilarining o'sishiga asoslanishi kerak. O'quvchi biror tovushni ovoz bilan esga tushurishdan oldin uning qanday yangrashini aniq ravshan tasavvur qilishi va eshitib bilishi, ya'ni "ko'rayapman-eshitayapman-kuylayapman" deb, ko'zga ko'rinadigan narsadan eshitiladigan narsaga qarab borishi lozim. Musiqa darsida jamoa bo'lib qo'shiq aytishda ham musiqa savodini o'rgatish jarayonida ham eshitish qobiliyati, metr-ritm sezgisi taraqqiy etadi. Musiqa savodini o'rgatishning boshlang'ich davri quyidagilar: Musiqa savodini o'rgatish 1-sinfdan boshlab amalga oshiriladi. Ko'pgina o'quvchilar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chadagi musiqa mashg'ulotlarida bir qancha musiqaviy malakalar hosil qilgan bo'ladilar. Ular ko'pgina qo'shiq va o'yinlar o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar va h.k. Uyda tarbiyalanadigan o'quvchilar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar. Ular radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari bilan tanishgan bo'ladilar. Garchi ana shu bilimlar tasodifiy va tizimga solinmagan bo'lsa-da, ammo musiqa o'qituvchisi o'quvchilarga musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rish mumkin. 1-sinfda o'quvchilarning butun musiqa ta'limiga negiz solinadi, shuning uchun bu sinfda o'qituvchi o'qitish metodikasini ayniqsa yaxshi bilishi, maktab yoshidagi kichik o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini, ularning musiqa hamda vokal

qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. 1-sinfda ta'limni shartli ravishda ikki bosqichga ajratiladi. Bundan asosiy maqsad o'quvchilarning musiqa o'quvini o'stirishdir. Bu bosqich odatda o'quv yilining birinchi yarmini to'liq egallaydi. Shu vaqt mobaynida o'quvchilar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarini ajrata bilishga o'rganishlari hamda nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. O'quv yilining ikkinchi yarmi - ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni musiqa tovushlarining chizma (grafik) usulda ifodalanishi - nota yozuvini bevosita o'rganishga kirishiladi. Tovushning baland-pastligi. Registrlar (o'quv yilining birinchi yarmida) Musiqa darsida tovushlarning baland-pastligi tushunchasini o'rganish o'quvchilardagi mavjud tasavvurlarini aniqlashdan boshlanadi. Dastlab o'quvchilar musiqiy terminlarni adashtirib, baland tovushlarni past tovushlar, deb va aksincha, balandlik haqidagi tasavvurini qandaydir katta bir narsa bilan bog'liq bo'ladi (baland bo'yli erkak, baland tovush va h.k.), deb hisoblaydi. Shuningdek, ular ko'pincha baland tovushlarni «ingichka tovushlar» deb, past tovushlarni «yo'g'on tovushlar» deb atashadi. Shuning uchun o'quvchilarni bir yo'la to'g'ri musiqiy terminlardan foydalanishga o'rgatish, baland va past tovushlarni eshitib, ularni birbiridan farqlay bilish hamda to'g'ri atashga odatlantira borish lozim. Balandligi jihatidan turlicha bo'lgan tovushlarni emas, balki registr tushunchasi bilan birlashgan tovushlar guruhini o'rganishdek ana shu jihat uzoq davom etadigan, serdiqqat ish boshlanadi. Bu musiqiy termin haqida o'quvchilarga ma'lumot bermaslik mumkin, ammo registr tushunchasining mohiyati haqida ularning aniq tasavvur hosil qilishlari, kuyni o'rta, yuqori registrlardagi tovushlarni ajrata bilishga o'rganishlari juda muhimdir. "Baland" yoki "past" tovushlar haqidagi tushunchani izohlab berishda tegishli assotsiatsiyalar hosil qilish uchun o'quvchilarning hayotga, maishiy turmushga xos bo'lgan qushchaning osmonda chirillab sayrashini, yoqimli, jarangdor ovozi go'yo yuqori osmonga intilayotgandek yengil va ravshan sofligi bu tovushlarning baland-pastligini, aksincha, ayiq, fil, arslon kabi hayvonlarning bo'kirishidan eshitiladigan tovushlar, ularning o'zlari singari, xuddi yerdan ko'tarila olmagandek qo'pol, og'ir, past tovushlar ekanligini gapirib berish mumkin. Obrazlilik o'quvchilarning yorqin va shu bilan birga aniq musiqaviy taasurotlar hosil qilishlariga yordam beradi. Registrlar haqidagi tushunchani mustahkamlash va o'zlashtirishni tekshirib ko'rish uchun quyidagi o'yin-mashqlarni o'tkazish foydali bo'ladi. Musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy cholg'u asbobida qo'shiqni turli registrlarda ijro etadi. O'quvchilar esa ularni qo'l harakatlari 1 <https://uz.wikipedia.org/wiki/Assotsiatsiya> bilan ko'rsatib borishlari kerak. Agar qo'shiq yuqori registrda chalinayotgan bo'lsa, ular qo'llarini yuqoriga ko'tarishadi, pastki registrda chalinayotganda esa pastga tushirishadi, o'rta registrda o'quvchilar qo'llarini oldinga uzatishadi. Bu o'yinni tikka turib bajarilsa yaxshiroq natija beradi. Shu xildagi holatlar ko'zlanadigan asosiy maqsaddan tashqari, bir yo'la go'yo jismoniy yengillikka ham erishilib darsda ko'tarinki ruh paydo bo'ladi. Tovushlarning balandpastligini aniqlash birinchi oktava bilan cheklangach, shu tovushlarni eshitishi bilan emas, balki, ularni kuylashni ham talab etish kerak.

Mavzularni mustahkamlash uchun o'qituvchi o'quvchilarga tegishli mashqlarni bajarishni taklif qiladi va dirijyorlik ishora-sxemalarini ko'rsatadi: Tegishli o'lchovni o'rganish paytida uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab, shu o'lchovni asrlarning badiiy obrazi bilan bog'lash kerak. O'quvchilarni yangi o'lchov bilan tanishtirib, uni ma'lum bo'lgan o'lchov bilan taqqoslab ko'rish tavsiya etiladi. Bu usul ularning turli o'lchovlarni yaxshiroq anglab olishlariga yordam beradi. O'qituvchi ikkita musiqa asarini ijro etib beradi va uni eshitib, shu asarning o'lchovini aniqlashni taklif etadi. O'qituvchi ijro etgan birinchi asarning o'lchovini aytib berishi mumkin, ikkinchi asarning o'lchovini esa o'quvchilarning o'zlari aniqlashlari zarur. Boshqa paytda o'quvchilar o'lchovni mustaqil ravishda aniqlashlari uchun o'qituvchining chalib beradigan asarlardagi o'lchovni aytib bermasligi mumkin.

Buning uchun ular o'qituvchi chalayotgan vaqtda qalam bilan partaga chertib chalishlari mumkin, so'ngra o'quvchilardan biri birinchi asarning o'lchovini, yana biri ikkinchi asarning o'lchovini aytib beradi. Shuningdek, turli o'lchovdagi ikkita asar doskaga (yoki jadvalga) yozib qo'yilgan bo'ladi, o'qituvchi shu asarlardan birini chaladi, o'quvchilar esa qaysi asar chalinganligini topib, uning o'lchovini aytib berishadi. O'quvchilar o'lchov tushunchasini o'zlashtirib olishgach, ularga takt oldi (to'liqsiz takt)ni tushuntirib berish mumkin bo'ladi.

Zero, darsda musiqiy faoliyatlar mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni tashkil etishi muhimligi musiqiy ta'lim talabidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Musiqa ta'limining maqsadi, vazifasi va mazmuni nimadan iborat?
2. Musiqa darsiga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?
3. Musiqa darsida musiqi savodxonligining o'rgatish metodikasi nimalardan iborat?
4. Vokal-xor ijrochiligi madaniyatini shakllantirish texnologiyalari haqida gapirib bering?
5. Xor ijrochiligida tovush qanday hosil qilinadi?
6. Ansambl va xorning bir-biridan farqi?
7. Musiqa darsida musiqi idroki va tinglash madaniyatini shakllantirishda qanday texnologiyalardan foydalaniladi?
8. Musiqiy ritmik faoliyatlari musiqi darsida qanday shakllantiriladi?
9. O'quvchilar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish faoliyatini shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratishi lozim?

12 Mavzu: Oliy ta'lim tizimida ta'lim menejmentining nazariy-huquqiy asoslari. 2 soat

Reja:

1. "Boshqaruv" ("menejment") tushunchasining mohiyati.
2. "Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish" tushunchasining tavsifi.
3. Ta'lim muassasasi menedjerining huquq va majburiyatlari.
4. Ta'lim menedjerining kompetentsiyalari.
5. Ta'lim tizimini boshqarish organlari.
6. Ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish.

Boshqaruv –“(MENEJMENT)” tushunchasining mohiyati. Boshqaruv – bu qadimgi san’at va eng yangi fandır. Boshqaruv sohasidagi mutaxassislar fikricha, boshqaruv siyosiy, iqtisodiy texnologik, ijtimoiy va axloqiy tizimlarning qismi bo‘lib, o‘zining yo‘nalishi, tamoyillari, uslublariga ega. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv jiddiy ilmiy-uslubiy asosga tayanadi. Har bir fan bilimlar majmui bo‘lib, jamiyat va tabiatdagi xodisa va qonunlarni anglab tushuntirishga harakat qiladi. Fan sifatida boshqaruv yangi murakab xodisalarni aniqlashga, tabiatdagi tartib, qonunlarni ochishga harakat qiladi. Nazariya uchun tadqiq obyektini har tomonlama ta’riflab berish emas, balki yangi bilimlar shakllanishini ta’minlash uchun uning aloqalarini, asosiy xususiyatlarini o‘rganish, umumiy qonuniyatini aniqlash muhimdir. Nazariya tadqiqot obyektiga mos bo‘lgan uslublarni aniqlaydi, boshqaruv obyektiga faol ta’sir ko‘rsatish uslublarni ishlab chiqadi, jarayonlarni istiqbollashtiradi. Boshqaruv nazariyasining rivojlanishi, uning yutuq va mag‘lubiyatlari, o‘ziga xos farazlar yaratilishi va inkor etilishi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Fan dunyoni anglash uchun kuchli vosita - tahlil uslubiga ega, ya’ni voqyelikni qism, xususiyat, rivojlanish bosqichlarga bo‘ladi va umumlashtiradi. Sintez uslubi tadqiq etilayotgan jarayonni yaxlit mazmunini tiklaydi. Tahlil sintezdan oldin amalga oshirilib, ularni bir-biri bilan uzviy ichki aloqa bog‘lab turadi. Boshqaruv nazariyasi yoki bo‘lmasa ma’muriy boshqaruv hamisha ham deduktiv va eksperimental uslublarga tayanmaydi, chunki o‘rganilayotgan voqyelikni tashqi muhit ta’siri omillaridan mutloq chegaralab, saqlash iloji bo‘lmaydi. Tahlil va sintezdan tashqari fan (shu jumladan san’at ham) yana bir ajoyib bilim quroli - intuisiya (sezgi) bilan ish tutadi. Albatta, intuisiya empirik va nazariy bilimlarga asoslanadi. Intuisiya - odam tafakkurining doimo izlanishi, muammo yechimini tinmasdan izlash natijasidir. Bunga Nyuton olmasi, Mendeleev tushi, bastakorlar takrorlanmas musiqa asarlar yaratishini misol sifatida keltirish mumkin. Intuitiv yechim faraz, g‘oya, taxmindan amaliyot tasdig‘igacha mashaqqatli va murakkab yo‘lni bosib o‘tishi kerak. Boshqaruv faqat fan emas, balki san’at bo‘lgani uchun ham intuitiv boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim va mas’ul rol o‘ynaydi. qilinmaydi. Mamlakat siyosiy va iqtisodiy muammo yechimlarini hal qilish bosqichida harakat kilayotganda, har bir rahbar Менежмент (ёки бошқариш)мавжуд минимал имкониятлардан максимал натижаларга эришиш мақсадида муайян ходим ёки гуруҳга таъсир этиш, улар билан ҳамкорлик қилиш жараёни Бошқарув назарияси ўзининг тадқиқот объектига эга. У бошқарув жараёнининг ташкил этилиши ва бу жараёндаги одамлар муносабатлари нинг қонуниятларини ўрганади. “Бошқарув жараёни санъатдир, унинг моҳияти илмни (бошқарув соҳасидаги ташкилий билим асосларини) ҳар бир шароитга нисбатан ишлатилишидир”. Г.Кунц, С. О. Доннел Бошқарув фанининг асосий вазифаси - ходисаларни қайд этиш ва тизимлаш, амалий ҳулоса ва тавсияларни ишлаб чиқиш, улар орасидаги сабабий алоқаларни аниқлаш .

firma, korxonalar, qolaversa davlatni muvaffaqiyatli boshqarish uchun boshqaruvning ilmiy asoslarini bilishi, bu bilimlarni ijodiy qo‘llashi zarur ekanligini anglashi kerak. Amaliy faoliyatda boshqaruvchilar doimo o‘zgaruvchan sharoitda ishlashadi. Unda sodir bo‘lgan tasodifiy xodisalar hisobga olinadi, tajriba va intuisiyaga asoslanib qaror qabul qilinadi. Qator olim va amaliyotchilar boshqaruvni eng avvalo san’at deb ta’kidlaydi. Ular fanning boshqaruvdagi roli haqida shunday yozadi; Keyingi yillarda nazariya bilan amaliy boshqarish faoliyatida bir muncha klassifikasion qarashlar yuzaga keldi. Boshqarish usulining eng muhim belgilaridan biri bu ilmiylik xususiyatidir. Faqat ilmiy nazariya bilan qarashgina boshqaruvchi shaxsga – rahbarga o‘zining rahbarlik mehnatiga ko‘p qirrali va mazmunli ish uslubini ko‘rsata bilishi zarur. Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti murakab va dolzarb bo‘lib, boshqaruv fanining maqsadi boshqaruv tamoyili, tuzilmasi, usul va uslublarini o‘rganish va takomillashtirishdir. Boshqaruv funksiyasi tashkillashtirish, rejalashtirish (istiqbolni belgilash, modellashtirish, dasturlash), muvofiq lashtirish, sababiyat, motivasiya, qo‘yilgan masalalar bajarilishini nazorat va hisob qilish va boshqaruvning mustaqil funksiyasi sifatida ajratilgan marketingdaniboratdir. I.P.Pavlov, D.B.Uotson, B.F.Skinner asarlarida

rag'bat va jazo tizimi chuqur ilmiy asoslab beriladi, ijrochi faoliyatining mantiqiy doirasi uning qobiliyatiga qarab dalillar bilan aniqlab beriladi, rahbar va uning ko'l ostida ishlovchilar o'rtasida qarama-qarshi aloqa bo'lishi zarurligi asoslanadi. Boshqaruv san'ati, kishilar muloqotining butun boshli tajribasi vaziyat o'zgarganda stereotiplardan, vaziyat o'zgarganda bir xillilikdan voz kechishni maslahat beradi. Boshqaruvchi shaxs – rahbar kompetentligi Boshqaruvchi shaxs - rahbar avvalo boshqarishdan oldin, albatta, kerakli ilmiy egallagan bo'lishi lozimdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida, «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniy yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi» deyiladi. Ilmiylik - nazariya va amaliyot bilan bir tushunchadir. Nazariya - amaliyot bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliyotsiz nazariya ko'r odamni eslatadi. Amaliyot - nazariya oldida yangi vazifa va savollarni qo'yadi. Kadrlar tanlash va ularni yanada o'stirish - bu boshqarishning tashkiliy asosidir. «Kadrlar tanlashda – vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'usi bugun juda katta ahamiyatga egadir» - deyiladi O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimovning «Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik» asarida. 1 Kadrlarni to'g'ri tanlashda: Бошқарув фанининг асосий вазифаси - ходисаларни қайд этиш ва тизимлаш, амалий хулоса ва тавсияларни ишлаб чиқиш, улар орасидаги сабабий алоқаларни аниқлаш .

va ilmiy kadrlarni ilgari surish va ularni to'g'ri taqsimlashning mohiyati muhimdir. Kadrlarni tanlash va ularni tarbiya etish umumdavlat harakterga ega bo'lib, bu vazifalarni hal etishni ilmiy asosda olib borish kerak. Boshqaruv xodimlarini tayyorlash eng samarali ishlardan hisoblanadi, chunki bu masalani yechib, insoniyat iqtisodiy yutuqlar cho'qqisiga yeta oladi, kambag'allik tanazzulidan qutiladi, degan edi Konfusiy ikki yarim ming yil oldin. Hozirgi kunda ta'lim muassasasi rahbar xodimlarni ta'lim sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri–kasbiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "... Biz ko'pincha rahbar qat'iyatli, bilimdon va talabchan bo'lishi kerak, deymiz. Hyech shubhasiz, rahbar uchun bu fazilatlar suv bilan havoday zarur ..." 1 Erkin va faol fikrlash, ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta'lim berish va tarbiyalashning yangi g'oya va texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo'lgan rahbarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatga keyingi hayotga kirisha oladigan, oldida paydo bo'lgan har qanday hayotiy va kasbiy muammolarni amaliy hal eta oladigan rahbarlar zarur. Buning tasdig'i sifatida 2015 yil 12 iyunda qabul qilingan «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-4732–sonli) ko'rish mumkin va Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirish maqsadida quyidagilar oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishning muhim yo'nalishlari deb hisoblansin: -oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining pedagogik va kasb darajasini muntazam oshirish asosida ularning qonunchilik normalari, nazariya, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohasidagi so'nggi yutuqlarni chuqur o'rganish; -yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda, oliy o'quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejaları, dastur va uslublarini tubdan yangilash; -oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallashi va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etishi; -oliy o'quv yurtlari pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish va

undan o'z kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borishi uchun keng foydalanishi.

Menejment nazariyasi asoschilari. (Qo'shimcha ma'lumot)

Menejment nazariyasining asoschilari Teylor, Ford, Gilbert, Emerson, Fayol va boshqalardir. Menejment nazariyasining tarixan dastlabki yo'nalishi «klassik» (an'anaviy) maktab nomini olgan. Bu maktabning vujudga kelishida amerikalik muhandis va tadqiqotchi Frederik Teylorning xizmati katta. Teylor xizmat pog'onasining barcha darajalarini AQShdagi Bestlegemdagi yirik metallurgiya korxonasining kichik xizmatchisidan boshqaruvchisigacha bo'lgan lavozimlarni egallagan. U birinchilar qatorida ishlab chiqarishning ayrim jarayonlarini tashkil etish hamda butun korxonani boshqarishga ilmiy yondoshishni qo'lladi. Uning «Korxonani ilmiy boshqarish asoslari», «Menejmentni ilmiy tashkil etishning tamoyil va usullari», «Sanoat korxonalarini m a'muriy-texnikaviy tashkil etish» kabi mashhur asarlari xorijda chop etilgan ishlab chiqarishni boshqarishni ilmiy tashkil etish bo'yicha adabiyotlarning katta to'plamiga asos soldi. Teylor mehnat jarayonlarini maxsus funksional boshqarish zarurligini asoslab berdi, jismoniy mehnat bilan bir qatorda ishlab chiqarishni tashkil etishni tarkibiy unsurlarga ajratib ko'rsatishga harakat qilgan holda ishlangan sxemada o'lda-jo'lda, pala-partish ishlash mumkin emasligi, har bir narsa oldindan qilingan, ishning barcha shartlari va usullari oldida aniq, belgilangan bo'lishi aks ettirilgan. Teylor kishi aql-zakovatiga katta e'tibor bergan. Masalan, u korxonada ustasi quyidagi to'qqiz sifatga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlagan: 1. Aql-zakovatga. 2. Ma'lumotga. 3. Ish tajribasiga. 4. Odobga. 5. G'ayratga. 6. Ziyalikka. 7. Halollikka. 8. To'g'ri fikr yuritishga. 9. Yaxshi salomatlikka. Shu bilan birga Teylor bu sifatlarning barchasiga ega bo'lgan kishini topish juda mushkul ekanligini aytgan. Ko'pchilik faqat uchta sifatga ega bo'ladi - ular oddiy ish haqi to'lanadigan ishga olinishi mumkin. Bu sifatlarning to'rttasiga ega bo'lgan kishi nisbatan ko'p haq to'lanadigan ishga olinishi kerak. Beshta sifatni o'zida jam etgan kishini topish ancha mushkul, olti, yetti, sakkiz sifatga ega kishini topib bo'lmaydi. Agar yuqorida sanab o'tilgan to'qqiz sifatga ega bo'lgan kishi topilsa, uni usta lavozimiga emas, boshqaruvchi lavozimiga qabul qilish lozim. Teylor, ayniqsa, ish joylarini tashkil etish, ishlashning maqbul usullarini tanlash, aniq vazifalarni belgilash, kishilarni to'g'ri tanlash va ishga qo'yishga alohida ahamiyat berardi. U tomonidan ishlab chiqarishni boshqarish bo'yicha qator tavsiyalar ishlangan. Masalan, u menejment bo'yicha faoliyatning 8 ta vazifasini ajratib ko'rsatgan: 1. Ishlarni bajarish va taqsimlash tartibi. 2. Chizmalar va qo'llanmalarni tuzish. 3. Vaqtni me'yorlash va mehnatga haq to'lash. 4. Intizomga rioya qilish. 5. Ish uslublarini belgilash. 6. Uskunalar ish tartibiga rioya qilish. 7. Uskunalarni ta'mirlash va saqlash. 8. Sifatni nazorat qilish. Teylorning funksional menejment tizimi hozirgi davrda sanoatda qo'llanmasa-da, menejment jarayonini funksional taqsimlash g'oyasidan menejmentning tartibli (lineyniy) tizimidan ham foydalaniladi. Teylor ma'muriyat va ta'minlovchi ijtimoiy jihatlarni hisobga olishi muhimligini ta'kidlab, bu ishlab chiqarishni tashkil etish va menejmentning muhim tamoyillaridan biri ekanligini aytgan. U ijtimoiy demagogiya usullarini inkor etmay, ulardan foydalanishni tavsiya qilgan. U ishchilar va tadbirkorlar o'rtasida «sinfy hamji-hatiik»ni ta'minlash, ujar o'rtasida munozaraga yo'l qo'yimaslik zaruriyatiga tayangan va uni menejmentning eng muhim vazifalaridan biri deb hisoblagan. Teylorning fikriga ko'ra, bunday vazifani faqat ilmiy jihatdan tashkil etilgan menejment tizimi - menejment nazariyasigina hal etishi mumkin. Teylorizm ilmiy menejment harakatini boshlab berdi. Bu harakat AQShni qamrab olib, boshqa kapitalistik mamlakatlarga ham yoyildi. Teylor tizimi ilmiy menejmentning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Iqtisodiyotni boshqarish sohasining yana bir yirik nazariyotchisi Garrington Emerson (1853-1931) edi. U «Unumdorlikning o'n ikki tamoyili» asarini yozib, bu asarda birinchi bo'lib inson faoliyatini

maqbullashtirishga qarashlar tizimini bayon qilib berdi. Emerson quyidagi tamoyillarga asoslangan maksimal mehnat unumdorligiga erishish usulini ishlab chiqdi. 1. Aniq belgilangan g'oya va maqsadlar. 2. Aqli rasolik. 3. Asosli maslahat. 4. Qat'iy intizom. 5. Xodimlarga nisbatan adolatli munosabat. 6. Markazlashtirish. 7. Tezkor, ishonchli, to'liq, aniq va doimiy hisob. 8. Me'yoriy tartib. 9. Sharoitni normallashtirish. 10. Operatsiyalarni muntazam yoritish. 11. Yozma standart qo'llanmalar. 12. Unumdorlik uchun rag'batlantirish. O'z xulosalariga qo'shimcha qilib menejment uslubini bayon qilish bilan muallif klassik konsepsiyaga salmoqli hissa qo'shdi. Sanoat korxonalarini tashkil etish va menejment masalalarini o'rgangan yana bir amerikalik iqtisodchi Gamilton Cherch (1866— 1936) o'z diqqat e'tiborini menejmentning umumiy nazariy tamoyillariga qaratdi. Amerikalik boshqa nazariyotchilardan farqli G.Cherch tayyor qonun-qoidalarni tavsiya qilmagan. U barcha sanoat korxonalarini boshqarishning umumiy nazariy tamoyillarini belgilab, menejmentning umumiy vazifalari bilan uni tashkil etish tamoyillarini ko'rsatib berdi. O'zining «Ishlab chiqarishni boshqarish asoslari» kitobida menejment vazifalarining quyidagi tasnifini bayon qilib bergan: loyihalashtirish, uskuna bilan ta'minlash, buyuruvchilik, hisob va amalga oshirish. G.Cherch kitobining ayrim nazariy qoidalari hozirgi davrda ham ilmiy va amaliy qimmatga egadir. Ilmiy menejmentning rivojlanishiga hisob va rejalashtirishning chizma usulini ishlab chiqqan Genri Gant (1861-1919) va ishini maqbullashtirish uchun standart harakatlarni qo'llab ayrim ishlarni bajarish usullarini taklif etgan Frenk Gilbert (1868-1924) salmoqli hissa qo'shgan. Shuningdek, menejment nazariyasiga fransuz muhandisi Anri Fayol muhim hissa qo'shgan, u menejment vazifalarini, maqbullashtirish - oldindan ko'ra olish, tashkil etish, buyurish, kelishuv, nazorat qilishga tenglashtirgan. 1916-yilda uning «Umumiy va sanoat boshqaruvi», 1924-yilda «Mehnatni ilmiy tashkil etish» va «Ijroiy menejment» asarlari chop etildi. Genri Ford ishlab chiqarish korxonalarini boshqarishning tashkiliy-texnikaviy tamoyillarini yaratgan. Fordizm faqat menejment texnikasi va tashkil etish rivojlanishida emas, balki mehnat unumdorligi o'sishida ham yangi bosqich boldi. Ford ham Teylor singari kam xarajat bilan yuqori mehnat unumdorligiga erishishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa-da, unga boshqa yo'l bilan erishishga harakat qildi. Teylor inson mehnatini tashkil etishga alohida e'tibor bergan bo'lsa, Ford texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni takomillashtirishga e'tibor bergan. Shunday qilib, Teylor va uning izdoshlari burjua boshqaruv nazariyasi rivojlanishining menejment konsepsiyasi vujudga kelgan XIX-XX asrlar chegarasidan XX asrning 20-yillarigacha davom etgan davrni qamrab olgan birinchi bosqichi namoyandalaridir. XX asrning 20-yillaridan menejment rivojlanishining yirik kapitalistik ishlab chiqarish ehtiyojlariga asoslangan yangi bosqichi boshlandi. Nazariyotchilar Teylorizmni nisbatan moslashuvchan tizim bilan almashtirishga harakat qildilar. Ular menejmentning 40 sotsiologik va psixologik jihatlari e'tibor berib, ularni ilmiy menejment tarkibiga kiritdilar. «Klassik» maktabga xos bo'lgan inson omilini hisobga olmaslik, kishilar faoliyati sabablariga soddalashtirish nuqtai nazaridan yondashish amerika menejment nazariyasida yangi yo'nalish - «inson munosabatlari» maktabi vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu yo'nalishning asoschilari - amerikaliklar E. Meyo, F. Rotlisberger, Dj. Lizli va boshqalardir. Garvard universiteti professori E. Meyo «inson munosabatlari» nazariyasini ilgari surdi. Uning g'oyalari mohiyati shunda-ki, mehnat jarayonida psixologik va ijtimoiy omillar yetakchi ahamiyatga ega. Shu sababli, Meyoning fikriga ko'ra, ishlab chiqarish va menejmentning barcha muammolariga inson munosabatlari nuqtai nazaridan qarash lozim. Bu nazariya insonning ma'lum ijtimoiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish yo'li bilan uni yanada unumli mehnat qilishga rag'batlantirishi mumkin degan g'oyaga asoslangan. Bu maktabning yana bir namoyandasi D. Mak Gregorning menejmentni tashkil etishga 2 xil yondashuvi mavjud: - majburlash va rag'batlantirish usullari; - tashabbuskorlik va mustaqillikni iloji boricha namoyon qilish uchun sharoit yaratish. Bu nazariyaning asosiy

jihati shunda-ki, «inson munosabatlari» maktabi vakillari ijtimoiy muammolarni butun jamiyat miqyosida emas, balki alohida korxonada miqyosida hal etadilar. Mehnatkashlar ijtimoiy ahvoriga majmuiy ravishda hal etilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida emas, balki kishilarning guruhviy munosabatlari sifatida qaralgan. «Emperik» (pragmatik) maktab menejment zarurligini umuman inkor etib, ochiq emperizmni targ'ib qiladi. U menejmentning maqsadi - rahbarlik qilish bo'yicha ijobiy tajriba va aniq xatolarni o'rganishdan iborat, deb ta'kidlaydi. Bu maktab vakillari kamroq nazariy maslahatlar berib, ko'proq aniq vaziyatlarni tahlil etish bilan shug'ullanish kerak deydi. Albatta, tajriba o'rganish juda muhim. Lekin faqat amaliyotga asoslanib menejmentni shakllantirish mumkin emas. «Emperik» maktabning eng yorqin namoyandalari - T. Draker, R. Devis, L. Nyuman, D. Miller va boshqalardir. 41 Yuqorida sanab o'tgan xorijiy menejment maktablarining eng asosiy kamchiligi har tomonlama chuqur o'rganilmaganligidir. Bu yangi yo'nalish - «ijtimoiy tizimlar» maktabi vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Uning eng taniqli namoyandalari D. March, G. Saymon, A. Etsioni va boshqalardir. «Ijtimoiy tizimlar» maktabi «inson munosabatlari» maktabi xulosalariga asoslanib, korxonaga o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmuidan iborat majmuiy tizim sifatida qarab, insonni bu omillarning biri deb hisoblaydi. Sotsiologlarning katta guruhi sanoat sotsiologiyasi sohasida tadqiqot olib boradilar. «Ijtimoiy tizim» maktabi o'zidan avvalgi maktablarga nisbatan keng ko'lamdagi muammolarni hal etishga, menejment nazariyasini yaxlit holga keltirishga intiladi. Lekin menejment nazariyasini tuzishga intilish uni hozirgi kapitalistik dunyo sharoitidan uzoqlashib ketishiga va natijada uning unchalik keng yoyilmasligiga olib keldi. Agar «klassik» maktab namoyandalari nizolarni moddiy rag'batlantirish yoki jihozlash yo'li bilan, «inson munosabatlari» maktabi ishlab chiqarish jarayonini adolatli qilish yo'li bilan hal etishni taklif qilgan bo'lsalar, «ijtimoiy tizimlar» maktabi tashkilotda nizolarning mavjud bo'lishi uning tabiatidan kelib chiquvchi holat deb hisoblab, asosiy vazifa nizolar va ularning oqibatini yumshatishdan iborat deb ta'kidlaydilar. 50-yillarning boshida menejment nazariyasi rivojlanishiga «yangi» maktab katta ta'sir ko'rsatdi. U menejmentga aniq fanlar uslub va usullari - qarorlar qabul qilishni matematik modellashtirish, matematik mantiq, dasturlash, iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish usullarini joriy qilish bilan ajralib turadi. «Yangi» maktabning eng yorqin namoyandalari - R. Akkof, L. Kleyn, V. Lyus va boshqalardir. Bu maktabning shakllanishi kibernetika va jarayonlarni o'rganishning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Jarayonlarni o'rganish zaxiralar, resurslar taqsimoti, eskirgan uskunalarni almashtirish, maqbul ravishda rejalashtirishni boshqarishni matematik modellashtirish bilan bog'liqdir. Keyinchalik «yangi» maktab tarkibida mustaqil fan - menejment qarorlarini qabul qilish nazariyasi shakllandi. Xorijiy menejment rivojlanishining qisqa tavsifi menejmentni takomillashtirish yangi usullari va shakllarini izlash uzluksiz davom etganligidan dalolat beradi. «Yangi» maktab - bu «ijtimoiy tizimlar» maktabining mantiqiy davomidir. Rossiyada menejment fani XX asrning 20-yillaridan boshlab shakllana boshladi. Bu davrda mehnat va menejment muammolariga bag'ishiangan o'nlab jurnallar, jumladan, «Boshqaruvni tashkil etish», «Mehnatni tashkil etish», «Boshqaruv texnikasi», «Xo'jalik va boshqaruv» kabi oynomalar nashr qilindi, xorijiy ishlab chiqarishni tashkil etish va menejment bo'yicha mutaxassislarining asarlari rus tiliga tarjima qilindi. 1921 -yilda Markaziy mehnat instituti tashkil etildi. Menejment nazariyasi va amaliyotiga katta hissa qo'shgan taniqli olim - Aleksey Kapitanovich Gastev (1882-1941) edi. Uning «Qanday ishlamoq kerak?», «Mehnatni me'yorlash va tashkil etish», «Mehnat qo'llanmalari», «Madaniyat qo'zg'oloni». «Ishlab chiqarishni MMI usullari bilan tartibga solish» kitoblari nashr etildi. A.K. Gastev rahbarligi ostida MMIda mehnatni tashkil etishning yangi usullarini o'rganish, loyihalash va joriy qilish, turli mutaxassislikka ega ishchilarni o'qitish va malakasini oshirishning maqbul tizimini yaratish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

A.K. Gastev asarlari juda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega, u tomonidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar hozirgi davrda ham dolzarbdir. Mehnatni ilmiy tashkil etish va menejment fanining yana bir tashabbuskori - Platon Mixaylovich Korjensev (1881-1940). P.M. Kerjensev 1923— 1924-yillar davomida Butun Ittifoq mehnatni tashkil etish Kengashi prezidiumi a'zosi bo'lgan va «Pravda» gazetasida ishlagan. Bu yillar davomida u «Mehnatni ilmiy tashkil etish», «Tashkil etish tamoyillari», «Vaqt uchun kurash», «O'zingni o'zing tashkil et» singari asarlarini yozdi. P.M. Korjensev tomonidan tavsiya etilgan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlash, mehnat sharoiti, moddiy vositalardan to'g'ri foydalanish haqidagi takliflar juda dolzarb edi. Mehnatni tashkil etish va menejment nazariyasiga bu muammo bo'yicha tadqiqot olib borgan P.A. Popov, O.K. Ermanskiy va boshqalar ham salmoqli hissa qo'shganlar. Davlat va iqtisodiyotni boshqaruv nazariyasining ayrim jihatlari sharqning iqtisodiy g'oya rivojlanishiga hissa qo'shgan yirik alloma va davlat arboblari - Farobiy, Ibn Sino (IX-X asr), Hos Hojib (XI-XII asr), Amir Temur, Ibn Xoldun (XIII-XIV asr). Bobur, Alisher Navoiy asarlarida yoritilgan. X ulosa Menejment ilmining asoschilari F. Teylor, G. Emerson, G. Cherch va boshqalar bo'lganlar. Menejment nazariyasining asosiy ilmiy maktablaridan: «klassik boshqaruv maktabi», «inson munosabatlari maktabi», «ijtimoiy tizim maktabi», «yangi boshqaruv maktablari» hisoblanadi. O'zbekistonda menejment tizimi shakllanishi menejment nazariyasi tajribasiga ega bo'lgan, qabul qilingan qonunlar va huquqiy aktlar asosida amalga oshiriladi. Bozor infratuzilmasining rivojlanishi menejmentning strategik vazifasi hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Menejment nazariyasi klassiklari, ilmiy menejment maktabi, menejment va klassik maktablar, insoniy munosabatlar maktabi, menejmentning «emperik» maktabi, menejment nazariyasining asoslari, boshqaruvning «yangi» maktabi.

Nazorat savollari

1. “Boshqaruv” (“menejment”) tushunchasining mohiyati qanday.
2. “Ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish” tushunchasining tavsiflang..
3. Ta’lim muassasasi menedjerining huquq va majburiyatlari qanday
4. Ta’lim menedjerining kompetentsiyalariga nimalar kiradi.
5. Ta’lim tizimini boshqarish organlarini bilasizmi
6. Ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish xaqidagi fikringiz.

Reja

1. Ta'lim prinsiplari jamiyat ijtimoiy extiyojlari.
2. Musiqa darsida onglilik va faollik.
3. Darsda ta'limiy-didaktik, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlar.
4. Musiqa darslarni tashkil etishda kreativ yondashuv.

Ta'lim prinsiplari jamiyat ijtimoiy extiyojlaridan kelib chiqib pedagogika nazariyasi va amaliyoti yutuqlariga ko'ra o'zgarib takomillashib boradi. Tarixda ta'lim prinsiplarini aniqlash bo'yicha turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lgan. Masalan: XVI asrda Ya. A. Komenskiy ta'lim prinsiplarini tabiatga qiyoslab o'rganishni ya'ni o'quvchilarga tabiat qo'ynida bevosita ta'lim berishni, tabiatda qanday mutanosiblik bo'lsa, ta'limda ham xuddi shunday mutanosiblikka erishishni taklif etadi. XVII-XVIII asrlarda madaniy jihatlardan mutanosiblikka erishish prinsiplari ilgari suriladi. Hozirda ta'limning ilmiylik prinsipi, o'quvchilar imkoniyatlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish prinsipi, ko'rgazmalilik prinsipi, ta'limda muntazamlilik va davomiylik prinsipi, ta'limning hayot bilan bog'liqligi, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi va ongliligi, ta'lim va tarbiyaning tarbiyaviy xarakteri kabi ko'pgina prinsiplari mavjud. Musiqa darsi pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari, ta'lim amaliyotining umumlashma nazariyasi asosida tuziladi. Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqa darsini mazmunini va darsning tizimidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi va bir necha turga bo'linadi: 1. Musiqa darsida bilim va malakalarining mustahkamligi, 2. Musiqa ta'lim va tarbiyasida ilmiylik, sistemalash va davomiylik, 3. Darsda o'quvchilarning ongliligi va faolliligi, 4. Musiqa darsida ko'rgazmalilik. O'quv materiallarining o'quvchilar bilim - malakalariga va yosh xususiyatlariga mosligi, rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Ta'lim mazmunini o'quvchilarni haqqoniy ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Buning uchun o'quv mazmuniga faqat ilmiy asoslangan, tajribada tasdiqlangan, o'quv musiqa fani va musiqa fanining mazmuni orasidagi qonuniy aloqalarga asoslangan ilmiylik prinsipini qo'llash darkor. Nazariy bilimlarning amaldagi qo'llanilishi va u bilimlarning amaliy bilimlar bilan bog'liqligi har bir o'qituvchining axborotida sezilib turishi kerak. Musiqa fani bo'yicha yangiliklari doimo izohlanib borilishi darkor. Bevosita dars davomida ilmiylik prinsipi faqat ilmiy axborotni berish bilan chegaralanmaydi. Axborot, ilmiy manbalarning qayerdan kelib chiqqanligi sabab, natijalarning tahliliy, tarixiylik prinsipini qo'llash ham ilmiylik prinsipini ta'minlaydi. Dars jarayonida o'quv materiallarining o'quvchilarni bilim tajribasiga mosligi, o'quvchilar ovozinin rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asarlarni o'quvchilarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish darsning ilmiylik prinsiplarini tashkil etadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar tafakkuriga xos va ko'proq o'yin bilan bog'liq bo'lgan tanish qo'shiqlar, kuy va p'esalar o'rgatiladi. O'rta sinflarda esa o'quvchilar hayotiy tajribalari boyigan, aniq fanlarni o'rganish jarayonida ilmiy dunyoqarashlari tarkib topayotgan davr bilan farq qiladi. Shunga muvofiq o'rganiladigan asarlar ham janr, hajm va badiiy mazmun jihatidan tobora jiddiylashib borishi tizimlilik prinsipi deyiladi. Musiqa darsi xorda kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash kabi asosiy musiqiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Shu xildagi asosiy faoliyat turlarini darsning mantiqiy yaxlitligidan ajratmagan holda e'tibor beriladi. Bu esa darsdagi barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida uzluksiz amalga oshirib, darsning har bir faoliyatini o'z navbatida borishi davomiylik prinsipi deyiladi. Ta'limda onglilik va faollik prinsipini amalga oshirish ham bilish jarayonining psixologik asoslariga to'la tekis tayanadi. Tartib va qoidalar yaxshi o'zashtirilsa-da, ayrim xollarda shu bilimlarni bevosita qo'llash jarayonida o'quvchilar qiynalishi mumkin. Ba'zan ular oddiy masalalarni yecha olmay qolishadi. Demak, o'quvchi

materialni tushunib yetmasdan shunchaki, yodlab olgan. O'quvchilar olgan bilimlarini amaliy hayotda foydalana olishlari uchun ta'lim berish jarayonini faol fikrlash jarayoniga aylantirish kerak. Buning uchun, bolaning o'quv materiallarini ongli ravishda bilib o'zlashtirishi bilish jarayonini faolligini vujudga keltirishi lozim. Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy estetik zavqlanib idrok etishda, bolaning eng avvalo, diqqat-e'tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg'ota bilish, onglilik va faollikni vujudga keltiradi. Musiqani ongli idrok etish, o'z navbatida, badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi.

Musiqa darsida onglilik va faollik ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi faoliyatlarida ham onglilik va faollik musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi. Ta'limda, ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilish o'quv-tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi. Ta'lim va tarbiyada ko'rgazmalilikdan foydalanish haqida Al Forobiy ko'pgina ibratli so'zlarni aytib qoldirgan. Forobiyning fikriga qaraganda o'quvchilarni, shogirdlarni uch toifaga bo'lish mumkin: Birinchi toifasi – o'quv materialini o'zlari mustaqil o'rgana olishadi. Uchinchi toifadagilarni majburlab, zo'rlab o'qitish kerak, deydi. Va nihoyat ikkinchi toifa talabalarga ta'lim berishda ko'rgazmalilikdan foydalanib o'quv mehnatini jadallashtirish va bir muncha osonlashtirish imkoniyati tug'iladi. Ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilinganida eshitish organlari bilan bir qatorda ko'rish organlaridan ham foydalaniladi. Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi-o'ziga ko'rgazmali vositadir. Chunki, u qo'li bilan emas balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi. O'qituvchining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, texnik vositalar, ko'rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari ham, musiqa darsida ko'rgazma sifatida muhim rol o'ynaydi. Mazkur printsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash musiqa darsini mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Xulosa, qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik prinsiplari, musiqa madaniyati darsida muhim ahamiyatga ega bo'lib musiqani hayot bilan bog'lashda katta ahamiyat kasb etadi.

Dars - ta'lim tarbiyani amalga oshirishni eng qulay va samarali shaklidir. Jamiyatimizning turli jabxalarida siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy ma'rifiy o'zgarishlar barcha fanlar qatori musiqa darslarining mazmuni va metodikasiga ham yangi zamonaviy talablar qo'yiladi:

1. **Darsda ta'limiy-didaktik, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlarni** bilish va ularni amalga oshirish.
2. Darsda ta'limning faol usul va uslublardan foydalanish.
3. Dars jarayonida xalq pedagogikasi an'alarini, jahon pedagogikasi psixologiyasi, san'atimiz buyuk ajdodlarimiz o'g'itlari, rivoyatlarimiz, xikmat to'la xadislrimizdan unumli foydalanib, olib borish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki keyingi yillarda tajribali metodistlar, olimlar va amaliyotchi o'quvchilarning o'quv jarayonini taxlil qilish soxasida o'tkazilgan tadqiqotlar dars samaradorligini oshirish pedagogik va didaktik shart-sharoitlariga bog'lik ekanligi ko'rsatmokda. Eng muxim shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

Darsliklar, qo'llanmalar, dastur tavsiyanomalar, didaktik ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanish, sinfda ijobiy psixologik muxit bo'lish, o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish bu pedagogik shart-sharoitlarga amal qilib darsning maqsadi mavzusi, to'g'ri tashkil qilinsa dars, sifatli samarali bo'lishi mumkin.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) individning yangi gʻoyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati maʼnosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuygʻularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon boʻladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlari, zehni oʻtkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, *“kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va oʻzgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning oʻzaro qarama-qarshiligiga nisbatan taʼsirchanlikni ifodalaydi”*.

Kreativ yondashuv deganda, taʼlim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, taʼlim jarayonining markazida taʼlim oluvchi boʻlgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qoʻllanganda taʼlim beruvchi taʼlim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Taʼlim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Taʼlim oluvchi markazda boʻlgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon boʻladi:

- asosiy eʼtibor ijodiy ishga qaratilishi;
- taʼlim samarasi yuqoriroq boʻlgan oʻqish-oʻrganish;
- taʼlim oluvchining yuqori darajada ragʻbatlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham eʼtiborga olinishi;
- oʻqish shiddati taʼlim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- taʼlim oluvchining tashabbuskorligi va masʼuliyatining qoʻllab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali oʻrganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Kreativ yondashuv talabalarning bir-birlari bilan, oʻqituvchi, dialog, taʼlim, ishbilarmon va rolli oʻyinlar shaklida turli xil axborot manbalari bilan faol samarali hamkorligi, yangi ijtimoiy va professional tajribani oʻzlashtirish uchun oʻquv (kasbiy) vazifalarni hal etishga asoslangan aniq vaziyatlarni tahlil qilish sifatida koʻrib chiqiladi. Tadqiqotlarni tahlil qilish asosida kreativ oʻqitish usullarining (metodlari) boshqa guruh usullaridan ajralib turadigan xususiyatlari aniqlandi:

- faoliyatning guruhiy tarkibi;
- talabalarni guruh faoliyatida oʻquv va kasbiy vazifalarni hal qilishda oʻzaro muloqotga jalb qilish: “talaba-talaba”, “talaba-oʻqituvchi”, “talaba-kompyuter”,

“talaba-kitob”; o‘zaro munosabatlar subyektlarining konstruktiv, teng huquqli muloqotiga yo‘naltirilgan;

- turli madaniy matnlar (diagramma, grafik, formulalar, vazifa, ilmiy, badiiy matnlar, internet va boshqalar) bilan ishlashga yo‘naltirilganligi;
- o‘zaro hamkorlikning faol ishtirokchilari;
- natija olish uchun konstruktiv mahsulotni (natijalarni) va guruhlarining o‘z-o‘zini boshqarishini ta‘minlaydigan ta‘sir doirasini tashkil etish;
- kreativ yondashuv usullarining gumanitar tabiati, kommunikativ vaziyatlarni yaratish, muhim kasbiy muammolarni hal qilish, ko‘plab kasbiy pozitsiyalarning paydo bo‘lishi va qabul qilinishi, refleksiya (guruhli va individual).

Yoshlarni axloqiy yuqori bilimlarga ega qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ydi. Shuningdek yosh bo‘lajak pedagog-kadrlarimizni tayyorlashda musiqa o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan sifatlarni shakllantirishimiz lozim. Taxlil jarayonida, eng muximi tinglovchilar o‘zining dars o‘tqazuvchi o‘qituvchi sifatida tasavvur qilib, o‘z - o‘zini uddasidan qanchalik chiqarishni to‘g‘ri baxolaydi. Tinglovchilar tomonidan o‘tkazilgan darslarni va tarbiyaviy ishlarni taxlili odatda o‘z - o‘zini baxolashda, o‘zini sabotini reja konspektlarini taxlil qilishdan o‘z ishini qo‘llay olishdan boshlanadi.

Metodist-o‘qituvchi amaliyotchi tinglovchilarga metodik yordam ko‘rsatish va maslaxatlar berib yutuqlarini aniqlab to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi lozim. Bunda eng asosiy maqsad va tinglovchilar yoshlarimizni qobiliyat va yutuqlarini imkoniyatlarini aniqlab to‘g‘ri yo‘l shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimovning "Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, xayotimizning boshqa soxalaridagi axvol - amalga oshirilayotgan isloxtalarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi an'analarimizning shaklanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir" - degan so'zlari bilan ma'naviyat cho'qqisiga intilishiga chorlamoqda.

Xulosa qilib shuni aytsak, mana shunday tarzda o‘qituvchilar o‘quvchilarga musiqa san‘atini o‘tqatishda ko‘plab uslub va metodlardan foydalanib kelmoqdalar. Bunday dars jarayonlari o‘quvchilarni yana ham ilg‘or bo‘lishga, ular orqali musiqa san‘atini yoshlar orasida keng targ‘ib qilib, san‘atimizni jahonga tanitishadi. Bolalarning tarbiyasidagi musiqa san‘ati esa, ularni tarbiyasida rivojlantirilgan estetik bilimlar, bolalarning kelajak tarbiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ularni kelajakda yetuk shaxs bo‘lib yetishishida muhim omillardan biri desak mubolag‘a bo‘lmay

Nazorat savollari

1. Ta‘lim prinsiplari jamiyat ijtimoiy ehtiyojlari.
2. Musiqa darsida onglilik va faollik.
3. Darsda ta‘limiy-didaktik, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlar.
4. Musiqa darslarni tashkil etishda kreativ yondashuv.

14 Mavzu: Musiqa ta'limning ishchi o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar. 2 soat

Reja

1. Musiqa ta'lim- tarbiyasiga doir me'yoriy hujjatlar
2. Musiqa ta'lim- tarbiyasiga doir o'quv-uslubiy hujjatlar
3. Musiqa ta'lim- tarbiyasiga doir me'yoriy hujjatlar
4. "Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish" tushunchasining tavsifi.

Musiqa ta'lim- tarbiyasiga doir me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlar Hozirgi zamon musiqa pedagogikasi fani oldida turgan muhim muammolardan biri – ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero, musiqa ta'lim-tarbiyasi ma'naviy kamolotini ta'minlovchi muhim omillaridan biri bo'lib, inson tuyg'ulariga ta'sir etish bilan uni ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Keyingi yillarda mamlakatimizda musiqiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirish borasida qator me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlar qabul qilindi, dasturlar tayyorlanib, darsliklar nashr ettirildi, o'quv-metodik adabiyotlar chop etildi. Umumta'lim maktabida musiqa ta'limi mazmunini yanada oshirish, tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda Davlat ta'lim standartining ahamiyati katta. 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qaror bilan Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta'lim standarti tasdiqlandi. Unda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning maqsadi - o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o'stirish, o'zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o'rgatishdan iborat, deb belgilandi. Hujjatda maktabda boshlang'ich ta'limning muhim jihatlaridan biri- o'quvchilarda musiqiy savodxonlik malakalarini shakllantirishdan iboratligi e'tirof etildi. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati o'quv dasturiga taalluqli musiqa savodi malakalarini mustahkam o'zlashtirilishi, o'quvchilar ongi va shuurida uzoq vaqt saqlanib qolishi, ular mavjud musiqiy bilim, malaka va ko'nikmalardan kundalik faoliyatda qo'llay olishlariga erishish lozimligi qayd etildi. Musiqa madaniyati fanini o'qitishning oldiga esa o'quv fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish asosida fikr doirasini kengaytirish, o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini hamda turli musiqiy janrlarni bir- biridan farqlay olish, tayanch va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish kabi vazifalar qo'yildi . Yoshlarni milliy musiqa san'atiga qiziqtirish, musiqiy merosimiz bilan tanishtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat ega. Unda xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallayotganligi ta'kidlab o'tildi. Qarorda o'zbek milliy maqom san'ati markazining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: jumladan, xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish, ta'lim muassasalariga mohir maqomchi san'atkorlarni biriktirish va shu asosda "Ustozshogird" maktablarini tashkil etish vazifasi topshirildi . Qarorga binoan Shahrisabz shahrida 2018

yilning 6-10 sentabr kunlari o'tkazilgan Xalqaro maqom san'ati anjumanida Prezidentimiz so'zlagan nutqida: "Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarurligi alohida ta'kidlanib: "Agar biz asl, haqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak", "Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak" ligi alohida e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2019 yil 19 martdagi "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan vidioselektor majlisida esa 1 "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori. (Musiq madaniyati fanidan Davlat ta'lim standarti). 2017 y. 6 aprel 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 3391-sonli qarori //Xalq so'zi. 2017. - 18 noyabr 3 Prezident Shavkat Mirziyoevning "Xalqaro maqom san'ati anjumani" ning ochilish marosimidagi nutqi". //Xalq so'zi. 2018 y. - 7 sentabr 6 yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ularni madaniyat va san'atga jalb etish, sportga qiziqtirish, kitob o'qishga chorlash, axborot texnologiyalariga o'qitish va xotin-qizlarga ishchi o'rinlar yaratish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi. Albatta, 5 ta tashabbus mazmun va g'oya jihatidan bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirilmoqda. Birinchi tashabbus- yoshlarning musiqa, tasviriy san'at, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga qaratilgan. Har bir tashabbusning maqsadi aniq belgilangan bo'lib, ushbu tashabbus yosh avlodni ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazish ishlarini qamrab olishi, san'at va madaniyat sohasi ishtirokida amalga oshirib borilishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida amaliy fanlarni o'qitishni yanada takomillashtirishga asos bo'ladi. Bugungi kunda pedagogik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish zamonaviy yoshdashuvlarni taqozo etmoqda. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deya ta'kidlanishi mamlakat yoshlarini kelajakda yuqori malakali mutaxassislar etib tarbiyalashda alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasi asosiy jihatlarida amaliy fanlarni o'qitish, bu yo'nalishda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash borasida alohida ta'kidlab o'tildi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ 4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan musiqiy ta'lim tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, texnologiya ta'limi, jismoniy madaniyat, chaqiriqqacha harbiy ta'lim hamda maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishlari bo'yicha 3 yillik bakalavrluk ta'limi joriy (Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent. O'zbekiston, 2016 y. – B. 14. 7) etildi. Oliy pedagogik ta'lim tizimida mutaxassis-o'qituvchilar tayyorlash ishi yo'lga qo'yildi. Umumiy o'rta ta'limda "Milliy o'quv dasturi"ning ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi muhim ahamiyatga molik masalalardan biridir. Unda musiqa madaniyati fanini o'qitishning Konsepsiyasi 8-bobdan iborat bo'lib, quyidagicha nomlanadi: 1-bob- Umumiy qoidalar. 2-bob- Musiq madaniyati fanini o'qitishning joriy holati va mavjud muammolar. 3-bob- Musiq madaniyati fanining maqsad va vazifalari. 4-bob- Musiq madaniyati fanining o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish. 5-bob- Musiq madaniyati fanining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash. 6-bob- Musiq madaniyati fanini o'qitish metodologiyasi. 7-bob- Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi. 8-bob- Yakuniy qoidalar. Birinchi bobda - O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida musiqa madaniyati fanini o'qitishni

rivojlantirish Konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilganligi bayon etilgan. Shuningdek, Konsepsiya umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari belgilab berilgan. O‘zbekistonda san’at, ma’naviy, estetik va badiiy an’analarni avloddan-avlodga yetkazish, yoshlarni san’at asarlarini idrok etishga o‘rgatish orqali badiiy madaniyatini rivojlantirish, ma’naviy-intellektual salomatligini asrash, o‘quvchilarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish kabilar asosiy vazifa ekanligi qayd etilgan. Ushbu fanni o‘qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarda madaniy qadriyatlarga asoslangan ijodiy va shaxsiy fazilatlar shakllantirilishi lozim bo‘lsa-da, mazkur fan 8 mazmuni hamda o‘qitishda mavjud bo‘lgan ayrim muammolar ham sanab o‘tilgan. Uchinchi bobda musiqa madaniyati fanining maqsadio‘quvchilarga san’at, badiiy-estetik va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlar, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir, deb belgilangan hamda musiqa madaniyati fanining vazifalari yoritilgan. To‘rtinchi bobda musiqa madaniyati fanining ilmiy-metodik ta’minotini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar bayon etilgan. Musiqa madaniyati fani bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish prinsiplari asosida amalga oshirilishi ta’kidlanib, o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishda qo‘yiladigan talablar o‘z ifodasini topgan. Musiqa madaniyati fani moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbir haqida tushunchalar keltirilgan. Musiqa madaniyati fanini o‘qitishning asosiy tamoyillari, fanning aniq maqsadga qaratilganligi, musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘quvchilar faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar, fan mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayoni o‘qitishning ilg‘or metodikalari, maktab, oila va madaniy muassasalarning o‘zaro hamkorligidagi faoliyatga asoslangan holda tashkil etilishi lozimligi ta’kidlangan. Shuningdek, musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqishda malaka talablari va ilg‘or tajribalarni hisobga olish muhimligi, darsliklarga qo‘yiladigan talablar ko‘rsatilib o‘tilgan. Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi, chora-tadbirlari belgilangan. Musiqa madaniyati fani bo‘yicha ishlab chiqiladigan me‘yoriy hujjatlar mazkur Konsepsiyada belgilangan qoidalarga muvofiq bo‘lishi, Konsepsiyani amaliyotga joriy etishda ta’lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar, vazirlik va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxonalar, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik bilan o‘zaro kelishilgan holda amalga oshirilishi qayd qilingan.

Nazorat savollari:

1. Musiqa ta’lim- tarbiyasiga doir me‘yoriy hujjatlar
2. Musiqa ta’lim- tarbiyasiga doir o‘quv-uslubiy hujjatlar
3. “Ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish” tushunchasining tavsifi.
4. Ta’lim tizimini boshqarish organlari.
5. Ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish.

15 Mavzu: O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. 2 soat

Reja

1. Musiqa madaniyatini o'qitish metodikasi fanining maqsadi.
2. Dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil
3. Maktabda musiqa o'qitish metodikasining fan sifatida
4. Maktabda musiqa tarbiyasi atamasining mazmuni
5. Musiqa o'qitish metodikasining pedagogik metodlariga tayanishini qanday tushunasiz?
6. Dars tuzilmasini loyihalash

Musiqa madaniyatini o'qitish metodikasi fanining maqsadi talablarini umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musiqa madaniyati" fanini Davlat ta'lim standarti, Milliy o'quv dasturi asosida tashkil etish va o'qitish, pedagogika, psixologiya hamda musiqa ta'limiga oid maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirgan holda ta'limtarbiya jarayoniga tatbiq etishni o'rgatish, amalga oshirish yo'llarini tushuntirish, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini metodikaga oid mukammal bilim, ko'nikma va malakalar bilan ta'minlashdan iborat. Musiqa o'qitish metodikasi fanidan talabalar ta'lim tamoyillari va mazmuni, shakli, metodlari, "Milliy o'quv dasturi" tuzilishi, mazmunmohiyati, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini oshirish maqsadida metodik adabiyotlarni o'rganish hamda tahlil qilish, musiqa xonalarining jihozlanishi va boshqa masalalar bilan tanishadilar. Vazifalari: -pedagogik-psixologik, musiqiy metodik bilimlarni o'quvchilarning umummusiqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga tatbiq etish; -talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limi fanining maqsadi hamda vazifalari, o'quv rejasida tutgan o'rni bilan tanishtirish; - pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita musiqa ta'limi sohasiga oid ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish yo'llarini o'rgatish; - maktabda musiqa ta'limini o'qitishni tashkil etish hamda uni samarali amalga oshirish metodikasini o'rgatish; -musiqa ta'limida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar, o'qitish metodlari, shakllari va usullari bilan tanishtirish; -musiqa madaniyati darslarini tashkil qilishni rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqishni va tahlil qilishni o'rgatishdan iborat. 14

Dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi zero, unda bolalar ommaviy tarzda qamrab olinadi. Musiqa darslari boshqa fanlardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarda ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular, obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning axloqiy va intellektual rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadigan badiiy vosita. Zero, musiqa tarbiyasiz bolalarga aqliy tarbiyani musiqiy tarbiyasiz yetarli darajada amalga oshirib bo'lmasligi ham ayni haqiqatdir. Shuning uchun musiqa eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning umumlashgan mantiqiy mazmunidir. Musiqa darsi o'zining shakl va mazmuni, tuzilmasi bilan ham o'ziga xoslikni namoyon etadi. Musiqa ifodaviylik vositasi va faol ruhiy ta'siri bilan ajralib turadi. Shunday ekan, musiqa ta'lim-tarbiyasi – yosh avlod ma'naviy

dunyoqarashining shakllanishida muhim vosita bo'lishi, shubhasiz. Musiqa madaniyati ta'limida alohida emotsional muhit, ruhiy holat va shart-sharoit xarakterlidir. Chunki, musiqa bola ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, muayyan kayfiyat paydo qiladi. Shakllangan musiqiybadiiy taassurotlar nafaqat o'qituvchi ta'siri va ijrosida, balki badiiy so'z san'ati, chehra ifodasi, turli musiqiy ifodaviy harakatlar yordamida yanada mustahkamlanadi. O'quvchilar diqqat-e'tibori yangrayotgan musiqaga jalb etiladi. ular musiqiy obrazlar yordamida musiqadagi badiiylik, ifodalilikni aniq his etishlariga erishiladi. Umumiy jihatlariga qaramay har bir dars ijodiy jarayon bo'lib, o'ziga xos tomonlari bilan ham farq qiladi. Ma'lumki, har bir ishni puxta o'ylab to'g'ri tashkil etilishi uning yutug'ini ta'minlaydi. Musiqa madaniyati dars loyihasida barchasi o'ylangan bo'lishi kerakmaqsad va vazifalar, mazmun, tuzilma, vosita hamda metodlar. Bu esa ta'limda ijobiy natijani ta'minlovchi omildir. Darsni loyihalashtirish, unga tayyorgarlik o'qituvchining pedagogik malakasi, mahorati, kompetentligiga bog'liq. Ushbu jihatlar musiqa materialining tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tatbiq etish yo'llarini ta'minlaydi. Musiqiy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish-asarni chuqur o'rganishni talab etadi. Musiqiy asarlarni to'g'ri tanlab olish esa o'quvchilar musiqiy tayyorgarligi, qiziqishi, musiqiy ehtiyojlari hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. 15 Dars mazmunida turli xil tabiatdagi, kayfiyatdagi musiqa asarlari bo'ladi. Ularning yaxlitligini ta'minlash uchun dars tuzilmasini aniqlab olish zarur. Bunda turli musiqiy faoliyatlarning mazmunmohiyatiga ko'ra birin-ketinligiga va o'zaro bog'liqligiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Darsning emotsional tuzilmasini o'ylab o'qituvchi bir asardan boshqasiga o'tish jarayoniga o'quvchilardagi muhim ruhiy-hissiy holati, kayfiyatini saqlab qolishi va ularning diqqatini jalb etishda samarali usullarni tatbiq etishi lozim. Shuningdek, dars tuzilmasini tuzishda bolalar jismoniy, aqliy va emotsional holatlarini, har bir sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olishi maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olishmaydi. Ularning musiqiy faoliyatini o'z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Murakkab qo'shiqni, raqs harakatlarini bir necha dars davomida o'rgatish ma'qul. Murakkab musiqiy-ritmik harakatlar mashqlaridan so'ng qo'shiq kuylashga o'tish ham o'quvchilarga qiyinchilikni shakllantiradi. Shuningdek, o'quv jadvalida musiqa mashg'ulotining o'rni, ya'ni o'sha kunda bu mashg'ulot nechanchi soatda o'tilishini ham ahamiyati bor. Agar musiqa madaniyati mashg'ulotlari texnologiya ta'limi yoki jismoniy tarbiya darslaridan keyin o'tiladigan bo'lsa, o'quvchilarni fikrlashga, idrok etishga undovchi faoliyatlardan boshlash maqsadga muvofiq. Dars jadvalining so'nggi soatlarida o'quvchilarning charchab qolish holatlari kuzatilishi mumkin. O'qituvchi ushbu holatni ham inobatga olib, o'quvchilarni tetiklovchi hamda qiziqishni uyg'otuvchi metodlaridan samarali foydalanish tavsiya qilinadi. Har bir muayyan holatda o'qituvchi sinf o'quvchilarining u yoki bu musiqiy faoliyatga qiziqishlarini, ularning tayyorgarlik darajalarini muntazam hisobga olishi maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, to'liq shart-sharoitlar hisobga olingan dars tuzilmasini amalga oshirish uchun o'qituvchining ijodiy yondashuvi talab etiladi. Bu esa har bir darsning qiziqarli va esda qolarli bo'lishiga yordam beradi. Musiqa madaniyati darslarining haftada bir marotaba o'tilishi va bu davrda boshqa fanlar o'tilib, o'quvchilarning musiqiy taassurotlari unutilishi yoki sayozlashishi mumkin. O'qituvchi musiqa darslarida yaxlit musiqiy taassurotlar va 16 qiziqishlarni o'quvchilar hafta davomida saqlab qolishlariga erishmog'i kerak. Tajribali o'qituvchilar yaxlit dars tuzilmasiga alohida ahamiyat berishadi. Zero, mashg'ulotning turli elementlari, bosqichlari o'zaro uyg'un va bir-biri bilan bog'liq bo'ladi. Turli metodlar (asarni taqqoslash, muammoli izlanish, o'yin holatlari) asosida o'qituvchi bolalarni ijodiy topshiriqlar orqali faolligini oshiradi va kutilgan natijalarga erishishlariga harakat qiladi. Ma'lumki, zamonaviy musiqa madaniyati darslarining sifati o'quvchilar

faolligi bilan belgilanadi. Faollik muammosi nafaqat darsning metodik tuzilmasi, bolalarga qiziqishni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali hal etiladi. Ta'limiy samara ko'pincha o'qituvchining har bir o'quvchiga yakka-individual yondashuviga ham bog'liq bo'ladiki, bu shubhasiz o'qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biridir. O'qituvchi o'quvchilar bilan hammasi bo'lib haftasida dars davomida faqat bir marotaba uchrashadi, muloqotda bo'lsa-da, ammo sinf o'quvchilari bilan keng ko'lamda musiqiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezadi. Shu bois, o'qituvchi o'z o'quvchilarini yaxshi bilmog'i, ularning imkoniyatlari, sharoiti, qiziqish va musiqiy ehtiyojlarini to'g'ri anglab, faoliyatlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishi lozim.

Musiqqa madaniyatini o'qitish metodikasi fanining maqsadi talablarini umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musiqqa madaniyati" fanini Davlat ta'lim standarti, Milliy o'quv dasturi asosida tashkil etish va o'qitish, pedagogika, psixologiya hamda musiqqa ta'limiga oid maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirgan holda ta'limtarbiya jarayoniga tatbiq etishni o'rgatish, amalga oshirish yo'llarini tushuntirish, bo'lajak musiqqa o'qituvchilarini metodikaga oid mukammal bilim, ko'nikma va malakalar bilan ta'minlashdan iborat. Musiqqa o'qitish metodikasi fanidan talabalar ta'lim tamoyillari va mazmuni, shakli, metodlari, "Milliy o'quv dasturi" tuzilishi, mazmunmohiyati, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini oshirish maqsadida metodik adabiyotlarni o'rganish hamda tahlil qilish, musiqqa xonalarining jihozlanishi va boshqa masalalar bilan tanishadilar. Vazifalari: -pedagogik-psixologik, musiqiy metodik bilimlarni o'quvchilarning umummusiqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga tatbiq etish; -talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqqa ta'limi fanining maqsadi hamda vazifalari, o'quv rejasida tutgan o'rni bilan tanishtirish; -pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita musiqqa ta'limi sohasiga oid ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish yo'llarini o'rgatish; -maktabda musiqqa ta'limini o'qitishni tashkil etish hamda uni samarali amalga oshirish metodikasini o'rgatish; -musiqqa ta'limida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar, o'qitish metodlari, shakllari va usullari bilan tanishtirish; -musiqqa madaniyati darslarini tashkil qilishni rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqishni va tahlil qilishni o'rgatishdan iborat.

Dars musiqqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi zero, unda bolalar ommaviy tarzda qamrab olinadi. Musiqqa darslari boshqa fanlardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarda ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular, obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqqa, ayniqsa, bolalarning axloqiy va intellektual rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadigan badiiy vosita. Zero, musiqqa tarbiyasiz bolalarga aqliy tarbiyani musiqiy tarbiyasiz yetarli darajada amalga oshirib bo'lmasligi ham ayni haqiqatdir. Shuning uchun musiqqa eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning umumlashgan mantiqiy mazmunidir. Musiqqa darsi o'zining shakl va mazmuni, tuzilmasi bilan ham o'ziga xoslikni namoyon etadi. Musiqqa ifodaviylik vositasi va faol ruhiy ta'siri bilan ajralib turadi. Shunday ekan, musiqqa ta'lim-tarbiyasi – yosh avlod ma'naviy dunyoqarashining shakllanishida muhim vosita bo'lishi, shubhasiz. Musiqqa madaniyati ta'limida alohida emotsional muhit, ruhiy holat va shart-sharoit xarakterlidir. Chunki, musiqqa bola ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, muayyan kayfiyat paydo qiladi. Shakllangan musiqiybadiiy taassurotlar nafaqat o'qituvchi ta'siri va ijrosida, balki badiiy so'z san'ati, chehra ifodasi, turli musiqiy ifodaviy harakatlar yordamida yanada mustahkamlanadi. O'quvchilar diqqat-e'tibori yangrayotgan musiqqaga jalb etiladi. ular musiqiy obrazlar yordamida musiqqadagi badiiylik, ifodalilikni aniq his etishlariga erishiladi. Umumiy jihatlariga qaramay har bir dars ijodiy jarayon bo'lib, o'ziga xos tomonlari bilan ham farq qiladi. Ma'lumki, har bir ishni puxta o'ylab to'g'ri tashkil etilishi uning yutug'ini ta'minlaydi. Musiqqa madaniyati dars loyihasida barchasi o'ylangan bo'lishi kerakmaqсад va vazifalar, mazmun, tuzilma, vosita hamda metodlar. Bu esa ta'limda ijobiy

natijani ta'minlovchi omildir. Darsni loyihalashtirish, unga tayyorgarlik o'qituvchining pedagogik malakasi, mahorati, kompetentligiga bog'liq. Ushbu jihatlar musiqa materialining tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tatbiq etish yo'llarini ta'minlaydi. Musiqiy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish-asarni chuqur o'rganishni talab etadi. Musiqiy asarlarni to'g'ri tanlab olish esa o'quvchilar musiqiy tayyorgarligi, qiziqishi, musiqiy ehtiyojlari hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. 15 Dars mazmunida turli xil tabiatdagi, kayfiyatdagi musiqa asarlari bo'ladi. Ularning yaxlitligini ta'minlash uchun dars tuzilmasini aniqlab olish zarur. Bunda turli musiqiy faoliyatlarning mazmunmohiyatiga ko'ra birin-ketinligiga va o'zaro bog'liqligiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Darsning emotsional tuzilmasini o'ylab o'qituvchi bir asardan boshqasiga o'tish jarayoniga o'quvchilardagi muhim ruhiy-hissiy holati, kayfiyatini saqlab qolishi va ularning diqqatini jalb etishda samarali usullarni tatbiq etishi lozim. Shuningdek, dars tuzilmasini tuzishda bolalar jismoniy, aqliy va emotsional holatlarini, har bir sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olishi maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olishmaydi. Ularning musiqiy faoliyatini o'z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Murakkab qo'shiqni, raqs harakatlarini bir necha dars davomida o'rgatish ma'qul. Murakkab musiqiy–ritmik harakatlar mashqlaridan so'ng qo'shiq kuylashga o'tish ham o'quvchilarga qiyinchilikni shakllantiradi. Shuningdek, o'quv jadvalida musiqa mashg'ulotining o'rni, ya'ni o'sha kunda bu mashg'ulot nechanchi soatda o'tilishini ham ahamiyati bor. Agar musiqa madaniyati mashg'ulotlari texnologiya ta'limi yoki jismoniy tarbiya darslaridan keyin o'tiladigan bo'lsa, o'quvchilarni fikrlashga, idrok etishga undovchi faoliyatlardan boshlash maqsadga muvofiq. Dars jadvalida so'nggi soatlarida o'quvchilarning charchab qolish holatlari kuzatilishi mumkin. O'qituvchi ushbu holatni ham inobatga olib, o'quvchilarni tetiklovchi hamda qiziqishni uyg'otuvchi metodlaridan samarali foydalanish tavsiya qilinadi. Har bir muayyan holatda o'qituvchi sinf o'quvchilarining u yoki bu musiqiy faoliyatga qiziqishlarini, ularning tayyorgarlik darajalarini muntazam hisobga olishi maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, to'liq shart-sharoitlar hisobga olingan dars tuzilmasini amalga oshirish uchun o'qituvchining ijodiy yondashuvi talab etiladi. Bu esa har bir darsning qiziqarli va esda qolarli bo'lishiga yordam beradi. Musiqa madaniyati darslarining haftada bir marotaba o'tilishi va bu davrda boshqa fanlar o'tilib, o'quvchilarning musiqiy taassurotlari unutilishi yoki sayozlashishi mumkin. O'qituvchi musiqa darslarida yaxlit musiqiy taassurotlar va 16 qiziqishlarni o'quvchilar hafta davomida saqlab qolishlariga erishmogi kerak. Tajribali o'qituvchilar yaxlit dars tuzilmasiga alohida ahamiyat berishadi. Zero, mashg'ulotning turli elementlari, bosqichlari o'zaro uyg'un va bir-biri bilan bog'liq bo'ladi. Turli metodlar (asarni taqqoslash, muammoli izlanish, o'yin holatlari) asosida o'qituvchi bolalarni ijodiy topshiriqlar orqali faolligini oshiradi va kutilgan natijalarga erishishlariga harakat qiladi. Ma'lumki, zamonaviy musiqa madaniyati darslarining sifati o'quvchilar faolligi bilan belgilanadi. Faollik muammosi nafaqat darsning metodik tuzilmasi, bolalarga qiziqishni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali hal etiladi. Ta'limiy samara ko'pincha o'qituvchining har bir o'quvchiga yakka-individual yondashuviga ham bog'liq bo'ladiki, bu shubhasiz o'qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biridir. O'qituvchi o'quvchilar bilan hammasi bo'lib haftasida dars davomida faqat bir marotaba uchrashadi, muloqotda bo'lsa-da, ammo sinf o'quvchilari bilan keng ko'lamda musiqiy–ma'rifiy ishlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezadi. Shu bois, o'qituvchi o'z o'quvchilarini yaxshi bilmog'i, ularning imkoniyatlari, sharoiti, qiziqish va musiqiy ehtiyojlarini to'g'ri anglab, faoliyatlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishi lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. Maktabda musiqa o'qitish metodikasining fan sifatidagi ahamiyatini izohlang.
2. Maktabda musiqa tarbiyasi atamasining mazmuni nimadan iborat?
3. Musiqa o'qitish metodikasi qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi?
4. Musiqa o'qitish metodikasining mazmuni, maqsad va vazifalarini ta'riflang.
5. Musiqa o'qitish metodikasining pedagogik metodlariga tayanishini qanday tushunasiz?
6. Dars tuzilmasini loyihalashda o'quvchilarning qaysi jihatlarini inobatga olish kerakligini izohlang

16 Mavzu: O'quv rejadagi fanlarni o'qitishga qo'yiladigan talablar va fanlar xususiyatlari. 2 soat

Reja:

1. Maktabda musiqa metodikasi fanining ahamiyati va mohiyati.
2. Musiqa pedagogikasi umumiy pedagogikaning bir qismi sifatida
3. Musiqa o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan o'zaro bogliqligi
4. Musiqa o'qitish metodikasi mazmuni va fanning oldiga qo'yilgan maqsad

1. Maktabda musiqa metodikasi fanining ahamiyati va mohiyati. Musiqa madaniyati darslarida san'atning bu turi bilan oshno bo'lish maktab o'quvchilarini milliy musiqiy ruhda tarbiyalashda, ularning dunyoqarashi, ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Musiqaning keng tarbiyaviy imkoniyatlarini o'qituvchi amaliyotda faol tatbiq eta olsagina, u bolalar musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning san'at asarlarini to'g'ri anglash, idrok etish va baholay olishga o'rgatishi mumkin. Albatta, jamiyat tomonidan maktab oldiga qo'yilayotgan vazifalarni amalga oshirish fan oldida katta mas'uliyatni qo'yadi. Musiqa tarbiyasini hayot bilan bog'lash, bolalar musiqiy-badiiy qiziqishlarini rivojlantirish, mashg'ulotlar tarbiyaviy ta'sirini oshirish kabi muhim vazifalar musiqa madaniyati fani o'qituvchisidan o'z fanini chuqur bilishni va o'quvchi shaxsiga doimiy e'tibor bilan qarashni taqozo etadi. Musiqa o'qitish metodikasi-bo'lg'usi maktab musiqa o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega fandır. Ushbu fan musiqa vositasida bolalarning ta'lim-tarbiyasini amalga oshirish masalalarini o'rganadi. Musiqa tarbiyasi metodikasini egallash uchun maktab dasturida musiqa fanining kiritilishi, uning o'rnini, ahamiyati musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini, tarbiya ob'ekti sifatida zamonaviy o'quvchi shaxsini yaqqol tushunish talab etiladi. Musiqa tarixini bilish, uni rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilay olish, bastakorlik ijodiyoti, musiqa merosi xususidagi tushuncha va malakalar - o'quvchilar musiqiy didlarini tarbiyalashga asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning dunyoqarashlarini kengaytiradi, musiqa san'atining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga, musiqiy obrazlarda hayot voqealarining aks ettirilishini, musiqa ifoda vositalarini hissiy anglashga yordam beradi.

Psixologik-pedagogik, metodologik fanlar esa hozirgi davrda maktabga o'qituvchiga o'quv-tarbiyaviy jarayonning mazmunini, tamoyillari va shakllari tuzilishini bilishga, turli yoshdagi o'quvchilarning yosh, pedagogik-psixologik va fiziologik xususiyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlarsiz maktabda musiqa tarbiyasi maqsad-mohiyati, mazmun va tuzilishini tasavvur qilish qiyin. Oliy musiqa pedagogik ta'limida o'qitish metodikasi fani o'quv rejasiga asosan 3-kursda 5-6 semestr davomida o'qitilib, u 84 o'quv soatlarini o'z ichiga oladi. O'zlashtirilgan nazariy bilim, malaka va ko'nikmalar keyingi yilda bitiruvchi talabalarning Davlat pedagogik amaliyoti davrida mustahkamlanadi. Musiqa o'qitish metodikasi pedagogik fanlar tizimiga kiradi va o'zining mustaqil o'rniga ega bo'lib, musiqa tarbiyasining mazmun va metodlarini takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o'rganadi. Musiqa o'qitish metodikasining mohiyati yosh avlod tarbiyasida musiqa san'atining muhim roli va ahamiyatini anglatish bilan belgilanadi. Musiqa tarbiyasining metodik fan sifatida rivojlanishi jamiyatda madaniyat, musiqa san'ati, ta'lim, maorif va maktablarning takomillashuvi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

2. Musiqa pedagogikasi umumiy pedagogikaning bir qismi sifatida o'ziga xos xususiyati, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, his-tuyg'ular olami va musiqiy badiiy obrazlari bilan insonning ma'naviy-estetik qarashlarini kengaytirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bola shaxsini ma'naviy rivojlanishida musiqa san'atining o'rni, roli va pedagogik ahamiyati musiqachi-pedagog olimlar E.B.Abdullin, Y.B.Aliev, O.A.Apraksina, B.V.Asafev, T.I.Baklanova, L.A.Barenboym, N.Y.Bryusova, N.A.Vetlugina, D.B.Kabalevskiy, V.I.Petrushin, N.M.Mixaylovskaya, Y.N.Nazaykinskiy, Y.V.Nikolaeva, O.P.Radshovalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Mamlakatimizda musiqa pedagogikasi bo'yicha XX asrning so'nggi o'n yilliklarida mamlakatimizda H.Nurmatov, A.Hasanov, F.Jo'rayev, R.Qodirov, Q. Mamirov, S.Annamuratova, T. Tursunov, F. To'rayev, S. Do'stov, A. Qo'shayev va boshqa ko'pgina musiqachipedagog olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarda musiqiy ta'limning maqsad va vazifalari, mazmun-mohiyati, musiqiy faoliyat turlari, musiqa ta'limida qo'llaniladigan qator an'anaviy usullar tadqiq etilgan. Musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari, musiqa o'qituvchisining tayyorgarlik darajasi, kasbiy mahorati, o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy-badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lmog'i bilan-gina ta'lim-tarbiyada samarali ijobiy natijaga erishish mumkinligi e'tirof etilgan. Muhimi, ilmiy izlanishlarda musiqa ta'limi samaradorligini belgilovchi omillardan biri-musiqiy-metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog'liqligi asnosida yechimi masalalaridir.

3. Musiqa o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Musiqa o'qitish metodikasi boshqa fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Jumladan, metodika musiqashunoslik fani, uning yutuqlarini tadqiq etib, ta'lim-tarbiya jarayonlarida undan samarali foydalanadi. Shu o'rinda so'nggi paytlarda o'quvchi-yoshlar orasida musiqa asarlarini tinglash, idrok etish va tahlil qilishni rivojlantirish masalasiga yana ham ko'proq e'tibor berilayotganligini ta'kidlash o'rinli. Musiqashunoslik nazariyasi musiqa tarbiyasining mazmun-mohiyati hamda metodlari ishlanmalarini yanada takomillashtirishda samarali ta'sir ko'rsatadi. Musiqa o'qitish metodikasi pedagogikaga, uning asoslariga tayanadi. Metodlar ishlanmasi quyidagi muammolar bilan bog'liq: musiqa tarbiyasining ta'lim mazmuni bilan o'zaro uyg'un bog'liqligi, o'quvchilar ijodiy va musiqiy qobiliyatlarining rivojlanishi, musiqiy did, qiziqish, ehtiyoj, xotira hamda ovoz, musiqani idrok etishda yosh-individual xususiyatlarni inobatga olish, o'quvchilar ma'naviy rivojlanishidagi turli musiqiy faoliyatlarning imkoniyatlari va boshqalar. Tarbiya ko'pgina omillar bilan bog'liq jarayondir. Kishining musiqa madaniyati asoslari nafaqat maktab ta'sirida shakllanadi, balki unda oila, ommaviy axborot, ijtimoiy munosabatlar tizimi ham katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga ta'kidlash o'rinliki, aynan maktab o'quvchilari musiqiy qiziqish va qobiliyatlarining tarkib topishi hamda rivojlanishida maktab hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Albatta, musiqa

pedagogikasi va amaliyotida mavjud barcha musiqiy bilimlarni o'quvchiga berishning imkoniyati ham, hojati ham yo'q. Biroq metodika vazifasiga o'quv-tarbiyaviy jarayonning turli shakllarini jumladan, musiqa darslari, musiqadan fakultativ 12 mashg'ulotlar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, to'garaklar, bayramlar mazmunini yanada takomillashtirishni nazarda tutish lozim. Musiqa o'qitish metodikasi pedagogika fanining bir tarmog'i sifatida o'z vazifalari va tadqiqot metodlariga ega. Musiqiy ta'lim shu jarayon bilan bog'liq barcha jihatlarni, jumladan: -o'quv materialining mazmuni, o'qitish metodlari, o'quvchilarning o'quv- biluv faoliyati, ta'lim natijalari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish; -bu jarayonlarning barcha tomonini puxta o'rganish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. O'zining muammolarini hal etishda metodika psixologiya faniga yondashadi. O'quvchilarda musiqani tinglash, uni idrok etilish malakalarini rivojlantirish, ijodiy, musiqiy qobiliyatlarining o'sish darajasi, bola ruhiyati qonuniyatlarini bilishda psixologiya fanining ahamiyati nihoyatda katta. Bola psixologiyasi qonuniyatlarini bilmay turib, uning musiqani idrok etish qobiliyatining rivojlanishini, ijodiy, musiqiy qiziqishi va ehtiyojlarini anglab bo'lmaydi. Shuningdek, metodika o'quvchilarga u yoki bu musiqiy materialning hajmi, metodlaridan foydalanish samaradorligi masalalarini psixologiya fani bilan bog'liq holda hal etadi. Musiqashunos olimlarning ta'kidlashicha, musiqa psixologiyasi insonning musiqaviy tinglash qobiliyati, eshitish sezgisining chegaralari, musiqaning lad, ritmini emotsional his qilishi, musiqani anglashi, xotirada saqlashi, ijro etishi hamda undan bahramand bo'lishi kabi masalalar doirasini qamrab oladi. Musiqa ta'lim-tarbiyasida bolalar fiziologiyasi fani ham o'zining o'rniga ega. O'quvchilarda ijrochilik faoliyatini amalga oshirish, kuylash malakalarini shakllantirishda ovoz apparatining o'rnini, tuzilishi, funksiyasi hamda o'ziga xos rivojlanish jihatlarni o'rganishda metodika fiziologiya fani sohasining tadqiqotlariga asoslanadi. Musiqa bilan shug'ullanish - murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblangani bois, musiqa madaniyati darslari vokal-xor ishlari, o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda ta'limning eng faol va qulay shakli sanaladi. Musiqani tinglashda o'quvchining diqqate'tibori kuchayadi, qiziqish va xotirasi, nutqi rivojlanib, dunyoqarashi kengayib boradi, faolligi oshib yoqtirgan musiqalarini tinglashda zavqlanish, hayratlanish tuyg'ulari paydo bo'ladi. 13 Xullas, maktabda musiqani o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimida o'ziga xos o'rin va ahamiyatga ega. Musiqa ta'limi yangilanish yo'liga kirayotgan ekan, jamiyatda bu fanning o'rnini, mazmun-mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati yanada oshib borishi, tabiiydir.

4. Musiqa o'qitish metodikasi mazmuni va fanning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar Musiqa madaniyatini o'qitish metodikasi fanining maqsadi talablarini umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musiqa madaniyati" fanini Davlat ta'lim standarti, Milliy o'quv dasturi asosida tashkil etish va o'qitish, pedagogika, psixologiya hamda musiqa ta'limiga oid maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirgan holda ta'limtarbiya jarayoniga tatbiq etishni o'rgatish, amalga oshirish yo'llarini tushuntirish, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini metodikaga oid mukammal bilim, ko'nikma va malakalar bilan ta'minlashdan iborat. Musiqa o'qitish metodikasi fanidan talabalar ta'lim tamoyillari va mazmuni, shakli, metodlari, "Milliy o'quv dasturi" tuzilishi, mazmunmohiyati, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini oshirish maqsadida metodik adabiyotlarni o'rganish hamda tahlil qilish, musiqa xonalarining jihozlanishi va boshqa masalalar bilan tanishadilar. Vazifalari: -pedagogik-psixologik, musiqiy metodik bilimlarni o'quvchilarning umummusiqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga tatbiq etish; -talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limi fanining maqsadi hamda vazifalari, o'quv rejasida tutgan o'rnini bilan tanishtirish; - pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita musiqa ta'limi sohasiga oid ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish yo'llarini o'rgatish; - maktabda musiqa ta'limini o'qitishni tashkil etish hamda uni samarali amalga oshirish metodikasini o'rgatish; -musiqa ta'limida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar, o'qitish metodlari, shakllari va usullari bilan tanishtirish; -musiqa madaniyati darslarini tashkil

qilishni rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqishni va tahlil qilishni o'rgatishdan iborat. Dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi zero, unda bolalar ommaviy tarzda qamrab olinadi. Musiqa darslari boshqa fanlardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarda ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular, obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning axloqiy va intellektual rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadigan badiiy vosita. Zero, musiqa tarbiyasiz bolalarga aqliy tarbiyani musiqiy tarbiyasiz yetarli darajada amalga oshirib bo'lmazligi ham ayni haqiqatdir. Shuning uchun musiqa eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning umumlashgan mantiqiy mazmunidir. Musiqa darsi o'zining shakl va mazmuni, tuzilmasi bilan ham o'ziga xoslikni namoyon etadi. Musiqa ifodaviylik vositasi va faol ruhiy ta'siri bilan ajralib turadi. Shunday ekan, musiqa ta'lim-tarbiyasi – yosh avlod ma'naviy dunyoqarashining shakllanishida muhim vosita bo'lishi, shubhasiz. Musiqa madaniyati ta'limida alohida emotsional muhit, ruhiy holat va shart–sharoit xarakterlidir. Chunki, musiqa bola ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, muayyan kayfiyat paydo qiladi. Shakllangan musiqiybadiiy taassurotlar nafaqat o'qituvchi ta'siri va ijrosida, balki badiiy so'z san'ati, chehra ifodasi, turli musiqiy ifodaviy harakatlar yordamida yanada mustahkamlanadi. O'quvchilar diqqat-e'tibori yangrayotgan musiqaga jalb etiladi. ular musiqiy obrazlar yordamida musiqadagi badiiylik, ifodalilikni aniq his etishlariga erishiladi. Umumiy jihatlariga qaramay har bir dars ijodiy jarayon bo'lib, o'ziga xos tomonlari bilan ham farq qiladi. Ma'lumki, har bir ishni puxta o'ylab to'g'ri tashkil etilishi uning yutug'ini ta'minlaydi. Musiqa madaniyati dars loyihasida barchasi o'ylangan bo'lishi kerakmaqсад va vazifalar, mazmun, tuzilma, vosita hamda metodlar. Bu esa ta'limda ijobiy natijani ta'minlovchi omildir.

5.Darsni loyihalashtirish, unga tayyorgarlik o'qituvchining pedagogik malakasi, mahorati, kompetentligiga bog'liq. Ushbu jihatlar musiqa materialining tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tatbiq etish yo'llarini ta'minlaydi. Musiqiy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish-asarni chuqur o'rganishni talab etadi. Musiqiy asarlarni to'g'ri tanlab olish esa o'quvchilar musiqiy tayyorgarligi, qiziqishi, musiqiy ehtiyojlari hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Dars mazmunida turli xil tabiatdagi, kayfiyatdagi musiqa asarlari bo'ladi. Ularning yaxlitligini ta'minlash uchun dars tuzilmasini aniqlab olish zarur. Bunda turli musiqiy faoliyatlarning mazmunmohiyatiga ko'ra birin-ketinligiga va o'zaro bog'liqligiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Darsning emotsional tuzilmasini o'ylab o'qituvchi bir asardan boshqasiga o'tish jarayoniga o'quvchilardagi muhim ruhiy-hissiy holati, kayfiyatini saqlab qolishi va ularning diqqatini jalb etishda samarali usullarni tatbiq etishi lozim. Shuningdek, dars tuzilmasini tuzishda bolalar jismoniy, aqliy va emotsional holatlarini, har bir sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olishi maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olishmaydi. Ularning musiqiy faoliyatini o'z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Murakkab qo'shiqni, raqs harakatlarini bir necha dars davomida o'rgatish ma'qul. Murakkab musiqiy–ritmik harakatlar mashqlaridan so'ng qo'shiq kuylashga o'tish ham o'quvchilarga qiyinchilikni shakllantiradi. Shuningdek, o'quv jadvalida musiqa mashg'ulotining o'rni, ya'ni o'sha kunda bu mashg'ulot nechanchi soatda o'tilishini ham ahamiyati bor. Agar musiqa madaniyati mashg'ulotlari texnologiya ta'limi yoki jismoniy tarbiya darslaridan keyin o'tiladigan bo'lsa, o'quvchilarni fikrlashga, idrok etishga undovchi faoliyatlardan boshlash maqsadga muvofiq. Dars jadvalining so'nggi soatlarida o'quvchilarning charchab qolish holatlari kuzatilishi mumkin. O'qituvchi ushbu holatni ham inobatga olib, o'quvchilarni tetiklovchi hamda qiziqishni uyg'otuvchi metodlaridan samarali foydalanish tavsiya qilinadi. Har bir muayyan holatda o'qituvchi sinf o'quvchilarining u yoki bu musiqiy faoliyatga qiziqishlarini, ularning tayyorgarlik darajalarini muntazam hisobga olishi maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, to'liq shart-sharoitlar hisobga olingan dars tuzilmasini amalga oshirish uchun o'qituvchining ijodiy yondashuvi talab etiladi. Bu esa har bir darsning qiziqarli va esda qolarli bo'lishiga yordam beradi. Musiqa madaniyati darslarining haftada bir

marotaba o‘tilishi va bu davrda boshqa fanlar o‘tilib, o‘quvchilarning musiqiy taassurotlari unutilishi yoki sayozlashishi mumkin. O‘qituvchi musiqi darslarida yaxlit musiqiy taassurotlar va qiziqishlarni o‘quvchilar hafta davomida saqlab qolishlariga erishmog‘i kerak. Tajribali o‘qituvchilar yaxlit dars tuzilmasiga alohida ahamiyat berishadi. Zero, mashg‘ulotning turli elementlari, bosqichlari o‘zaro uyg‘un va bir-biri bilan bog‘liq bo‘ladi. Turli metodlar (asarni taqqoslash, muammoli izlanish, o‘yin holatlari) asosida o‘qituvchi bolalarni ijodiy topshiriqlar orqali faolligini oshiradi va kutilgan natijalarga erishishlariga harakat qiladi. Ma‘lumki, zamonaviy musiqi madaniyati darslarining sifati o‘quvchilar faolligi bilan belgilanadi. Faollik muammosi nafaqat darsning metodik tuzilmasi, bolalarga qiziqishni shakllantiruvchi metodlarni qo‘llash orqali hal etiladi. Ta‘limiy samara ko‘pincha o‘qituvchining har bir o‘quvchiga yakka-individual yondashuviga ham bog‘liq bo‘ladiki, bu shubhasiz o‘qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biridir. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan hammasi bo‘lib haftasida dars davomida faqat bir marotaba uchrashadi, muloqotda bo‘lsa-da, ammo sinf o‘quvchilari bilan keng ko‘lamda musiqiy–ma‘rifiy ishlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezadi. Shu bois, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini yaxshi bilmog‘i, ularning imkoniyatlari, sharoiti, qiziqish va musiqiy ehtiyojlarini to‘g‘ri anglab, faoliyatlarni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishi lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. Maktabda musiqi o‘qitish metodikasining fan sifatidagi ahamiyatini izohlang.
2. Maktabda musiqi tarbiyasi atamasining mazmuni nimadan iborat?
3. Musiqi o‘qitish metodikasi qaysi fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanadi?
4. Musiqi o‘qitish metodikasining mazmuni, maqsad va vazifalarini ta‘riflang.
5. Musiqi o‘qitish metodikasining pedagogik metodlariga tayanishini qanday tushunasiz?

17 Mavzu: O‘quv-uslubiy faoliyatini tartibga solishda me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning tutgan o‘rni. 2 soat

Reja:

1. Ta‘lim mazmunini belgilovchi me‘yoriy hujjatlar.
2. Davlat ta‘lim standartining maqsadi.
3. Davlat ta‘lim standartining tarkibiy qismlari.
4. Ta‘lim mazmunini belgilab beruvchi me‘yoriy hujjatlar
5. Tayanch o‘quv rejasi.
6. O‘quv dasturi.
7. O‘quv-metodik majmua.

Ta‘lim mazmunini belgilovchi me‘yoriy hujjatlar. Ta‘lim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy me‘yoriy hujjat Davlat ta‘lim standartidir. O‘quv reja, o‘quv dasturi, malaka talablari umimg tarkibiy qismiga kiradi.

«Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «me‘yor», «namuna», «andoza», «model» ma‘nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta‘lim muassasalarida ta‘limning barqarorlik darajasini ta‘minlashga erishiladi, o‘quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o‘quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat ta‘lim standartining maqsadi – umumiy o‘rta ta‘lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or

tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat ta'lim standarti quyidagi **tarkibiy qismlardan** iborat:

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;

umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;

umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;

baholash tizimi.

Umumiy o'rta ta'limning **tayanch o'quv rejasi** umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy me'yoriy hujjat Davlat ta'lim standartidir. O'quv reja, o'quv

dasturi, malaka talablari uning tarkibiy qismiga kiradi. “Standart” ingliz tilidan tarjima qilinganda “me’yor”, “namuna”, “andoza”, “model” ma’nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta’lim muassasalarida ta’limning barqarorlik darajasini ta’minlashga erishiladi, o’quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o’quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat ta’lim standartining maqsadi - ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Davlat ta’lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

- oliy ta’lim mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o’quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- o’quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o’rta ta’lim muassasalarining o’quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo’yiladigan talablarni belgilash;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;
- ta’lim va uning pirovard natijalari, o’quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo’yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.
- Davlat ta’lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi: o’quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;
- umumiy o’rta ta’lim mazmunining insonparvarligi; davlat ta’lim standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;
- umumiy o’rta ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi;
- oliy ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
- umumiy o’rta ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;
- o’quvchilarda fanlarni o’rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta’minlanganligi;
- rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat ta’lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: umumiy o’rta ta’limning tayanch o’quv rejasi; umumiy o’rta ta’limning o’quv dasturi; umumiy o’rta ta’limning malaka talablari; baholash tizimi.

Umumiy o’rta ta’limning tayanch o’quv rejasi umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’qitiladigan o’quv fanlari nomi, o’quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo’yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi. Tayanch o’quv reja umumiy o’rta ta’lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi. Tayanch o’quv reja umumta’lim fanlari bo’yicha belgilangan ta’limmazmunini o’quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o’quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi etarli bo’lgan umumiy o’rta ta’lim muassasalarida Qoraqalpog’iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy

o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi. Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat. Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari quyidagilardan tashkil topadi: bilim - o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma - o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati. Baholash tizimi - davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari asosida o'quv materiallari o'quv-metodik majmuada o'z ifodasini topadi. **O'quv-metodik majmua** - darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik - davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri. Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi: **motivatsion vazifa** - bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat; **axborot vazifasi** o'quvchilarga axborotlarni etkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi; **nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi** - ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi. **muvoqilashtirish vazifasi** material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat; **o'qitish vazifasi** darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konspekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi. Mashq daftari - darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita. O'qituvchi uchun metodik qo'llanma - darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan

foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri. Darsliklarning multimediali ilovalari - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritilgan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi. O'quv-metodik majmualar davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va darslikning multimediali ilovalarini o'z ichiga oladi.

Nzorot savollari

1. Ta'lim mazmuni deb nimaga aytiladi?
2. Ta'lim mazmunini belgilashga doir qanday yondashuvlar mavjud?
3. Kompetentsiyaviy yondashuv deganda nima tushiniladi?
4. Ta'lim mazmunini loyihalash tamoyillariga izoh bering.
5. Ta'lim mazmunini loyihalashda qanday mezonlarga asoslanish lozim?
6. Davlat ta'lim standarti nima va u qanday komponentlardan iborat?
7. Tayanch o'quv rejasiga izoh bering.
8. O'quv dasturida qanday masalalar o'z aksini topadi?
9. O'quv-metodik majmua nima va u o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?

18 Mavzu: Kredit-modul tizimida talabalar bilimini baholash. 2 soat

Reja

6. 1. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari
7. 2. Kredit-modul tizimining paydo bo'lish tarixi
8. 3. O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida qo'llanishi
4. Kredit-modul tizimi avzalliklari.
5. Kredit-modul tizimida baholash tizimi amalga oshirish.
9. 6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2020 yildagi 824-son

Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash^[1].

10. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish;
- ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi^[1].

11. Paydo bo‘lish tarixi

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AqSh universitetlarida joriy etilgan bo‘lib, o‘quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta’limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot „kredit soati“ tushunchasini iste’molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 – 1880-yillarda kredit soatlari bilan o‘lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o‘qish va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish talabalarga o‘quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Kredit to‘plash o‘lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo‘lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog‘da, baholash tizimi va ta’lim texnologiyalarining takomillashtirishiga ham olib keldi.

Bolonya deklaratsiyasida ko‘zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta’limga urg‘u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

birinchisi, talabalar va o‘qituvchilarning mobilligini, ya’ni bir oliy ta’lim muassasasidan boshqa OTMga to‘siqlarsiz, erkin ravishda o‘tishini (o‘qishni yoki ishni ko‘chirish)ni ta’minlaydi;

ikkinchisi, talabaning tanlagan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha barcha o‘quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama – kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig‘indisi talabaning tanlagan dasturi bo‘yicha nimani qancha o‘zlashtirganligini namoyon etadi^[1].

12. O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida qo‘llanishi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2020-yil 31-dekabrda „Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi qarori asosida „Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida“ NIZOM tasdiqlangan. Mazkur Nizomda esa kredit-modul tizimiga oid asosiy tushunchalar berib o‘tilgan. Unga ko‘ra:

GPA (Grade Point Average) – ta’lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

GPA = K1U1+K2U2+K3U3...+KnUn : K1+K2+K3...+Kn ga tengdir.

Bunda:

K – har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan/modul bo‘yicha talaba to‘plagan baho;

Kredit – ta’lim olish natijalariga ko’ra talaba tomonidan muayyan fan bo’yicha o’zlashtirilgan o’quv yuklamasining o’lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

Kredit to’plash – ta’lim elementlarini o’zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to’plash;

Talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to’plash va xohlagan kompetensiyalar yig’indisiga ega bo’lish imkoniyatini beradigan yo’nalish (marshrut).

O’qish yuklamasi – talaba tomonidan o’quv faoliyatining barcha turlari – ma’ruza, amaliy mashg’ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o’quv natijalariga erishish uchun zarur bo’lgan soatlar hajmi^[2].

Rivojlanayotgan O’zbekiston dunyo nigoxida kelajagi porloq mamlakat sifatida ko’zga tashlanmokda. Xozirgi davrda mamlakatda turli soxalarda, jumladan oliy ta’lim tizimida xam, mamlakatning kelajagi uchun mustaxkam poydevor qurish va rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishish uchun ko’plab isloxotlar va ishlar amalga oshirilmokda. Kelajak avlodning bilimli va barkamol bo’lib yetishishi, ularga berilayotgan imkoniyatlarning dunyo bo’ylab keng qamrovli bo’lishini ta’minlash maqsadida mamlakat ta’lim tizimiga yangi ta’lim texnologiyalari, xorij tajribalari joriy etilmoqda va mos tarzda o’zgarishlar amalga oshirib kelinmokda. Jumladan, 1999 yil iyun oyida Italiyaning Bolonya shaxrida dunyoning 29 ta mamlakati o’rtasida imzolangan, ayni paytda dunyoning 48 ta mamlakati ishtirokchisiga aylangan **Bolonya deklaratsi-yasiga** O’zbekistonning qo’shilishi va ta’lim tizimiga kredit-modul tizimini joriy etish bora-sida ishlarning boshlab yuborilishi mamlakat oliy ta’lim tizimida zamonaviy o’zgarishlar davrini boshlab berdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Xarakteristikalar strategiyasi to’g’risida"gi PF-4947-sonli Farmoniga ko’ra 2017-2021 yillarda oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida O’zbekistonning **Bolonya deklaratsiyasiga qo’shilishiga** shart-sharoitlar yaratiladi va oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etiladi.

Kredit-modul tizimi bizning ta’lim tizimimiz uchun o’qitishning yangi tizimi bo’lib, bu borada yetarlicha tajriba ega emasmiz. Shu sababli mamlakatimizning yetakchi olimlari va mutaxassisleri tomonidan xorij mamlakatlarining, ko’proq, e’tibor yevropa mamlakatlariga qaratilgan, tajribalari o’rganilib, bizning milliy mentalitetimizga xos bo’lgan, shu bilan birga dunyo mamlakatlari xam tan oladigan yangi o’qitish tizimini yaratish borasida ishlar olib borilmokda.

Ayni damda mamlakatning oliy ta’lim tizimidagi yetakchi 33 ta oliy o’quv yurtlarida, jumladan Toshkent irrigatsiya va qishloq, xo’jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti (TIK.XMMI) va uning joylardagi filiallarida xam, o’qitishning kredit-modul tizimiga o’tish borasida ishlar olib borilmokda. TIKXMMI Karshi filialida 1 -kurs talabalarini o’qitish jarayoni kredit-modul tizimida tashkil etilgan bo’lib, dars mashg’ulotlari xaftasiga 26 soatdan oshmagan miqdorda olib borilmokda. Shuningdek bir o’quv yili 3 semestrda, ya’ni tristrdan iborat bo’lib, xar bir semestr 10 xaftani tashkil etadi. Bir semestrda 4-5 ta fan-dan dars mashg’ulotlari o’tilishi rejalashtirilgan. Xaftada 5 kun dars mashg’uloti o’tkaziladi, shanba kuni esa talabalarning mustaqil ish bilan shug’ullanishi uchun ajratilgan va shu kuni darslar o’tilmaydi.

Kredit-modul tizimi uchun zarur bo’ladigan barcha me’yoriy xujjatlar, jumladan fanlarning o’quv dasturi va fanlar buyicha sillabuslari ishlab chikilib, xar bir fan uchun kredit-

soatlar miqdori belgilab berilgan. Talabalarning mustaqil ishlarni bajarishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Biz uchun yangilik bo'lgan kredit-modul tizimi, uning mazmun-moxiyati, tizimda qullaniladigan atamalar va tushunchalar xamda ularning mazmuni, tizimda o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar bilimni baxolash masalalarini o'rganish va ularning moxiyatini yoritib berish borasida olimlarimiz va yetakchi mutaxassislar tomonidan qo'llanmalar, maqolalar chop etilmokda. Jumladan, 2020 yilda B.Sh.Usmonov, R.A.Xabibullaevlar tomonidan "Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish" nomli o'quv qo'llanma chop etilgan bo'lib, unda kredit-modul tizimi xaqida batafsil ma'lumotlar berilgan. O'quv qo'llanmada kredit-modul tizimida talabalar bilimni baxolash tartibi va uning o'ziga xosligi bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qaroriga asosan qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"da quyidagicha ko'rsatib o'tilgan: "Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar xajmi o'k,uv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarni o'z ichiga oladi".

Mamlakatimizning yetakchi universitetlaridan biri bo'lgan Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida qabul kilingan "Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallarida ta'limning kredit tizimi to'g'risida Nizom"da fan dasturida (sillabusda) belgilangan baxolash tartibi xamda tegishli ilovada keltirilgan ijobiy baxolar doirasida baxolangan ta'lim oluvchilarga sinov birliklari berilishi, talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, sinov birliklari berilmasligi ta'kidlab o'tilgan. Nizomda "Baxolash usullari fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, og'zaki, amaliy ish, loyixa, portfolio va nazoratlar kabi turlarni o'z ichiga qamrab oladi. Baxolash mezoni ta'lim olish natijasiga erishilganligini aks ettirishi shart" deb kursatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qaroriga asosan qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi tug'risida Nizom"da shunday deyilgan: "Kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25-30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda - 40-50% auditoriya soati, 50-60% mustaqil ish soatiga, magistraturada - 30-40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo'linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o'quv yuklamasi miqdori oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim muassasasi veb-saxifasida shaffof tarzda joylashtiriladi".

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son Qaroriga asosan qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi tug'risida Nizom" (15-bandi, 3-abzats).

2. Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallarida ta'limning kredit tizimi tug'risida Nizom. - Toshkent, TATU, 2018.

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qaroriga asosan qabul qilingan xujjat.

Yuqorida aytib o'tilgan o'quv qo'llanmada xam, Nizomlarda xam talaba fan bo'yicha bir kreditni qanday qilib to'plash tartibi, aniq yo'l-yo'rig'i ko'rsatilmagan.

Ushbu maqolada kredit-model tizimida talabalar bilimini baxolash, uning axamiyati, baxolash jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jixatlar, baxolash jarayonining adolatli va shaffofligini ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek talabalarning fanlardan kreditlarni tuplash tartibi xakida muallifning takliflari keltirilgan.

O'zbekistonda kredit ta'lim tizimiga asos-langani milliy modelni ishlab chiqishda, yevropa ECTS krediti va Amerika kredit soatlari tizimlarining yutuqlarini inobatga olgan xolda yuqori ta'lim sifatini va dunyo ta'lim jara-yonlariga integratsiyalashish uchun ishonchli asosni tanlash maqsadga muvofikdir. Kredit-modul tizimini amalga oshirish sermashakkatli va murakkab tizimdir. Kredit-modul tizimida axamiyat beriladigan asosiy masalalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash va imkoniyatlar yaratib berish;
- talabalar bilimini kredit-modul tizimiga mos reyting asosida baxolash.
- o'qitishning modulli texnologiyasini ishlab chikish va takomillashtirish;
- talabalarning o'z ustida mustaqil ishlashini ta'minlash uchun fanning metodik ta'minotini yanada takomillashtirish.

Kredit-modul tizimining axamiyatga molik tomonlaridan biri talabalar bilimini baxolashda kredit-soatlardan foydalanilishidir.

Credit, Credit-hour (kredit, kredit-soat) - o'quv ishlari xajmini o'lchashning yagonalashtirilgan birligi. Bir kredit bir semestr davomida xar xaftada o'tiladigan bir akademik soatni va uni o'zlashtirish uchun belgilangan mustaqil ta'lim soatlarini o'z ichiga oladi.

"Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi tug'risida Nizom" (15-bandi, 2-abzats).

Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.

Qarshi filiali "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti _____ ta'lim yo'nalishi

_____guruh, talabasi _____ning «_____» fanidan kredit yg'ish kundalik-yo'l xaritasi

Ma'ruza 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 ON 11 12 13 14 15 16 17 18 19 20 ON

Talabaning o'zlashtirganligi xaqida ma'lumot

O'kituvchining imzosi

Amaliy mashg'ulot 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

Talabaning o'zlashtirganligi xaqida ma'lumot

O'qituvchining imzosi

Mustaqil ta'lim 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15

Talabaning o'zlashtirganligi xhaqida ma'lumot

O'qituvchining imzosi

Kreditlar soni (jami 4 kredit) Kredit to'plash uchun bajariladigan topshiriqlar soni va turi
To'plagan kredit miqdori O'qituvchining imzosi

1-chi kredit Talaba 1,2,3,4,5-ma'ruzalar, 1,2,3-amaliy mashg'ulot, 15 soat mustakil ta'limni
tuliq, o'zlashtirsa

2-chi kredit Talaba 6,7,8,9,10-ma'ruzalar, 4,5-amaliy mashg'ulot, 15 soat mustakil ta'limni
to'liq, o'zlashtirsa va 1-ON topshirsa

3-chi kredit Talaba 11,12,13,14,15-ma'ruzalar, 6,7,8-amaliy mashg'ulot, 15 soat mustaqil
ta'limni tuliq o'zlashtirsa

4-chi kredit Talaba 16,17,18,19,20-ma'ruzalar, 9,10-amaliy mashg'ulot, 15 soat mustaqil
ta'limni tuliq o'zlashtirsa, 2-ON va YaN topshirsa

Talaba: _____

imzo F.I.Sh

Fan ukituvchisi: _____

imzo F.I.Sh

Dekanat vakili: _____

Imzo F.I.Sh

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, mamlakatimizning oliy o'quv yurtlarida joriy etilayotgan ECTS tizimida 1 kredit-soat = 30 soat deb olinadi. Demak talaba ushbu 1 kredit-soatni to'plashi uchun umumiy xajmi 30 akademik soatlik o'quv yukla-masini bajarishi talab etiladi. Bunda shu narsaga aloxida e'tibor qaratish lozimki, bu yuklamaning kamida 50% - 60% miqdorini mustaqil ish soati tashkil etadi. Masalan, 30 soat = 14 soat auditoriya mashg'uloti + 16 soat mustaqil ish deb olsak, u xolda talaba 14 soat auditoriya mashg'uloti (misol uchun, 6 soat ma'ruza, 4 soat amaliy mashg'ulot, 4 soat laboratoriya mashg'uloti)

1 Ushbu kundalik - yo'l xarita muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

o'zlashtirishi va qo'shimcha tarzda xajmi 16 soatlik bo'lgan mustaqil ish topshiriqlarini bajarishi lozim bo'ladi.

Talabaning qo'lida xar bir fandan kreditlarni to'plash tartibi va qancha kredit tuplaganligini doimiy tarzda ko'rsatib turuvchi, uning fanlardan to'plagan kreditlari miqdori aks etuvchi xujjat bo'lishi kerak. Bu xujjatni kundalik- yo'l xaritasi deb atashni taklif etaman. Ana shunday kundalik-yo'l xaritasining taklif etilayotgan namunasi keltirilgan. Kundalik-yo'l xaritasi talabaning imzosi, fan o'qituvchisi va fakultet dekanati vakili imzosi va muxr bilan tasdiklanadi.

1-jadval. Bax,olarni konvertatsiya kilish jadvali (5 balli tizimdan foizga)

5 balli 100% shkala 5 balli 100% shkala 5 balli 100% shkala

5,00 - 4,96 100 4,30 - 4,26 86 3,60 - 3,56 72

4,95 - 4,91 99 4,25 - 4,21 85 3,55 - 3,51 71

4,90 - 4,86 98 4,20 - 4,16 84 3,50 - 3,46 70

4,85 - 4,81 97 4,15 - 4,11 83 3,45 - 3,41 69

4,80 - 4,76 96 4,10 - 4,06 82 3,40 - 3,36 68

4,75 - 4,71 95 4,05 - 4,01 81 3,35 - 3,31 67

4,70 - 4,66 94 4,00 - 3,96 80 3,30 - 3,26 66
4,65 - 4,61 93 3,95 - 3,91 79 3,25 - 3,21 65
4,60 - 4,56 92 3,90 - 3,86 78 3,20 - 3,16 64
4,55 - 4,51 91 3,85 - 3,81 77 3,15 - 3,11 63
4,50 - 4,46 90 3,80 - 3,76 76 3,10 - 3,06 62
4,45 - 4,41 89 3,75 - 3,71 75 3,05 - 3,01 61
4,40 - 4,36 88 3,70 - 3,66 74 3,00 60
4,35 - 4,36 87 3,65 - 3,61 73 3,00 dan kam 60 dan kam

jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qitiladigan "Metrologiya va standartlashtirish" fani uchun ishlab chiqilgan bo'lib, kredit-modul tizimida fanga ajratilgan o'quv soatlari miqdori quyidagicha belgilangan: auditoriya soatlari miqdori 60 soat (ma'-ruza - 40 soat, amaliy mashg'ulot - 20 soat)ni tashkil etadi va talabning mustaqil ishi uchun 60 soat ajratilgan. Kredit-soat birligi - 4 kredit. Demak, talaba kursni o'zlashtirish uchun 4 kredit to'plashi lozim. Agar talabning qo'lida ushbu fandan tavsiya etilayotgan kundalik-yo'l xaritasi bo'lsa, u fandan kaysi mavzuni yoki topshiriqni bajarsa qancha kredit to'play olishini ochiq-oydin ko'rib turadi va shunga qarab o'z faoliyatini rejalashtiradi.

Kundalik-yo'l xaritaning mohiyati shundan iboratki, talaba o'zining bajargan ishi xaqida ochiq-oydin ma'lumotga ega bo'ladi va o'z faoliyatini shunga qarab rejalashtirib boradi. O'qituvchi tomonidan esa kundalik-yo'l xarita-sining tegishli katakchasiga talabning mavzuni o'zlashtirish darajasiga qarab tegishli baxolar (5 balli tizimda) quyiladi. Bu baxolar esa o'z navbatida gurux jurnaliga xam qayd etib borilishi mumkin. Talaba barcha mavzularni o'zlashtirib, topshiriqlarni bajarib, ONlarni muvaffaqiyatli topshirgach Ya'Nga kiritiladi. Bunda talaba barcha topshiriqlarning kamida 90%ini bajarishga erishishi talab etiladi. Ya'N baxosini qo'yishda o'qituvchi yoki komissiya a'zolari talabning qilgan mexnatini e'tiborga olgan xolda baxolashni amalga oshirishi tavsiya etiladi. Bunda kundalik - yo'l xaritaga asoslanishlari mumkin.

Talabalarning bilimini 5 balli tizimda baxolashning afzalligi shundan iboratki, talabning fanlardan olgan baxosini 100 ballik tizimga yoki boshqa mamlakatlarning baxolash tizimlariga konvertatsiya qilishda qulaylik yaratiladi. Masalan, talaba bir fanni o'zlashtirish jarayonida dars mashg'ulotlari (ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, oraliq, va yakuniy nazoratlar)da 19 ta "3" baxo, 12 ta "4" baxo va 10 ta "5" baxo olgan bo'lsin. Bu baxolarning o'rtacha arifmetik qiymati (UAK)ni xisoblaymiz:

$$UAK = (19 \cdot 3 + 12 \cdot 4 + 10 \cdot 5) / 41 = 155 / 41 = 3,78$$

Bu qiymatni 100% lik shkalaga konvertatsiya qiladigan bo'lsak, u 3,76 - 3,80 intervalda yotadi va 76 ballga tug'ri keladi (1-jadvalga karang). yevropa mamlakatlari kreditlarini ko'chirib o'tish va to'plash tizimida 3,78 ball "S" darajaga, AKSh baxolash tizimi (A-F) da "B" darajaga teng kuchlidir.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'pgina o'qituvchilar talabning mustaqil ishi deganda referat, konspekt yoki boshqa bir xujjat ko'rinishidagi narsalarga ko'proq e'ti-bor qaratishadi. Talabning mustaqil ishini baxolash va xisobga olishda uning ma'ruza mavzusiga va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rinishini, laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun tayyorgarlik ishlarini xam inobatga olish va shundan kelib chiqqan xolda talabaga mustaqil tarzda yozib keladigan referat mavzularini berishi lozim, bunda albatta ish xajmining xaddan tashqari oshib ketishiga yo'l qo'yimaslik lozim. Chunki talabaga faqat yozibchizib

keladigan mustaqil ishlar ko'plab beriladigan bo'lsa, unda jismoniy va aqliy zo'riqishlarni kelti-rib chiqarishi mumkin. Oddiy xisob-kitob ishlarini o'tkazaylik. Talaba bir semestrda 5 ta fan o'qiydi. Xar bir fandan mustaqil ish uchun ajra-tilgan soat miqdorini o'rtacha 90 soat deb olsak, talaba $5 \cdot 90 = 450$ soat xajmdagi topshiriklarni bajarishi kerak. Agar fan o'qituvchisi xar bir referatni 6 soat miqdorda belgilab, talabalarga referat yozib kelish topshiririni bersa, ular 15 ta referat yozishi kerak bo'ladi. Xar bir referatni o'rtacha 15 betdan iborat desak, 225 betlik ma'lumot yozishi kerak. 225 betni fanlar soni 5 ga ko'paytirsak, 1225 bet ma'lumot yozishi kerak bo'ladi! Bu bir semestrda!

Faqat yozish-chizish bilan shug'ullanish talabalarning erkin ijodiy fikrlashiga, o'z toyalarini ifodalashiga to'sqinliklarni keltirib chikaradi, xamda ularning vaqt potensialidan samarali foydalanishini cheklab qo'yadi. Shuning uchun fanlardan talabalarning bajaradigan yozma shakldagi mustaqil ishlari soni va xajmi kafedra yig'ilishida va fakultet o'quv-uslubiy kengashlarida ko'rib chiqilishi lozim deb xisoblanadi.

An'anaviy ta'limga nisbatan kredit-modul tizimida talabaning mustaqil ishlariga aloxida e'tibor qaratiladi va uning bajarilishi shakli keng qamrovlidir.

Talabaning bajaradigan mustaqil ishlari quyidagi guruxlarga ajratilishi mumkin:

- talabaning bevosita o'zi mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari (darsga tayyorlanish, axborot izlash, FAQ (kup suraladigan savollar), forum, test yechish, nazorat ishiga tayyorlanish);
- an'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi (masala yechish, referat tayyorlash, kollokvium, esse, taqdimot, keys-stadi, kurs ishi, kurs loyixasi, xisob-grafik ishlari va boshqalar);
- elektron shakldagi o'kituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.

Talabalarga mustaqil ishlarni bajartirishda motivatsiya muxim o'rin tutadi. Bunda o'qituvchi talabani rag'batlantirgan va qiziqtirgan xolda topshiriqlarni bajarishga yo'naltirishi, ularda innovatsion Foyalarni shakllantira olishi kerak. Demak, kredit-modul tizimida xam o'qituvchining talabani tug'ri yo'naltira olishi va rag'batlantirishi muxim axamiyatga ega.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kredit-modul tizimi joriy etilayotgan OTMlarda talabalarning fanlardan belgilangan kreditlarni yirish bosqichlarini o'zida aks ettiradigan va talabalarning mustaqil ta'lim olishlarida ularning faolligini ta'minlaydigan mukammal xarakat mexanizmi to'lik shakllantirilmagan.

Shuningdek ko'pchilik talabalar fanlar bo'yicha belgilangan kreditlarni qanday tar-tibda tuplash, bunda nimalarga e'tibor berish lozimpligi va uzlarining majburiyatlari, zimmasidagi mas'uliyat xaqida yetarlicha tushunchalarga to'liq ega emaslar.

Ushbu xulosalardan kelib chiqqan xolda quyidagi takliflarni berishni lozim:

1. Xar bir fanning xususiyatidan kelib chiqqan xolda talabalarning belgilangan kreditlarni to'plash tartibi aniq ishlab chiqilishi lozim;
2. Xar bir talaba uzining o'qish jarayonidagi xolati va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini doimiy tarzda bilib turishini, ya'ni ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash. Buning uchun yuqorida tavsiya etilgan kundalik-yo'l xaritudan foydalanishni tavsiya etiladi;
3. Kredit-modul tizimida fanga ajratilgan o'quv soatlarining kamida 50-60% qismi talabaning mustaqil ta'lim olishiga ajratilganligini e'tiborga olib, talabalarning mustakil ta'lim olishga intilishini va mustaqil xarakatini kuchaytiruvchi mexanizmi yaratish va amalga joriy etish lozim;

4. Dars mashg'ulotlarida talaba bilimiga qo'yilgan baxolarni konvertatsiya qilishda muammolar kelib chiqmasligini e'tiborga olgan baxolash tizimini optimallashtirish lozim.
5. Xar bir fanning sillabusida talabalarning 1 kredit-soatni to'plashi uchun bajaradigan topshiriklar turi va xajmi aniq ko'rsatilishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Kredit-modul tizimi nima uchun joriy etildi.
2. Kredit-modul tizimi qachon joriy etildi.
3. Kredit-modul tizimi avzalliklari qanday.
4. Kredit-modul tizimida baholash tizimi qanday amalga oshiriladi.
13. 9. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari
14. 10. Kredit-modul tizimining paydo bo'lish tarixi
15. 11. O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida qo'llanishi
16. 12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2020 yildagi 824-son

19 Mavzu: Professor-o'qituvchilarning vaqt me'yorlari. 2 soat

Reja:

1. Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi
2. Professor-o'qituvchilarning egallab turgan lavozimlari bo'yicha o'quv yuklamasi
3. Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari tomonidan yuritishi lozim bo'lgan meyoriy huququy xujjatlar.
4. Darslik va uning turlari.
5. O'quv – uslubiy majmua.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda ilmiy-uslubiy va "Ustoz-shogird" (Tyutorlik) ishlarini belgilash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i loyihasi joylashtirildi.

Hujjat bilan oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarini belgilash qoidalari tasdiqlanishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda ilmiy-uslubiy va "Ustoz-shogird" (Tyutorlik) ishlarini belgilash qoidalariga ko'ra, oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari tarkibi (bundan buyon matnda professor-o'qituvchilar deb yuritiladi) mehnatini normalashtirish har o'quv yili uchun professor-o'qituvchilar va kafedra mudiri tomonidan tuziladigan hamda prorektorlar bilan kelishilgan holda o'quv ishlari bo'yicha prorektor (fakultet dekani) tomonidan tasdiqlanadigan o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejalariga asoslanadi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasi tarkibiga o'quv yuklamasi hamda ilmiy-uslubiy va "Ustoz-shogird" (Tyutorlik) ishlarining turlari kiritiladi. Ish turlari professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejalarida to'liq va aniq aks ettirilishi kerak. Joriy o'quv yili yakunida faqat mazkur o'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar hisobga olinadi.

O'quv yili davomida bajarilgan qo'shimcha ish turlari professor-o'qituvchilarning yillik shaxsiy ish rejalariga kiritib borilishi mumkin.

Professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejasi tarkibiga kiritiladigan o'quv yuklamasi hamda ilmiy-uslubiy va "Ustoz-shogird" (Tyutorlik) ishlari:

to'liq shtatda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;

to'liq shtatda bo'lmagan va o'rindosh sifatida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun ularning stavkalariga muvofiq tarzda professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;

shuningdek, mehnatga haq to'lashning soatbay shartlari asosida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi ushbu Qoidalarga muvofiq shakllantiriladi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasining bajarilishi muntazam ravishda kafedra mudiri, har semestr yakunida fakultet dekani, dekan o'rinbosarlari, fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) va tegishli yo'nalishlar bo'yicha prorektorlar tomonidan nazorat qilib boriladi.

Professor-o'qituvchilarning (madaniyat va san'at yo'nalishlari o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etadigan konsertmeysterlarning) o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan, uning asosiy qismi bo'lgan o'quv yuklamasining soatlardagi hajmi nazarda tutilgan Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me'yorlarida belgilangan ish turlaridan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida hisoblanadi.

Professor-o'qituvchilarning egallab turgan lavozimlari bo'yicha o'quv yuklamasi hajmi fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv yuklamasi bo'yicha hisoblangan soatlar hajmi oliy ta'lim muassasasining shtat birliklari sonini hamda professor-o'qituvchilarning oylik maoshlarini belgilash uchun asos bo'lmaydi.

Shtat birliklari professor-o'qituvchilarning talabalar soniga nisbati bo'yicha, oylik maoshi esa xarajatlar smetasi bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Ijodiy ta'tillar berish tartibi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan normalarga muvofiq olib borilayotgan ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish maqsadida professor-o'qituvchilarning o'quv ishlari yuklamasi hajmi kafedra yig'ilishining qaroriga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Bunda professor-o'qituvchilarning tegishli o'quv yuklamasining muayyan qismi kafedraning boshqa professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasiga qo'shimcha ravishda taqsimlanadi.

Ma'ruza mashg'ulotlari ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladi. Zarur hollarda (ma'ruza mashg'ulotlari hajmi ko'p bo'lganda yoki professor, dotsent va katta o'qituvchilar yetarli bo'lmaganda) oliy ta'lim muassasasi Kengashining qaroriga asosan kamida 3 yillik ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lgan, biroq ilmiy unvon va ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga bir o'quv yilida 250 soatgacha hajmda ma'ruza mashg'ulotlarini o'tishga ruxsat beriladi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv (ma'ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmi 400 soatdan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi. Kafedraga sohaning yetakchi mutaxassislari (akademiklar va professorlar) jalb etilganda, ushbu o'quv soatlari hajmiga oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga muvofiq o'zgartirish kiritish mumkin.

OLIY TA'LIM MUASSASASI PROFESSOR-O'QITUVCHILAR TARKIBINING O'QUV YUKLAMASI HAMDA O'QUV-USLUBIY, ILMIY-TADQIQOT VA "USTOZ-SHOGIRD" ISHLARINI BELGILASH QOIDALARINI TASDIQLASH TO'G'RSIDA

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 8-oktabrda ro'yxatdan
o'tkazildi, ro'yxat raqami 3076]**

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga asosan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol

ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq, shuningdek professor-o'qituvchilar tarkibining shaxsiy ish rejasini tartibga solish va tizimlashtirish maqsadida buyuraman:

(27-band O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 44-2021-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3076-1, 22.12.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.12.2021-y., 10/21/3076-1/1181-son)

1. Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2015-yil 9-sentabrdagi 5-2015-son "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv, ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik, ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar yuklamasini aniqlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 2720, 2015-yil 19-oktabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 42-son, 540-modda) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir I. MADJIDOV

Toshkent sh.,
2018-yil 10-sentabr,
20-2018-son

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 10-sentabrdagi 20-2018-son buyrug'iga
ILOVA

Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash

QOIDALARI

Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash qoidalarini belgilaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Mazkur Qoidalar Toshkent davlat yuridik universiteti, oliy harbiy hamda harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari va O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini yuritayotgan xalqaro va xorijiy oliy ta'lim muassasalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(muqaddimaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 44-2021-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3076-1, 22.12.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.12.2021-y., 10/21/3076-1/1181-son)

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari tarkibi (bundan buyon matnda professor-o'qituvchilar deb yuritiladi) mehnatini normalashtirish har o'quv yili uchun professor-o'qituvchilar va kafedra mudiri tomonidan tuziladigan hamda prorektorlar bilan kelishilgan holda o'quv ishlari bo'yicha prorektor (fakultet dekani) tomonidan tasdiqlanadigan o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejalari asoslanadi.

2. Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasi tarkibiga o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarining turlari kiritiladi. Ish turlari professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejalarida to'liq va aniq aks ettirilishi kerak. Joriy o'quv yili yakunida faqat mazkur o'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar hisobga olinadi.

O'quv yili davomida bajarilgan qo'shimcha ish turlari professor-o'qituvchilarning yillik shaxsiy ish rejalariga kiritib borilishi mumkin.

3. Professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejasi tarkibiga kiritiladigan o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlari:

to'liq shtatda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;

to'liq shtatda bo'lmagan va o'rindosh sifatida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun ularning stavkalariga muvofiq tarzda professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;

shuningdek, mehnatga haq to'lashning soatbay shartlari asosida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi ushbu Qoidalarga muvofiq shakllantiriladi.

4. Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasining bajarilishi muntazam ravishda kafedra mudiri, har semestr yakunida fakultet dekani, dekan o'rinbosarlari, fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) va tegishli yo'nalishlar bo'yicha prorektorlar tomonidan nazorat qilib boriladi.

2-bob. Professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasini hisoblash

5. Professor-o'qituvchilarning (madaniyat va san'at yo'nalishlari o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etadigan konsertmeysterlarning) o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan, uning asosiy qismi bo'lgan o'quv yuklamasining soatlardagi hajmi mazkur Qoidalarining 1-ilovasida nazarda tutilgan Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me'yorlarida belgilangan ish turlaridan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida hisoblanadi.

Professor-o'qituvchilarning egallab turgan lavozimlari bo'yicha o'quv yuklamasi hajmi fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

6. O'quv yuklamasi bo'yicha hisoblangan soatlar hajmi oliy ta'lim muassasasining shtat birliklari sonini hamda professor-o'qituvchilarning oylik maoshlarini belgilash uchun asos bo'lmaydi.

Shtat birliklari professor-o'qituvchilarning talabalar soniga nisbati bo'yicha, oylik maoshi esa xarajatlar smetasi bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Ijodiy ta'tillar berish tartibi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan normalarga muvofiq olib borilayotgan ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish maqsadida professor-o'qituvchilarning o'quv ishlari yuklamasi hajmi kafedra yig'ilishining taklifiga asosan oliy ta'lim muassasasi kengashining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin. Bunda professor-o'qituvchilarning tegishli o'quv

yuklamasining muayyan qismi kafedraning boshqa professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasiga qo'shimcha ravishda taqsimlanadi.

8. Ma'ruza mashg'ulotlari ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladi. Zarur hollarda (ma'ruza mashg'ulotlari hajmi ko'p bo'lganda yoki professor, dotsent va katta o'qituvchilar yetarli bo'lmaganda) oliy ta'lim muassasasi Kengashining qaroriga asosan kamida 3 yillik ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lgan, biroq ilmiy unvon va ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga bir o'quv yilida 250 soatgacha hajmda ma'ruza mashg'ulotlarini o'tishga ruxsat beriladi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv (ma'ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmi 400 soatdan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi. Kafedraga sohaning yetakchi mutaxassislari (akademiklar va professorlar) jalb etilganda, ushbu o'quv soatlari hajmiga oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga muvofiq o'zgartirish kiritish mumkin.

3-bob. Professor-o'qituvchilarning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash

9. Professor-o'qituvchilar faoliyatining o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlari bo'yicha soatlar hajmi hisoblanmaydigan ish turlari mazkur Qoidalarining 2-ilovasida nazarda tutilgan Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlari turlaridan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida belgilanadi.

10. Professor-o'qituvchilarning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlari hajmi mazkur ish turlarini bajarish zaruriyatidan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

11. Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik, ijodiy mahoratini uzluksiz oshirib borish, talabalarda chuqur nazariy bilim, amaliy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, ilm-fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, har tomonlama yetuk mutaxassis tayyorlashni nazarda tutgan holda kafedra mudiri o'qitishni ilg'or pedagogik va kompyuter texnologiyalari, yangi avlod o'quv adabiyotlari asosida tashkil etish hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlar bo'yicha aniq topshiriqlarni belgilaydi.

4-bob. Yakuniy qoida

12. Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Qurilish vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Davlat soliq qo'mitasi, Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ va Navoiy kon-metallurgiya kombinati Davlat korxonasi bilan kelishilgan.

O'quv-uslubiy ta'minot

Universitet ARM fondidagi mavjud adabiyotlar va elektron adabiyotlardan AL foydalanishiga imkoniyat yaratilgan. Universitetda akademik litsey uchun umumta'lim fanlaridan elektron o'quv qo'llanmalari yaratish uchun sharoit yaratilgan va kelgusida AL va KHKlardan buyurtma qabul qilinib, mos fanlardan elektron qo'llanmalar, taqdimot materiallarini hamkorlikda tayyorlashni yo'lga qo'yish ishlari olib borilmoqda. Har o'quv yilida reja asosida AL va KHKlar uchun o'quv adabiyotlari va elektron ta'lim resurslari yaratilmoqda.

Kelgusi o'quv yillarida AL va KHKlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda kafedralar professor-o'qituvchilarini o'rindoshlik asosida ishga jalb etishda fan doktorlari, fan nomzodlari salmog'ini ko'paytirish rejalashtirilmoqda. Ushbu masala universitet Ilmiy Kengashida muhokama etilganda, AL va KHKlar direktorlari tomonidan berilgan talabnomalar bo'yicha professor-o'qituvchilarni o'rindoshlik asosida ishlashga tavsiya etish va rektor buyrug'i asosida rasmiylashtirish, universitet hamda AL va KHKlar tomonidan ularga tegishli shart-sharoitlar yaratish to'g'risida qarorlar qabul qilindi. Universitet kafedralari tomonidan o'quv-metodik majmualar, metodik qo'llanma, ishlanma va ko'rsatmalarni tayyorlashda AL va KHKlarning ushbu fan bo'yicha dasturini e'tiborga olish va bu metodik adabiyotlarni fanning aniq bo'limlari va metodik jihatdan yaxshi ishlanmagan masalalariga bag'ishlash zarur. Universitet ARM fondidagi mavjud o'quv, badiiy adabiyotlar va ularning elektron nusxalaridan AL va KHKlar pedagoglari va o'quvchilarining foydalanishiga imkoniyat yaratilgan. Universitetda akademik litsey uchun umumta'lim fanlaridan elektron o'quv qo'llanmalari yaratish uchun sharoit yaratilgan.

Nazorat savollari

1. Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi
2. Professor-o'qituvchilarning egallab turgan lavozimlari bo'yicha o'quv yuklamasi

20 Mavzu: Ta'lim yo'nalishining o'quv-uslubiy ta'minoti.

Reja:

1. Darslik va uning turlari.
2. O'quv – uslubiy majmua.
3. O'quv – metodik majmua.
4. Didaktik o'quv vositalari.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim jarayoni mazmunini isloh qilish asosan me'yoriy hujjatlar majmui (davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlari) asosida kadrlarga ta'lim va tarbiya berish milliy istiqloq g'oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Shuning uchun ham mutaxassis modelini ishlab chiqishda shaxs, davlat va jamiyatning quyidagi ehtiyoj belgilarini, ya'ni muayyan shaxs ta'lim oladigan yo'nalish bo'yicha standartlari, yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tasniflovchi talablarini e'tiborga olish zarur. Albatta, ishlab chiqilgan model bitiruvchining kasbiy-shaxsiy sifatini nazorat qilish tizimini va nazorat qilish texnologiyasini qamrab olishi kerak. Maxsus fanlar o'quv - uslubiy ta'minotini yaratishda ta'lim jarayonini tashkil etishda, o'qitishning samarali usullarini tanlashda, ta'lim mazmunini belgilashda o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Darslik barcha ta'lim turlari va fanlar bo'yicha eng keng tarqalgan o'qitish vositasi bo'lib, o'quv-uslubiy ta'minotning yetakchi komponenti hisoblanadi. Shuning uchun maxsus fanlar bo'yicha darsliklar yaratish jarayoniga birinchi navbatda o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiquvchilar jalb qilinishi kerak. Maxsus fanlardan zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish uchun mutaxassislar tayyorlashda o'quv-uslubiy majmualarning hozirgi davrda qay darajada o'quv maqsadlari va vazifalariga erishishni ta'minlashini, ularni qaysi didaktik tamoyillar asosida tuzishni va ishlab chiqishni o'rganish lozim. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ta'lim oluvchilarni kasbga va mehnatga tayyorlash samaradorligi asosan o'quv-uslubiy majmuasining o'zaro bog'liq komponentlariga, ya'ni dasturdagi o'quv materialining tuzilmasiga, o'qitish metodikasiga, o'quv adabiyotlari va ko'rgazmali materiallariga bog'liq bo'ladi. Ular o'quv-uslubiy majmuasini ta'lim oluvchilarni mehnatga va kasbga tayyorlash bo'yicha o'qitish jarayonidagi funksiyalariga qarab guruhlaydilar, ya'ni me'yoriy hujjatlarga (o'quv rejasi, o'quv dasturlari); o'qitish uchun metodik materiallarga (xususiy metodikalarni ishlab chiqish, metodik jurnallar); talabalar uchun o'quv

adabiyotlari (darsliklar, didaktik materiallar, tajriba va amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanmalar) va ko'rgazmali materiallar (rasmlar, asl namunalar va ob'yektlar). Tadqiqotchilar o'quv-uslubiy majmuasining asosiy zvenosi deb darslikni hisoblaydilar. Ta'lim oluvchilarning mutaxassislik fanidan ma'lum bir texnikaviy va texnologik topshiriqni mustaqil ravishda bajarishlari uchun ularning darsliklar, turli texnikaviy adabiyotlar, uslubiy

ko'rsatmalar, lug'atlar, chizmalar, sxemalar, mahsulotlar, xom ashyo materiallari, maketlar va jihozlar, asbob va uskunalarni o'zida qamrab olgan o'quv-uslubiy majmualar bilan ta'minlanishi o'qitishni faollashtiradi va ijodiy yondashuvli ta'limni shakllantiradi. O'quv-uslubiy majmua – to'plam sifatida emas, balki alohida komponentlarning funksiyalari jihatidan o'zaro almashinuvchanligi mumkin bo'lgan o'qitish vositalari tizimi sifatida ishlab chiqilishi kerak. Bu – didaktik vositalarning ochiq tizimi bo'lib, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalardan tashqari turli xil adabiyotlarni ham o'zida qamrab oladi. Ushbu o'quv-uslubiy majmua tuzilmasidagi invariant mazmunning tashuvchisi bo'lib, tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha asosiy tushunchalar va terminlarning lug'at-ma'lumotnomasi xizmat qilishi mumkin. Qolgan ma'lumot beruvchi materiallar variativ hisoblanadi. Mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarning asosiy qismlariga quyidagilar kiradi: mutaxassislik fanining mazmunini, hajmini va o'qitish tartibini belgilovchi hujjatlar va materiallar (o'quv rejasi, o'quv dasturi, fanni o'qitish metodikasi va boshqalar); o'quv jarayonini nazorat qilish hamda bilimlarni mustahkamlash bo'yicha materiallar va hujjatlar; o'quv-uslubiy materiallar (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, mavzuiy rejalar va boshqalar);

mustaqil o'rganish va bilimlarni mustahkamlash bo'yicha manbalar (mustaqil o'rganish bo'yicha kitoblar, lug'atlar, ma'lumotlar to'plami, qayta takrorlash uchun ko'rsatmalar, praktikumlar va boshqalar); o'quv tarbiya jarayonining texnologik jihatlarini ta'minlovchi materiallar (asl ob'yektlar va narsalar, asboblar, modellar, maketlar, plakatlar, tarqatma materiallar, kompyuter texnikalari uchun vositalar, proyeksion, diakino va video texnikalar); o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv- uslubiy materiallar. O'quv-uslubiy majmuaga kiruvchi komponentlarning mazmuni va tarkibi o'quv predmetining turi bo'yicha aniqlanadi. Chunki o'quv predmetining turi bo'yicha zaruriy va qo'shimcha o'quv materiallari, mashqlar, topshiriqlar, mustaqil o'rganish bo'yicha materiallar turlicha darajada aniqlanadi. Maxsus fanlar o'quv- uslubiy majmuasi komponentlarining va o'qitish metodikasining mazmuni ta'lim turi bo'yicha ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida tuzilgan o'quv dasturiga muvofiq aniqlanadi. Maxsus fanlar o'quv uslubiy majmuasiga kiruvchi har bir o'qitish vositasi didaktik jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. O'quv majmuasining barcha o'qitish vositalarida asosiy tushunchalar, terminlar, shartli belgilar bir xil bo'lishiga rioya qilinishi hamda talabalarning mutaxassislik fanlarini o'rganish bo'yicha egallashi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mutaxassislik fanlarini o'qitish sifatini yaxshilash uchun o'quv-uslubiy majmua tarkibiga quyidagi o'qitish vositalari kirishi kerak: 1. Asosiy o'qitish vositalari – tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha ta'lim standartlari, o'quv rejalar va fan dasturlari, bosma va elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar. 2. Qo'shimcha o'qitish vositalari – dars jarayonini tashkil etish bo'yicha yo'riqnoma, mashq va masalalar to'plami, plakatlar, slaydlar, elektron multimediali o'quv qo'llanmalar, nazorat va test savollari to'plami, tarqatma

Nazorat savollari

1. Darslik va uning turlari.
2. O'quv – uslubiy majmua.
3. O'quv – metodik majmua.
4. Didaktik o'quv vositalari.

AMALIY DARS ISHLANMASI.

3- semester

1-2- Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimi va uning yo‘lga qo‘yilishida amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bazasi (4 soat)

Darsning maqsadi:

Talabalarga Oliy ta‘limda MOM fanini o‘zlashtirishda amaliy yordam berish. Talabalarda oliy ta‘limda musiqa o‘qitish metodikasi kursining nazariy asoslariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, talabalarni zamonaviy metodlar asoslari bilan tanishtirish. Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish kobilyatini xosil qilish. Talabalarning musiqiy dunyokarashini, pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish Talabalarda musiqiy-estetik didini to‘g‘ri yo‘naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish. Talabalarni musiqa o‘qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlash

Darsning jihozlanishi: Fortepiano cholg‘usi, talabalarda ma‘ruza matnlari, kompyuter, videoproektor. Dars ishlanmasining yozma va elektron varianti, slayd, nota daftari, qalam, o‘chirg‘ich, doska.

Darsning rejasi:

I. Tashkiliy qism.

- Auditoriya darsga tayyorgarligi, talabalar davomati, darsga tayyorgarligi sog‘ligi, ruhiyati nazoratdan o‘tkaziladi. Dars loyihasi bilan tanishtirish. Berilgan nota matnlari ustida ishlash, chalish va kuylash. Mavzuni mustxkamlash. Mavzu yzasidan muhokama o‘tkazish. Mustaqil ta‘lim uchun topshiriqlar berish. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy masalalar yzasidan suhbat. Darsni yakunlash.

II. Magistratura mutaxassisligining malaka talablari. Oliy ta‘limning malaka talablari magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash, o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta‘lim muassasasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda ushbu malaka talablari asosida tayyorlangan o‘quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari: } mazkur ta‘lim sohasining magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan

holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;) ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklarning o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;) o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);) bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;) oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;) oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;) ta'lim sohasining magistratura mutaxassisliklardan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar, otonalar va boshqa manfaatdorlar. Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:) ilmiy-tadqiqot faoliyati;) ishlab chiqarish faoliyati;) tashkiliy-boshqaruv faoliyati;) oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiypedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;) konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

2.3. O'quv reja va ishchi o'quv reja. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy xujjat - o'quv rejalari hisoblanadi. O'quv rejasini - ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fan, ularning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv rejasini tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Bir tipdagi ta'lim muassasalari uchun o'quv rejasini yagona va majburiydir. SHu bilan birga, har bir ta'lim muassasasi o'quv rejasini belgilangan miqdorda o'zgartirishi mumkin. o'quv rejasini O'quv rejasining umumiy va majburiyligi ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi uchun ham o'quv rejasida ta'limning insonparvarlashuviga alohida e'tibor berilgan. O'quv rejasini muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda ta'lim muassasasi talabasi, talabasi yoki tinglovchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan. O'quv rejalari ikki turga bo'linadi: namunaviy va ishchi o'quv rejalari. Namunaviy o'quv reja – oliy ta'lim muassasalarining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun o'rnatilgan tartibda Davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedrasining yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan turdosh oliy ta'lim muassasalarining shu soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarini hamda kadrlarni buyurtmachilarini jalb etgan holda ishlab chiqiladigan me'yoriy huquqiy xujjatdir. Ishchi o'quv reja - oliy ta'lim muassasasining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun namunaviy o'quv reja asosida har o'quv yili uchun ishlab chiqiladigan va o'rnatilgan tartibda OTMning rektori tomonidan tasdiqlanadigan o'quv jarayonining asosiy me'yoriy hujjatidir. O'quv rejada quyidagilar o'z ifodasini topadi: 1. Tayyorlov yo'nalishi (ixtisoslik) 5 kodi va uning nomlanishi, o'qish muddati, o'qishni tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi. O'quv reja - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari, kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me'yoriy xujjatdir. 2. Ta'lim shakli. 3. O'quv

davrining taqsimoti (jadvali). 4. O'quv jarayonining rejasi. 6.1.O'rganiladigan o'quv predmetlari. 6.2. Har bir o'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori. 6.3. O'rganish uchun ajratilgan vaqtni – nazariy, amaliy va tajriba mashg'ulotlari, seminarlar, kurs ishlari va mustaqil ta'limga qanday miqdorda taqsimlanganligi. 6.4. O'quv predmetini qaysi kurs, semestrlarda, haftasiga qancha soatdan o'rganish tartibi. 7. Davlat Attestatsiyasi. 8. Tanlov fanlarinig ro'yxati 9. Izohlar O'quv rejalarini ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rganish davriga aniq mos tushishini e'tiborda tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxasislarning bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma – bosqich chuqur o'rganishlari, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

III. O'tilgan darsni hulosalash.

- 1). Dars davomida o'tilgan mavzu yzasidan me'yoriy xujjatlar bilan tanishish
- 2). Mavzu bo'yicha namunaviy fan dasturi va sillabus tayyorlash.

IV. Yangi dars bayoni.

Doskaga oy, kun qayd etish.

- Talabalarga o'tiladigan mavzuni tanishtirish.
- Mavzuni qisqacha taxlili.
- Amaliy darsning murakkab bo'limlarini haqida tushuncha beriladi.
- Mavzuga oid ma'lumotlarni, yangi termenlarni taxlil qilish.

V. Yangi darsni mustahkamlash

- 1). - Mavzuga oid ma'lumotlarni, yangi termenlarni taxlil qilish .
- 2). - Yangi mavzu bo'yicha talabalar bilan muhokama o'tkaznsh.

VI. Mustaqil ish vazifalarini berish.

- 1). Mavzu bo'yicha namunaviy fan dasturi va sillabus tayyorlash.
- 2). Mavzuga oid o'quv reja va DTS bilan to'liq tanishib chiqish.
- 3). Kerakli ma'lumotlarni yod olish.

Pogʻonaning nomi	do	re	mi	fa	sol	lya	si
Harfiy belgisi	C	D	E	F	G	A	H

1 2 3 4 5 6 7 8 obertonlar 12 13 14 15 16

asosiy ton

Ut que . ant la . xis

re . so . na . re fib . ris

mi . ra ge . sto . rum


fa . mu . li tu . o . rum

sol . ve po . lu . ti

la . bi . i re . a . tum

Sanc . te Jo . han . nes.

(0,5 ton + 0,5 ton = 1 butun ton).



6-misol.

AMALIY DARS ISHLANMASI.

3-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tashkil etishning me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bazasi (2soat)

I. Darsning maqsadi: Talabalar bilan O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tashkil etishning me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bazasida mavjud me‘yoriy-huquqiy hujjatlar mazmun mohiyatini ishlab chiqish.

Talabalarda oliy ta‘limda musiqa o‘qitish metodikasi kursining nazariy asoslariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, talabalarni zamonaviy metodlar asoslari bilan tanishtirish. Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish kobilyatini xosil qilish. Talabalarning musiqiy dunyokarashini, pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish Talabalarda musiqiy-estetik didini to‘g‘ri yo‘naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish. Talabalarni musiqa o‘qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlash

II. Darsning jihozlanishi: Fortepiano cholg‘usi, talabalarda ma‘ruza matnlari, kompyuter, videoproektor. Dars ishlanmasining yozma va elektron varianti, slayd, nota daftari, qalam, o‘chirg‘ich, doska.

Darsning rejasi:

III. Tashkiliy qism.

- Auditoriya darsga tayyorgarligi, talabalar davomati, darsga tayyorgarligi sog‘ligi, ruhiyati nazoratdan o‘tkaziladi. Dars loyihasi bilan tanishtirish. Berilgan nota matnlari ustida ishlash, chalish va kuylash. Mavzuni mustxkamlash. Mavzu yzasidan muhokama o‘tkazish. Mustaqil ta‘lim uchun topshiriqlar berish. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy masalalar yzasidan suhbat. Darsni yakunlash.

IV. O‘tilgan darsni hulosalash.

- 1). Dars davomida o'tilgan mavzu yzasidan me'yoriy xujjatlar bilan tanishish
- 2). Mavzu bo'yicha namunaviy fan dasturi va sillabus tayyorlash.

V. Yangi dars bayoni.

Doskaga oy, kun qayd etish.

- Talabalarga o'tiladigan mavzuni tanishtirish.
- Mavzuni qisqacha taxlili.
- Amaliy darsning murakkab bo'limlarini haqida tushuncha beriladi.
- Mavzuga oid ma'lumotlarni, yangi termenlarni taxlil qilish.

VI. Yangi darsni mustahkamlash


- 1). - Mavzuga oid ma'lumotlarni, yangi termenlarni taxlil qilish .
- 2). - Yangi mavzu bo'yicha talabalar bilan muhokama o'tkaznsh.

V. Mustaqil ish vazifalarini berish.

- 1). Mavzu bo'yicha namunaviy fan dasturi va sillabus tayyorlash.
- 2). Mavzuga oid o'quv reja va DTS bilan to'liq tanishib chiqish.
- 3). Kerakli ma'lumotlarni yod olish.



10-misol.



11-misol. Do kalitlari tizimi.



14-misol.



12-misol. Kalitlarning va notalar joylashuvlarining ko'zguli aksi.

Cho'zimlar soni	Tovush cho'zimlarining notali ishorasi				
1 ta					
2 ta					
4 ta					
8 ta					
16 ta					
32 ta					

13-misol. Cho'zimlarning asosiy bo'linish jadvali.

OYMOJON ROM BO'LDI

Shermat Yormatov musiqasi

Quddus Muhammadiy she'ri

Solist

Oy-mo-ma-jon rom bo'l-di, rom bo'l - di, Os- mon-gum-baz
tom bo'l-di, tom bo'l - di, Os-mon gum-baz to - mi - ga
lo-chin bo'lib qo'na - miz Yo-rug'yul-duz yu - zi - ga, Muh-ri-miz-ni
Oy us - ti - ga
qo' - ya - miz. O'z - be - kis-ton bay - ro - g'in a.....

15-misol.

Ritm
Tomir urishi

42-misol.

AMALIY DARS ISHLANMASI.

4-Mavzu: Oliy ta'limda musiqiy ta'limning maqsad, vazifalari va mazmuni (2 soat)

Darsning maqsadi:

1. Oliy ta'limda musiqiy ta'limning maqsad, vazifalari va mazmuni mohiyatini ishlab chiqish.

Talabalarda oliy ta'limda musiqa o'qitish metodikasi kursining nazariy asoslariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, talabalarni zamonaviy metodlar asoslari bilan tanishtirish. Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish kobilyatini xosil qilish. Talabalarning musiqiy dunyokarashini, pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish Talabalarda musiqiy-estetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish. Talabalarni musiqa o'qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlash

Oliy ta'limda musiqiy ta'limning maqsad, vazifalari va mazmuni asoslariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, talabalarni zamonaviy o'qitish asoslari bilan tanishtirish. Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish kobilyatini xosil qilish. Talabalarning musiqiy dunyokarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish Talabalarda musiqiy-estetik didini

to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish. Talabalarni musiqa o'qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlash

Darsning jihozlanishi: Fortepiano cholg'usi, talabalarda ma'ruza matnlari, kompyuter, videoproektor. Dars ishlanmasining yozma va elektron varianti, slayd, nota, doska.

Darsning rejasi:

I. Tashkiliy qism.

II. - Auditoriya darsga tayyorgarligi, talabalar davomati, darsga tayyorgarligi sog'ligi, ruhiyati nazoratdan o'tkaziladi. Dars loyihasi bilan tanishtirish. Berilgan nota matnlari ustida ishlash, chalish va kuylash. Mavzuni mustxkamlash. Mavzu yzasidan muhokama o'tkazish. Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar berish. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy masalalar yzasidan suhbat. Darsni yakunlash.

II. O'tilgan darsni hulosalash.

- 1). Dars davomida o'tilgan mavzu yzasidan mashniqlarni ishlash va chalish.
- 2). Mavzu bo'yicha qoida va ko'rsatmalarni yod olish.

III. Yangi dars bayoni.

Doskaga oy, kun qayd etish.

- Talabalarga o'tiladigan mavzuni tanishtirish.
- Mavzuni qisqacha taxlili.
- Amaliy darsning murakkab bo'limlarini haqida tushuncha beriladi.
- Mavzuga oid ma'lumotlarni, yangi termenlarni taxlil qilish, mashniqlarni ishlash, qoidalarni yod olish.

Dars, musiqa tarbiyasi tizimida, yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, bolalar yalpitarda qamrab olinadi. Musiqa bolalami aqliy hamda axloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o'qitish metodikasi emas, balki musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi. Yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy va nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va ruxiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. UmumtaTim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, «jonli» qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat e'tiborini asarga jalb etadi, ulaming nutqini ustirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, elyutsional his -tuyg'ularga ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirini emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini

rivojlantirish, estetik madoniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his -tu y g 'ularini shakllantirish nazarda tutiladi.

IV. Yangi darsni mustahkamlash


- 1). - Mavzuga oid ma'lumotlarni, yangi termenlarni taxlil qilish .
- 2). - Yangi mavzu bo'yicha talabalar bilan muhokama o'tkaznsh.

II. Mustaqil ish vazifalarini berish.

- 1). Mavzuga oid berilgan matnlardan foydalanib xulosalar tayyorlash
- 2). Mavzuga oid slayd yoki tarqatma materiallar ishlab chiqish.
- 3). Muhim ma'lumotlarni yod olish.



60-misol.



61-misol.



63-misol.



64-misol.

Oliy ta'limda musiqiy ta'limning maqsad, vazifalari va mazmuni asoslariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, talabalarni zamonaviy o'qitish asoslari bilan tanishtirish. Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish kobilyatini xosil qilish. Talabalarning musiqiy dunyokarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish Talabalarda musiqiy-estetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish. Talabalarni musiqa o'qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlash

Darsning jhozlanishi: Fortepiano cholg'usi, talabalarda ma'ruza matnlari, kompyuter, videoproektor. Dars ishlanmasining yozma va elektron varianti, slayd, nota, doska.

Darsning rejasi:

I. Tashkiliy qism.

- Auditoriya darsga tayyorgarligi, talabalar davomati, darsga tayyorgarligi sog'ligi, ruhiyati nazoratdan o'tkaziladi. Dars loyihasi bilan tanishtirish. Berilgan nota matnlari ustida ishlash, chalish va kuylash. Mavzuni mustxkamlash. Mavzu yzasidan muhokama o'tkazish. Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar berish. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy masalalar yzasidan suhbat. Darsni yakunlash.

II. O'tilgan darsni hulosalash.

- 1). Dars davomida o'tilgan mavzu yzasidan mashiiqlarni ishlash va chalish.
- 2). Mavzu bo'yicha qoida va ko'rsatmalarni yod olish.

III. Yangi dars bayoni.

Doskaga oy, kun qayd etish.

- Talabalarga o'tiladigan mavzuni tanishtirish.
- Mavzuni qisqacha taxlili.
- Amaliy darsning murakkab bo'limlarini haqida tushuncha beriladi.
- Mavzuga oid ma'lumotlarni, yangi termenlarni taxlil qilish, mashiiqlarni ishlash, qoidalarni yod olish.

